

2024 DAVLAT BUDJETI

Davlat budjeti va
davlat maqsadli
jamg'armalari
budjetlarining
2024-yil I yarim
yillik ijrosi
HISOBOTI

Mundarija


Kirish	3–11
I. Davlat budjeti daromadlarining ijrosi.....	12–20
II. Davlat budjeti xarajatlarining ijrosi.....	21–89
III. “Tashabbusli budjet” jarayoni.....	90–94
IV. Mahalliy budjetlar ijrosi.....	95–98
V. Davlat maqsadli jamg‘armalari ijrosi.....	99–124
VI. Vazirliklar va idoralar ichki audit xizmatlari hamda Davlat moliyaviy nazorati natijalari	125–127
VII. Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi G‘aznachilik xizmati tomonidan hisobot davrida amalga oshirilgan ishlar.....	128–133
VIII. Davlat-xususiy sheriklik, xalqaro reyting va indekslar, Davlat xaridlari hamda boshqa ko‘rsatkichlari	134–138
Ilovalar	

Kirish


Jahon iqtisodiyotida o'zgaruvchanlik va noaniqlikning saqlanishi sharoitida joriy yilning I yarmida mamlakatimiz **yalpi ichki mahsuloti 567,4 trln** so'mni tashkil etib, **6,4 foizga** oshdi.

Bunda, **bozor xizmatlari 12,9 foizga**, sanoat – **7,8 foiz**, qurilish ishlari – **10,1 foiz** va **qishloq xo'jaligi – 3,8 foizga** o'sdi.

1-rasm. Iqtisodiyot tarmoqlari o'sish sur'atlari, foizda




2-rasm. Tarmoq va sohalarning YIM o'sish sur'atidagi hissassi ulushi, foizda




a) Joriy yilning **6 oyida inflatsiya darajasi 5,2 foizni** (2022-yilda – **6,5 %**) tashkil etdi, bunda, oziq-ovqat **1,8 foizga arzonlagan** bo'lsa, nooziq-ovqat – **3,3 foiz** va xizmatlar **21,1 foizga** qimmatlashdi.

Oziq-ovqat mahsulotlarining jami inflatsiyadagi ulushi **-0,77 foiz bandni tashkil qilib**, hisobot davrida **inflatsiya darajasini pasaytiruvchi** omil bo'ldi.

3-rasm. INI o'tgan oyga nisbatan, foizda



4-rasm. INI yil boshiga nisbatan, foizda



Inflatsiya darajasini oshiruvchi omillardan biri **xizmatlar** inflatsiyasi bo‘lib, uning jami inflatsiyadagi ulushi **4,9 foiz** bandni tashkil qildi.

b) Hisobot davrida, **faoliyat ko‘rsatayotgan yuridik shaxslar** va **yakka tartibdagi tadbirkorlik subyektlar** soni o‘tgan yilga nisbatan qariyb **21,5** mingga oshib, **833** mingga yetdi. Shundan, **yuridik shaxslar** soni – **547,5** mingtani va **YTTlar** – **286** mingtani tashkil etmoqda.

Ma'lumot uchun: hududlar kesimida faoliyat ko‘rsatayotgan yuridik shaxslar va YTT subyektlarning eng yuqori soni Toshkent shahrida 136,9 ming ta, Samarqanda – 82,6 ming ta, Farg‘onada – 77,3 ming ta va Toshkent viloyatida 75 ming tani tashkil qilmoqda.

Yalpi ichki mahsulot o‘shining talab omillari

o **aholining real umumiy daromadlari 8,6 foizga** oshib, aholi jon boshiga real umumiy daromadlar **9,9 mln** so‘mni tashkil etdi;

o **chakana savdo aylanmasi 154,6 mlrd** so‘mni yoki o‘sh sur‘ati **8,4 foizni** tashkil etdi.

o **o‘rtacha nominal ish haqi 5,1 mln** so‘mni (**17,4%**) tashkil etdi;

o **pul o‘tkazmalari** hajmi o‘tgan yilning mos davriga nisbatan **24 foizga (6,4 mlrd doll)** o‘sdi;

o **asosiy kapitalga investitsiyalar 36,6 foizga (229,3 trln so‘m);**

o **savdo va pullik xizmatlaridan pul tushumlari (naqd pul va to‘lov terminallari orqali) 37 foizga** ko‘paydi;

o iqtisodiyotga jami **ajratilgan kreditlar qoldig‘i** o‘tgan yilning mos davriga nisbatan **18,5 foizga** oshib **523,6 trln** so‘mni tashkil qildi.

Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar

Hisobot davrida, **asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalar** hajmi **229,3 trln** so‘mni tashkil etib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan **36,6 foizga** o‘sdi. Bunda:


Markazlashgan investitsiyalar hajmi **24,5 trln** so‘mni (*o‘shish – 20,9%*) tashkil etdi. Xususan, tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasi mablag‘lari – **1,8 trln** so‘m (*3 barobarga*) va hukumat kafolati ostidagi kreditlar – **1,7 barobarga** oshgan.

Markazlashmagan investitsiyalar hajmi **204,8 trln** so‘mni tashkil etib **38,7 foizga** o‘sdi. Xususan, to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar va kreditlar – **143,1 trln** so‘m (*1,7 barobarga*), aholi mablag‘lari – **14 trln** so‘m (*3,9%*) va korxonalar mablag‘lari – **42 trln** so‘m (*4,3%*) o‘sdi.

O‘zlashtirilgan investitsiyalar natijasida **qurilish ishlari** hajmi **79,8 trln** so‘mga (*o‘shish – 10,1%*) yetkazishga asosiy omillardan biri bo‘ldi.

Bunda, Navoiy (27,8%), Qashqadaryo (16,7%), Toshkent (13,1%), Buxoro (11,1%), Jizzax (10,8%) viloyatlarida va Toshkent shahrida (10%) respublika ko'rsatkichidan yuqori o'sish kuzatildi.

5-rasm. Hududlar kesimida qurilish ishlari hajmi o'sish sur'atlari, foizda




Tashqi savdo aylanmasi

Tahlil davrida tashqi savdo aylanmasi **31,8 mlrd dollarni** tashkil etib, eksport hajmi **13 mlrd** dollarni (ulushi **40,8 foiz**), import hajmi **18,8 mlrd** dollarni (ulushi **59,2 foiz**) tashkil etdi. Bunda, oltinsiz tovarlar eksporti **3,9 foizga** yoki **210,7 mln** dollarga oshgan.


Joriy yilning birinchi yarmida tashqi savdo saldosi **1,1 mlrd dollarga** oshib qariyb **5,8 mlrd dollarni** tashkil qildi (2023-y. 4,7 mlrd doll).

Eksportdagi **5,5 foizlik** o'sish sur'atlari asosan narx hisobiga erishildi.

6-rasm. Eksport tarkibi ko'rsatkichlari, foizda




7-rasm. Import tarkibi ko'rsatkichlari, foizda



Eksport tarkibida neft va neft mahsulotlari – **1,4 barobarga**, kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar – **1,3 barobarga**, xizmatlar – **26 foizga** oshgan.

Mazkur davrda **import** hajmi o‘shish asosan ishlab chiqarishni rag‘batlantiruvchi asosiy vositalar va ehtiyot qismlar hamda yoqilg‘i mahsulotlari tashkil etdi.


8-rasm. Davlatlar kesimida tashqi savdo ko‘rsatkichlari, foizda




Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi **370 trln** so‘mni yoki o‘shish o‘tgan yilning mos davriga nisbatan o‘shish **7,8 foizni** tashkil etdi.

O‘shish sur‘ati ta‘minlanishida asosiy ulush metallurgiya (*o‘shishga 2,7 foiz band hissa qo‘shgan*), to‘qimachilik sanoati (*1,2 f.b*), avtomobilsozlik (*1 f.b*) hamda qurilish mollari ishlab chiqarish tarmoqlar (*0,8 f.b*) hissasiga to‘g‘ri keldi.

9-rasm. Sanoat tarmoqlari o‘shish sur‘atlari, foizda



10-rasm. Sanoat tarmoqlarining o‘shish sur‘atidagi ulushi, foizda



Shuningdek, **tarmoq korxonalari ishlab chiqarish** ko'rsatkichlar tahlili quyidagicha:

a) **O'zeltexsanoat (16,4%), O'zavtosanoat (15,2%) va Navoiy KMKda (6,5%) yuqori o'sish** qayd etildi.

b) **O'zeltexsanoatda 121,3 ming** dona konditsioner (*o'sish – 15,5%*), **662,8 ming** dona ovqat tayyorlash uskunalari (*10,6%*), **9,6 ming** km kuchlanish kabellari (*8,7%*), **263 ming** dona changyutkich (*8,8%*), **321 ming** dona elektr suv isitkichlar (*8%*) va **28 ming** km internet kabellari (*7,9%*);

v) **O'zavtosanoatda 176,2 ming** dona yengil avtomobil (*9,1%*), **372 dona** avtobus (*13,4%*) va **125,2 ming** dona kuch agregatlari (*18,6%*);

g) **Navoiy KMKda oltin (6,5%) va kumush (12,9%) mahsulotlari ishlab chiqarish** ortdi;

d) **“O'zbekko'mir” AJ** tomonidan **2,4 mln tonna (1%)** yoki prognozga nisbatan **7,8 ming tonna ko'p** shuningdek, **“Sharg'unko'mir” AJ** tomonidan **264,5 ming tonna (1,8 barobar)** ishlab chiqarilib, prognozga nisbatan **53,3 ming tonna kam** ko'mir qazilgan.


e) **O'zkimyosanoatda** sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi **8,2 trln** so'mni yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan **o'sish 5,9 foizni** tashkil etdi.

Bundan tashqari, hisobot davrida **Respublika tovar-xomashyo birjasida** yuqori likvidli mahsulotlarning umumiy bitimlar soni o'tgan yilning mos davriga nisbatan hajmi **32 foizga ko'payib, 63,4 trln** so'mni tashkil qildi.

Ma'lumot uchun: sement (1,5 barobarga), polipropilen (1,3 barobarga), suyultirilgan gaz (1,2 barobarga), mis katodi (5%), polietilen (2%) oshdi.

Shu bilan birga, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda **Andijonda (o'sish – 10,7%), Toshkent shahrida (8,9%) va Namanganda (8,8%) respublika ko'rsatkichidan yuqori o'sishga** erishildi.

11-rasm. Hududlar kesimida sanoat tarmog'i o'sish sur'atlari, foizda



Bozor xizmatlari hajmi **268,1 trln** so‘mni tashkil etib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan o‘shish **12,9 foizga** ta‘minlandi.


Ma‘lumot uchun: yalpi ichki mahsulotda xizmatlar sohasining ulushi **47,9 foizni** tashkil etib o‘tgan yilning mos davriga (47%) nisbatan **0,9 foizga** oshdi.

Bunda, **tarmoqlar kesimida yuqori o‘shish** sur‘atlari ta‘lim (**22,5%**), aloqa va axborotlashtirish (**20,5%**), moliyaviy xizmatlar (**20%**), ko‘chmas mulk (**12,6%**), sog‘liqni saqlash (**11,1%**), savdo (**10,5%**), yashash va ovqatlanish (**9,1%**), xizmatlari hissasiga **to‘g‘ri keldi**.

12-rasm. Bozor xizmatlari o‘shish sur‘atlari, foizda



13-rasm. Hududlar kesimida bozor xizmatlari o‘shish sur‘atlari, foizda



Shu bilan birga, hududlarda yuqori o‘shish sur‘atlari faqat Toshkent shahrida – **17,1 foiz**, Xorazmda – **16,1 foiz**, Jizzaxda – **14,1 foiz**, Andijonda – **13,7 foizga** va Samarqandda – **12,9 foizga** oshdi.

Xizmatlar sohasini rag‘batlantiruvchi omillar quyidagilar:

a) transport sohasida 9 ta havo kemalari, **352 ta** (259 ta mikroavtobus va 2 ta elektrobus) avtobuslar harid qilinib, **35 ta** yangi avtobus yo‘nalishlari ochildi.

Yo‘lovchi tashish yuqori o‘shish sur‘ati metropolitenda **131,8 mln nafar** yo‘lovchi tashilib, **62,8 foizga**, havo transportida **3,5 mln nafar** yo‘lovchi tashilib, **34,1 foizga oshgan**.

b) Joriy yil 6 oyda 3,5 mln dan ortiq chet el fuqarolari **turistik** maqsadda O‘zbekistonga tashrif buyurib, o‘tgan yilning mos davri bilan solishtirilganda **415,6 ming** nafarga yoki **13,3 foizga** oshdi.

Respublika bo‘yicha joriy yilda mahalliy va xorijiy turistlar uchun **282 ta** yashash uylari tashkil etildi.

v) aloqa va axborotlashtirish xizmatlari **21,3 trln** soʻmni tashkil etib, **20,5 foizga** oshdi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining **79 foiz ulushi telekommunikatsiya (46%)** va **IT (33%)** xizmatlari hissasiga toʻgʻri keladi.

Xususan, **Ayti boʻyicha xizmatlar** hajmi **7 trln** soʻmni tashkil etib, oʻtgan yilning mos davriga nisbatan **34 foizga** oshdi.

g) **moliyaviy xizmatlar** hajmi **20 foizga** oʻsib, oʻtgan yilga nisbatan (**22,7%**) oʻsish surʼati sekinlashgan.

Maʼlumot uchun: moliyaviy xizmatlarning jami xizmatdagi ulushi 24,2 foizni tashkil etadi.

Hududlar kesimida tahlil qilinganda **yuqori oʻsish surʼati Xorazm (38,3%), Navoiy (26,7%), Toshkent shahri (24,7%) va Qashqadaryo (24,7%)** viloyatlari hissasiga toʻgʻri keldi.

2024-yil I yarim yilligida iqtisodiyotga **jami ajratilgan kreditlar qoldigʻi** oʻtgan yilning mos davriga nisbatan **18,5 foizga** oshib, **523,6 trln** soʻmni tashkil qildi. Shundan, tijorat banklarining kredit qoʻyilmalari **17 foizga** oʻsib, **494 trln** soʻmni tashkil qildi.

Jumladan, **jismoniy shaxslarga** ajratilgan kreditlar qoldigʻi **30 foizga** oshib, **161,1 trln** soʻmni (*jami kreditlar qoldigʻidagi ulushi – 33%*) va **yuridik shaxslarga – 11 foizga** oʻsib, **332,9 trln** soʻmni tashkil qildi (*ulushi – 67%*).

Maʼlumot uchun: tijorat banklari kredit qoʻyilmalarining tarmoqlar kesimida, sanoat va qurilish tarmoqlarga ajratilgan kreditlar qoldigʻi – 10 foizga, qishloq xoʻjaligiga – 17 foiz, savdo umumiy ovqatlanish xizmatiga – 16 foiz, transport va kommunikatsiyaga – 12 foizga oshgan.

Shuningdek, taʼlim kreditlari qoldigʻi – 1,9 barobarga, mikroqarzlar – 1,8 barobarga, isteʼmol kreditlari – 24 foizga, ipoteka kreditlari – 21 foizga oshgan.

d) **taʼlim xizmatlari 11,9 trln** soʻmni tashkil etib, oʻtgan yilga nisbatan **22,5 foizga** oshdi.

Hududlar kesimida tahlil qilinganda yuqori koʻrsatkich **Toshkent (76%), Namangan (64,8%), Buxoro (38,3%)** viloyatlari va **Qoraqalpogʻiston Respublikasi (28,5%)** hissasiga toʻgʻri keldi.

2023-2024-oʻquv yilida **oliy taʼlim muassasalari** sonini **210** taga yetishi va unda taʼlim olayotgan talabalar soni oʻtgan oʻquv yiliga nisbatan **293,5 mingtaga** yoki **28,2 foizga** oshdi (*1335,6 mingtaga yetdi*).

Maʼlumot uchun: Joriy yilning 1-yarim yilligida respublika boʻyicha jami 58 ta xususiy maktablar tashkil etildi.

e) **sog'liqni saqlash xizmatlari** joriy yilda **4,8 trln** so'mni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan **11,1 foizga** oshdi.

Joriy yilning **yanvar-iyun** oylarida jami **56,9 ming nafar** chet el fuqarolari davolanish maqsadida O'zbekistonga tashrif buyurgan. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davri bilan solishtirilganda **24,6 ming nafarga** yoki **76,4 foizga** oshgan.

***Ma'lumot uchun:** O'zbekiston Respublikasiga davolanish maqsadida kelgan chet el fuqarolarining mamlakatlar kesimida tahlil qilinganda Tojikiston — 43 287 nafar, Qozog'iston — 6 615 nafar, Qirg'iz Respublikasi — 5 485 nafar, Rossiya — 925 nafar, Turkmaniston — 462 nafar, Turkiya — 23 nafar, Afg'oniston — 16 nafar, Ozarbayjon — 9 nafar, boshqa davlatlar — 52 nafar fuqarolar tashrif buyurgan.*

j) **umumiy ovqatlanish** xizmatlari **8,3 trln** so'mlik xizmatlar hajmi yaratilib o'tgan yilga (**8,9%**) nisbatan **7,5 foiz** tashkil etdi.

Hududlar kesimida tahlili qilinganda **yuqori o'sish Sirdaryo (14,5%), Namangan (13,9%) va Andijon (10,9%) viloyatlari** hissasiga to'g'ri kelmoqda.

z) Hududlarda jami **26,5 mingta** yangi **savdo va xizmat ko'rsatish obyekti** ishga tushirilishi natijasida **61,1 mingta yangi ish o'rinlari** yaratildi.

Bunda, chakana savdo **11,1 mingta**, maishiy xizmat **3,2 mingta**, umumiy ovqatlanish **2,1 mingta**, ta'lim sohasida **1,4 mingta**, tibbiyot **423 ta**, turizm **406 ta**, qishloq xo'jaligi **394 ta** va boshqa **7,3 mingta** xizmat ko'rsatish obyektlari ishga tushirildi.

Hududlar kesimida tahlil qilinganda obyektlarni tashkil etish bo'yicha **yuqori ko'rsatkich Buxoro (88%), Namangan (78%) va Toshkent (62%) viloyatlari** hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Qishloq xo'jaligida 170,3 trln so'mlik mahsulot yetishtirilib, o'sish sur'ati **3,8 foizni** tashkil etdi.


Bunga, bahor mavsumining qulay kelishi hamda suv resurslarining har yilgidan ko'ra ko'proq shakllangani **dehqonchilik (4,6%)** va **chorvachilik (3,3%)** sohasida o'sishning yuqori sur'atlarini ta'minlovchi asosiy omil bo'ldi.

Xususan, don yetishtirish hajmi **5,8 mln tonnani** tashkil etib o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati **6,6 foiz**, sabzavot — **3,4 mln tn (3,1%)**, poliz — **260,2 ming tn (7%)**, meva — **1,1 mln tn (5,1%)**, go'sht — **1,3 mln tn (3,4%)**, sut — **5,4 mln tn (2,6%)** va tuxum — **3,7 mlrd dona (4,1%)** o'sdi.


Hududlar kesimida Farg'ona (**4,9%**), Xorazm (**4,3%**), Samarqand (**4,2%**), Toshkent (**4,1%**) viloyatlarida hamda Qoraqalpog'iston Respublikasida (**4%**) respublika ko'rsatkichidan yuqori o'sish sur'atlari kuzatildi.

Ma'lumot uchun: Joriy yilning 6 oyida 2024-yil hosili uchun respublika bo'yicha asosiy maydonlarga **295 ming ga** qishloq xo'jaligi ekinlarini joylashtirildi, **438,3 ming** gektariga ertangi ekinlar ekildi va **75,9 ming ga** yer maydonlari foydalanishga kiritildi.

14-rasm. Asosiy turdagi qishloq xo'jaligi mahsulotlari o'sish sur'atlari, foizda



15-rasm. Hududlar kesimida qishloq xo'jaligi o'sish sur'atlari, foizda



Joriy yilning yanvar-iyun oylarida qishloq xo'jaligi ayrim mahsulotlarning eksporti oshishi kuzatildi. Xususan, **meva-sabzavot mahsulotlari eksporti 8,6 foizga** oshdi. Bunda, sabzavotlarning ulushi **65 foizga** teng bo'lib, ularning eksporti **26,3 foizga** oshdi.

Jumladan, piyoz eksporti o'tgan yilning mos davriga (6 oyiga) nisbatan – **1,2 barobar**, sabzi – **1,8 barobar**, karam – **2,1 barobar**, ko'katlar – **1,5 barobar**, tuxum eksporti – **2,5 barobarga** oshdi.

I. Davlat budjeti daromadlarining ijrosi

2024-yil I yarim yilligida **Davlat budjeti daromadlari 121,0 trln so‘mni** tashkil etib, 2023-yilning mos davriga nisbatan **18,7 trln so‘mga (+18,3 %)** ko‘p bo‘ldi. Jumladan:


– **Soliq qo‘mitasi** tomonidan **89,5 trln so‘m** (jami tushumga nisbatan 74,0%);

– **Bojxona qo‘mitasi** tomonidan **29,4 trln so‘m** (jami tushumga nisbatan 24,3%, QQS bo‘yicha o‘zaro hisobga olingan summa 3,2 trln so‘m) shakllantirildi.

– **Boshqa daromadlar va soliq bo‘lmagan tushumlar 16,3 trln so‘mni** tashkil qildi hamda **2024-yil I yarim yillikda qo‘shilgan qiymat solig‘idan manfiy farqni qoplash uchun** soliq to‘lovchilarga **14,2 trln so‘m** miqdorida (*2023-yilning mos davriga nisbatan 3,4 trln so‘m ko‘p*) qo‘shilgan qiymat solig‘i va kesh-bek summaları qaytarib berildi.

16-rasm

2022-2024-yillarning I yarim yilliklari bo‘yicha Davlat budjeti daromadlari dinamikasi (trln so‘m)




Mahalliy budjetlarda 2024-yilning I yarim yilligida jami **1,1 trln so‘m** (*o‘tkazib beriladigan daromad bilan birga*) **qo‘shimcha daromad** shakllandi.

Jumladan, **Toshkent shahri** 366 mlrd so‘m, **Samarqand viloyati** 126 mlrd so‘m, **Toshkent viloyati** 128 mlrd so‘m, **Namangan viloyati** 70 mlrd so‘m, **Surxondaryo viloyati** 54 mlrd so‘m va **Farg‘ona viloyati** 49 mlrd so‘m.

2024-yilning I yarim yilligida Davlat budjeti daromadlari tarkibida **bevosita** soliqlar **33,3 foizni**, **bilvosita** soliqlar **33,1 foizni**, **resurs soliqlari** **14,2 foizni** va **boshqa daromadlar** **19,5 foizni** tashkil qildi.

2023-2024-yillarning I yarim yilligida davlat budjeti daromadlari tuzilmasi



2024-yilning va o'tgan yilning 1-yarim yilligini solishtirganda, Davlat budjeti daromadlari tuzilmasida bevosita soliqlar ulushi deyarli o'zgarishsiz qolgan. Sezilarli o'zgarishlardan, bilvosita soliqlar ulushi 3,0 foizga kamaygan bo'lsa, resurs soliqlari ulushi 1,4 foizga, boshqa daromadlar ulushi 1,8 foizga oshgan.

Bilvosita soliqlardagi yalpi tushumlar tendensiyasi oshgani holda, budjetdan qaytarib (qoplab) beriladigan QQS summasi ham 2023-yilning mos davriga nisbatan oshdi.

Soliq to'lovchilar sonining o'zgarish dinamikasi (nafar)

Ko'rsatkichlar nomi	2023-yil 1-iyul	2024-yil 1-iyul	%
1. Asosiy soliq turlari bo'yicha to'lovchilar soni			
Foyda solig'i	175 965	222 758	26.6%
Qo'shilgan qiymat solig'i	175 965	222 758	26.6%
Aksiz solig'i, jami	4 650	4 909	5.6%
Yer qa'ridan foydalanilganlik uchun soliq	2 105	2 102	-0.1%
Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	156 467	156 467	0.0%
Yuridik shaxslar mol-mulk solig'i	77 287	78 272	1.3%
Yuridik shaxslar yer solig'i	183 037	186 131	1.7%

Ko'rsatkichlar nomi	2023-yil 1-iyul	2024-yil 1-iyul	%
2. Soliq to'lovchi jismoniy shaxslar			
Daromad solig'i (qat'iy belgilangan daromad solig'i to'lovchi YTT bilan birga)	5 087 012	6 032 752	18.6%
Mol-mulk solig'i	6 748 340	6 812 420	1.0%
Yer solig'i	5 763 490	5 819 444	1.0%

Bevosita soliqlar bo'yicha 2024-yil I yarim yillikda davlat budjetiga jami **40,3 trln so'm** kelib tushdi, ushbu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan **6,0 trln so'mga** yoki **17,6 foizga** ko'p bo'ldi.

18-rasm

Bevosita soliqlar tarkibi



Foyda solig'i bo'yicha tushumlar **22,0 trln so'mni** tashkil etib, 2023-yilning mos davriga nisbatan tushumlar **3,2 trln so'mga** yoki **17,3 foizga** ko'p bo'ldi.

Tog'-kon va metallurgiya sanoati korxonalarining asosiy ishlab chiqarish tovari hisoblangan oltin narxining jahon bozorida yuqori narxlarda bo'lishi tushumlarning o'sish omillaridan biri bo'ldi.

2024-yil I yarim yillikda foyda solig'i to'lovchilar soni **222,8 mingtani** tashkil etib, 2023-yilning mos davriga nisbatan **46,8 mingtaga** yoki **26,6 foizga** oshdi.

Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i tushumlari 2024-yil I yarim yilligida **16,9 trln so'mni** (2023-yil I yarim yilligiga nisbatan **2,6 trln so'mga** yoki **17,9 % ga** oshdi), shundan, **qat'iy belgilangan miqdorda jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i** bo'yicha tushumlar **241,8 mlrd so'mni** tashkil etib, 2023-yilning mos davriga nisbatan **30,7 mlrd so'mga** oshgan.

Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i bo'yicha tushumlarning o'sishiga iqtisodiyotning barcha sektorlarida xodimlar soni va mehnatga haq to'lash fondini legallashtirib borilishi ijobiy ta'sir ko'rsatdi.


2024-yilning I yarim yilligida chakana savdo tovar aylanmasining 8,4 foizga oshishi fonida **aylanmadan olinadigan soliқ bo'yicha** tushumlar **1,4 trln so'mni**

tashkil etdi va 2023-yil I yarim yilligiga nisbatan **215 mlrd so‘mga** yoki **18,9 foizga** oshdi.

Bilvosita soliqlar bo‘yicha tushumlar **40,0 trln so‘mni** tashkil etib, 2023-yilning I yarim yilligiga nisbatan **3,1 trln so‘mga** yoki **8,4 foizga** ko‘p bo‘ldi.

19-rasm

Bilvosita soliqlar tarkibi




2024-yilning I yarim yilligida **qo‘shilgan qiymat solig‘i** tushumlari **26,7 trln so‘mni** tashkil qildi, bu 2023-yilning mos davriga nisbatan **844,5 mlrd so‘mga** ko‘pdir.

Ma‘lumot uchun, hisobot davrida QQS yalpi tushumlari (o‘zaro hisobga olingan summa bilan birgalikda) 40,6 trln so‘mni tashkil etib, o‘tgan yil mos davriga nisbatan 13,2% ga oshgan.

Soliq organlari tomonidan **17,8 trln so‘mni** (2023-yilning mos davriga nisbatan **12,3 foizga ko‘p**) bojxona organlari tomonidan **22,8 trln so‘mni** (shundan o‘zaro hisobga olingan **3,2 trln so‘m**, 2023-yilning mos davriga nisbatan **13,9 foizga ko‘p**) QQS bo‘yicha tushumlar undirilishi ta‘minlandi.

20-rasm

2023-2024-yillar I yarim yilliklarida qo‘shilgan qiymat solig‘i dinamikasi



QQSdan manfiy farqni qoplash uchun 2024-yil I yarim yilligi davomida soliq to'lovchilarga **13,9 trln so'm** miqdorida qo'shilgan qiymat solig'i summasi qaytarildi (*QQS tushumlariga nisbatan 34,3%*). Solishtirish uchun, 2023-yilning mos davrida ushbu maqsadlarda jami **10,0 trln so'm** mablag'lar soliq to'lovchilarga qaytarilgan.

Hisobot davri yakunida qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchilar soni **222,7 mingtani** tashkil etib, 2023-yilga nisbatan **46,8 mingtaga** yoki **26,6 foizga** oshdi.

2024-yilning I yarim yilligi davomida **aksiz solig'i** tushumlari **8,6 trln so'mni** tashkil etdi, 2023-yilning mos davridagi tushumlarga nisbatan **1,6 trln so'mga** yoki **23,0 foizga** oshdi.

Soliq organlari tomonidan yig'ilgan aksiz solig'i tushumlari **8,0 trln so'mni** tashkil etib, 2023-yilning I yarim yilligiga nisbatan **1,3 trln so'mga** yoki 19,8 foizga ko'p bo'ldi. **Bojxona organlari** ma'murchiligida aksiz solig'i tushumlari **576,5 mlrd so'mni** tashkil etdi hamda 2023-yilning mos davriga nisbatan **283,8 mlrd so'mga** yoki deyarli 2 baravarga oshgan.

Aksiz solig'i tushumlari 2024-yilning I yarim yilligida quyidagicha ko'rinishda bo'ldi:

– alkogol mahsulotlari (pivo mahsulotlari bilan birga) – 963,0 mlrd so'm (*2023-yilning mos davrida – 968,1 mlrd so'm*);

– tamaki mahsulotlari – 1 338,7 mlrd so'm (*1 019,8 mlrd so'm*);

– neft mahsulotlari – 335,4 mlrd so'm (*164,4 mlrd so'm*);

– tabiiy gaz – 2 491,9 mlrd so'm (*2 460,7 mlrd so'm*);

– polietilen granulatsiya – 106,9 mlrd so'm (*118,7 mlrd so'm*);

– mobil aloqa xizmatlari – 501,5 mlrd so'm (*392,6 mlrd so'm*);

– benzin, dizel yoqilg'isi va gazni oxirgi iste'molchiga realizatsiya qilishdagi aksiz solig'i – 2 151,4 mlrd so'm (*1 583,9 mlrd so'm*).

Mazkur davrda, tamaki mahsulotlari bo'yicha aksiz solig'i stavkalari 12 foizga indeksatsiya qilish natijasida davlat budjetiga **318,8 mlrd so'm** mablag' kelib tushdi.

Bundan tashqari, tarkibida shakar, boshqa shirinlantiruvchi yoki xushbo'ylashtiruvchi moddalar qo'shimchalari bo'lgan mineral va gazlangan ichimliklarga 1 litr uchun 500 so'm, shuningdek energetik va tetiklashtiruvchi ichimliklarga 1 litr uchun 2 000 so'm miqdorida aksiz solig'ini joriy etish orqali budjetga **178,5 mlrd so'm** undirildi.

Bojxona boji. 2024-yil I yarim yillikda bojxona boji tushumi **4,7 trln so‘mni** tashkil etdi yoki 2023-yilning mos davri bilan solishtirganda **644,7 mlrd so‘mga** yoki **15,9 foizga** oshdi.

Bojxona daromadlarining oshishi asosan valyuta kursining oshishi, import hajmining **2,3 foizga** oshishi, ayrim bojxona imtiyozlarining amal qilish muddatining tugashi bilan bog‘liq.

Resurs soliqlari va mol-mulk solig‘i bo‘yicha umumiy tushumlar **17,2 trln so‘mni** tashkil etib, 2023-yilning mos davriga nisbatan **4,1 trln so‘mga** yoki **31,4 foizga** oshdi.

Tahlil qilinayotgan davrda, resurs soliqlari bo‘yicha daromadlarning asosiy ulushi, ya‘ni **53,5 foizi yer qa‘ridan foydalanganlik uchun soliqqa** to‘g‘ri keladi.

Yer qa‘ridan foydalanganlik uchun soliq bo‘yicha tushumlar o‘tgan yilning mos davriga nisbatan **2,1 trln so‘mga** oshdi (+29,8%) va **9,2 trln so‘mni** tashkil etdi.


2024-yilning I yarim yilligida **mol-mulk solig‘i va yer solig‘i bo‘yicha** tushumlar **7,5 trln so‘mni** tashkil etdi.

Mol-mulk solig‘i bo‘yicha tushumlar 2024-yil I yarim yilligida **3,5 trln so‘mni** tashkil etdi va 2023-yil I yarim yilligiga nisbatan qariyb **1,0 trln so‘mga** yoki **37,6 foizga** oshdi.

Yer solig‘i bo‘yicha tushumlar 2024-yil I yarim yilligida **4,0 trln so‘mni** tashkil etib, 2023-yilning mos davriga nisbatan qariyb **1,0 trln so‘mga** yoki **31,2 foizga** ko‘p bo‘ldi.

21-rasm

2023-2024-yillarning I yarim yilliklarida resurs soliqlari va mol-mulk solig‘i dinamikasi



Tushumlar o‘shishiga quyidagi asosiy omillar ta’sir ko‘rsatdi:

2023-yilda amalda bo‘lgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar uchun bazaviy soliq stavkalarini o‘rtacha 12 foizga indeksatsiya qilinishi;

mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan bazaviy yer solig‘i stavkalariga kamaytiruvchi va oshirish koeffitsiyentlarining qo‘llanilishi;

jismoniy shaxslarning noturar obyektlariga yuridik shaxslar kabi mol-mulk solig‘i undirilishi joriy qilinishi;

soliq ma‘muriyatchiligida mahallabay ishlash tizimini joriy etilishi.

Shuningdek, mahalliy Kengashlar tomonidan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar bo‘yicha bazaviy soliq stavkasiga nisbatan oshiruvchi koeffitsiyentlarning qo‘llanilishi va stavkaning indeksatsiya qilinishi hisobiga koeffitsiyentlarning o‘rtacha qiymati yuridik shaxslar uchun **1,01 ni** (2023-yilda - 0,97) va jismoniy shaxslar uchun **0,97** (2023-yilda - 0,95) etib belgilanishi hisobiga soliq stavkasi 2023-yilga nisbatan yuridik shaxslar uchun **16,8 foiz** hamda jismoniy shaxslar uchun **13 foizga** oshdi.

Amaldagi tartibga asosan tuman va shaharlar kesimida ularning iqtisodiy rivojlanishiga qarab 0,5 dan 2,0 gacha miqdorda kamaytiruvchi yoki oshiruvchi koeffitsiyent qo‘llash vakolati berilgan.

Natijada, joriy yil I yarim yilligida mahalliy budjetlarda qo‘shimcha **608,2 mlrd** so‘m mablag‘ shakllandi.

Jismoniy shaxslarga tegishli bo‘lgan noturar joy obyektlariga 2024-yildan boshlab 1 kv. metr ko‘chmas mulkning eng kam qiymatidan kelib chiqib to‘lash joriy etilishi hisobiga 2023-yilga nisbatan **466,6 mlrd so‘m** ko‘p mablag‘ budjetga undirildi.

Mahalliy Kengashlarga soliq kodeksining 412-moddasida soliq bazasini hisoblashda 1 kv. metr uchun mutlaq miqdorda belgilangan eng kam qiymatga nisbatan 0,5 gacha pasaytiruvchi koeffitsiyentlar kiritish vakolati berilgan.

Joriy yilda Kengashlar tomonidan 1 kv. metr ko‘chmas mulkning eng kam qiymatiga nisbatan tumanlar uchun pasaytiriluvchi koeffitsiyentlarning o‘rtacha miqdori **0,85 ni** (2023-yilda - 0,82) tashkil qildi (0,03 ga oshdi) hamda joriy yilda eng kam qiymat miqdorining **20 foizga** indeksatsiya qilinishi hisobiga 2023-yilga nisbatan soliq bazasi **25,3 foizga** oshdi.

Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqning asosiy stavkasini saqlab qolgan holda, soliq bazasini aniqlashda 1 kv.m uchun o‘rnatilgan minimal qiymatni indeksatsiya qilish natijasida davlat budjetiga 2023-yilga nisbatan **349,7 mlrd so‘m** ko‘p mablag‘ undirildi.

2024-yilning I yarim yilligida **suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq bo'yicha** tushumlar **425,6 mlrd so'mni** tashkil etdi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan **74,0 mlrd so'mga** yoki **21,1 foizga** oshdi.

2023-yilda amalda bo'lgan soliq stavkalari sanoat korxonalarini, elektr stansiyalari, kommunal xizmat ko'rsatish korxonalarini uchun sarflangan suv hajmi bo'yicha o'rtacha 12 foizga indeksatsiya qilinishi asosiy omil bo'ldi.

Shu bilan birga, qishloq xo'jaligi yerlarini sug'orish va baliq yetishtirish uchun foydalaniladigan suv hajmi bo'yicha suv o'lchagichlarisiz an'anaviy usulda sug'orishda soliq stavkasi 100 so'mga oshirildi va qishloq xo'jaligi korxonalarini tomonidan suv solig'i tushumlarining birinchi to'lovi joriy yilning 1-oktabri etib belgilangan.

Davlat budjetining boshqa daromadlari va soliqsiz tushumlari

Hisobot davrida boshqa daromadlar va soliq bo'lmagan to'lovlar bo'yicha tushumlar **23,5 trln so'mni** (2023-yil mos davriga nisbatan 5,5 trln so'm yoki 30,2 % ga ko'p) tashkil etdi. Tushumlarning asosiy qismi davlat ulushiga ega korxonalar tomonidan to'lanadigan dividendlar hisobiga to'g'ri keldi va **11,2 trln so'mni** tashkil etdi.

Qolgan daromadlar, quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- davlat aktivlarini xususiylashtirishdan mahalliy budjetlarga tushumlar – 205,2 mlrd so'm (2023-yilda 254,9 mlrd so'm);
- davlat boji – 1,4 trln so'm (1,3 trln so'm);
- jarimalar – 1,0 trln so'm (0,9 trln so'm);
- yig'imlar – 571,8 mlrd so'm (798,5 mlrd so'm).

Soliq imtiyozlari bo'yicha qisqacha sharh

Soliq qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, hisobot davrida soliq imtiyozlari summasi 39,0 trln so'mni, Soliq kodeksiga muvofiq **33,9 trln so'mni (87,0 %)** tashkil qildi.

2-jadval

2024-yil 6 oylik davr davomida soliq turlari kesimida foydalanilgan soliq imtiyozlari


mlrd so'm

T/r	Soliq turi	Soliq imtiyozlari foydalanilgan		Ulushi, %
		holatlar soni	summasi	
Jami		193 145	39 031,5	100%
1	Qo'shilgan qiymat solig'i	20 723	32 086,8	82.2%
2	Foyda solig'i	13 104	2 274,4	5.8%

T/r	Soliq turi	Soliq imtiyozlari foydalanilgan		Ulushi, %
		holatlar soni	summasi	
3	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i (soliq agentlari)	21 718	544,0	1,4%
4	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	291	19,9	0,1%
5	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	13 159	803,0	2,1%
6	Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'i	16 868	1 914,9	4,9%
7	Ijtimoiy soliq	73 098	1 303,2	3,3%
8	Aylanmadan olinadigan soliq	34 184	85,2	0,2%

22-rasm

2024-yil 6 oylik davr davomida foydalanilgan soliq imtiyozlarida soliq turlari ulushi



2024-yilning 6 oyida soliq imtiyozlari umumiy hajmining **32,1 trln so'm** yoki 82,2 foizi QQS hisobiga to'g'ri keldi (shundan 16,0 trln so'm QQSdan nol darajali stavka hisobiga to'g'ri keladi).

Foyda solig'i bo'yicha soliq imtiyozlari **2,3 trln so'mni** (5,8%) tashkil qildi.


Shu bilan birga, soliq imtiyozlari umumiy hajmida yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'i **1,9 trln so'm** (4,9%)ni tashkil qildi.

II. Davlat budjetining xarajatlari ijrosi

2024-yilning I yarim yillik yakunlari bilan **Davlat budjetining xarajatlari** (davlat maqsadli jamg'armalariga o'tkazilgan transfertlar bilan birga) **149 768,9 mlrd so'mni** tashkil etib, 2023-yilning mos davriga nisbatan **20,7 trln so'mga** yoki **16,0 foizga** o'sdi.

23-rasm


2022-2024-yillarning I yarim yilligida Davlat budjeti xarajatlarining ijrosi



2024-yilning I yarim yilligida Davlat budjetidan ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlar hamda yagona ijtimoiy to'lov xarajatlari uchun **77,5 trln so'm** mablag' ajratildi. Bunda, **64,6 trln so'm** ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlarga, **12,9 trln so'm** ish haqiga nisbatan ajratmalarga yo'naltirilgan.

So'ngi yillarda aholini sifatli ijtimoiy xizmatlar bilan ta'minlash borasida amalga oshirilayotgan tizimli islohotlar natijasida hisobot davrida **ijtimoiy soha xarajatlari** uchun Davlat budjetidan **74,1 trln so'm** (*umumiy xarajatlarning 49,5 foizi*) yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan **9,1 trln so'm** ko'p mablag' ajratildi.

Joriy yilning I yarim yilligida ta'lim sohasining barcha bosqichlarini zamonaviy talablar asosida tashkil etish borasida islohotlar davom ettirilishi natijasida ijtimoiy soha xarajatlarining asosiy qismini (*50,3 foizini*) tashkil etgan **ta'lim tizimi muassasalarini saqlash va ularni rivojlantirish xarajatlariga** Davlat budjetidan **37 224,6 mlrd so'm** yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan **7 133,2 mlrd so'm** ko'p mablag' ajratildi.

2023-2024-yillarning I yarim yilligida Davlat budjeti xarajatlarining sohalar kesimida ijrosi

Maktabgacha ta'lim sohasi bo'yicha: Maktabgacha ta'lim tizimini isloh qilish borasida amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida maktabgacha ta'lim tizimida davlat-xususiy sherikligini rivojlantirish faol qo'llab quvvatlanmoqda.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari soni 2022-yilda **29 257 tani** tashkil qilgan bo'lsa, olib borilgan islohotlar natijasida joriy yilning I yarim yilligiga kelib **8 247 taga** ortib **37 504 taga** yetdi, shundan, **6 823 tasi** Davlat maktabgacha ta'lim muassasalari **30 681 tasini** nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari tashkil qilmoqda.

Bunda, **6 823 ta** davlat maktabgacha ta'lim muassasasida va **37 504 ta** nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarida **2 291,0 ming nafar** maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar tarbiya olib kelmoqda.

Bu o'z navbatida, respublika bo'yicha maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning **74,1 foizini** maktabgacha ta'lim bilan qamrab olish imkonini berdi.

Hisobot davrida maktabgacha ta'lim tizimiga jami **6 449,4 mlrd so'm** yoki 2023-yilning mos davriga nisbatan **1 226,9 mlrd so'm** ko'p mablag' ajratildi. Shundan respublika budjetidan **3 312,1 mlrd so'm** hamda mahalliy budjetlar hisobidan **3 137,3 mlrd so'm** mablag' ajratilgan.

Bunda:



- ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlari uchun – **2 596,7 mlrd so'm**;

- yagona ijtimoiy to'lovlari uchun – **635,7 mlrd so'm**;


davlat-xususiy sheriklik asosida tashkil etilgan maktabgacha ta'lim muassasalariga budjet subsidiyalari uchun – **1 557,0 mlrd so'm**;

oziq-ovqat xarajatlari uchun – **1 049,8 mlrd so'm**;


boshqa xarajatlar uchun **610,2 mlrd so'm** yo'naltirilgan.



27-rasm
MTTLARGA AJRATILGAN MABLAG'LARNING YO'NALISHLARI KESIMIDA ULUSHI




2024-yilning I yarim yilligida Davlat-xususiy sherikchiligi asosida tashkil etilgan maktabgacha ta'lim muassasalariga subsidiyalar uchun **1 557,0 mlrd so'm** yoki 2023-yilning mos davriga nisbatan **390,6 mlrd so'm** ko'p mablag' yo'naltirildi.



So'nggi yillarda **maktab ta'limi** sifatini, ulardagi sharoitlarni yaxshilash, o'quvchi o'rnini ko'paytirish bo'yicha ko'plab ishlar amalga oshirildi.

O'z navbatida, **umumta'lim sohasiga** 2024-yilning I yarim yilligida **24,8 trln so'm** yoki 2023-yilning mos davriga nisbatan **3,9 trln so'm** ko'p mablag' ajratildi.




Bunda, ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlar uchun **17,9 trln so'm**, yagona ijtimoiy to'lov xarajatlariga **4,5 trln so'm** mablag'lar ajratildi.

O'z navbatida sohaga ajratilayotgan mablag'larning yildan yilga o'sib borishiga o'qituvchilarning mehnatiga haq to'lash miqdorlarining oshirib borilishi ham o'z ta'sirini ko'rsatgan.


Respublika bo'yicha umumta'lim maktablari soni 2022-yilda **10 104 tani** tashkil etgan bo'lsa, olib borilayotgan islohotlar natijasida bu ko'rsatkich **56 taga** oshib **10 160 tani** tashkil qilmoqda.

O'z navbatida, umumta'lim maktablari ta'lim olayotgan o'quvchilar soni ham 2022-yilga nisbatan **206 885 taga** oshib, hisobot davri yakuniga ko'ra **6 543,8 mingtaga** yetdi.



Shu bilan birga, 2022-yilda umumta'lim maktablarida pedagog xodimlari soni **496,1 mingtani** tashkil etgan bo'lib, joriy yilning I yarim yilligida esa pedagog xodimlar soni **546,8 mingtaga** yetgan.

2024-yilning I yarim yilligida ta'lim sohasida rivojlantirish dasturlari bo'yicha bajarilgan ishlar:



- Umumiy o'rta ta'lim tashkilotlari uchun nashr etilishi rejalashtirilgan darsliklar va o'quv-metodik majmualar (**55,9 mln. adad**) bilan bog'liq xarajatlar uchun **317,1 mlrd so'm** mablag'lar yo'naltirildi.

- 1-sinf va yakka tartibda uyda ta'lim olayotgan o'quvchilari uchun **18 163,5 ming dona** o'quv qurollari uchun **75,9 mlrd so'mlik** xarajatlar amalga oshirilgan.

- "Barkamol avlod" bolalar maktablarida to'garak jurnali uchun **400,0 mln so'mlik** xarajatlar to'liq amalga oshirilgan.

- Umumta'lim maktablari uchun birlamchi sport anjomlari (Futbol to'pi, voleybol to'pi, basketbol to'pi, gandbol to'pi va sekundomer) uchun **58,1 mlrd so'mlik** xarajatlar amalga oshirilgan. Respublikadagi umumta'lim maktablari uchun **101 600 donadan** futbol, voleybol, gandbol va basketbol to'plari, **20 320 dona** sekundomer anjomlari xarid qilindi.

- Ma'nan eskirgan kompyuter sinflari uchun zamonaviy kompyuter texnikasi uchun **108,7 mlrd so'mlik** xarajatlar hisobiga respublika bo'yicha **1 113 ta** kompyuter to'plamlari xarid qilingan.

- Xorazm viloyati Qo'shko'pir va Xonqa tumanidagi boshlang'ich sinf o'quvchilarini ta'lim planshetlari bilan ta'minlash uchun **9,1 mlrd so'm** xarajatlar hisobiga **27 199 dona** planshetlar boshlang'ich sinf o'quvchilariga taqdim etildi.

- Umumta'lim maktablari uchun musiqa anjomlari uchun **34,0 mlrd so'mlik** xarajatlar amalga oshirilgan hamda **51 665 dona** musiqa anjomlari (*Dutor, rubob, tanbur, do'mbira, doira, nay va gijjak*) xarid qilingan.

2024-yilning I yarim yilligida **Kadrlar tayyorlash** sohasiga jami **6,0 trln so'm** yoki 2023-yilning mos davri bilan taqqoslaganda **2,0 trln so'mga** ko'p mablag' yo'naltirildi.

Ushbu mablag'larning **3,0 trln so'mi** ish haqi va ish haqiga ajratmalar uchun sarflangan.

Kadrlar tayyorlash bo'yicha amalga oshirilgan xarajatlarning **26,2 foizi** yoki **1,6 trln so'm** qismi **o'rta maxsus va professional ta'lim** muassasalarini saqlash

hamda ushbu yo‘nalishlarda ta‘lim oluvchilarga qulay sharoitlar yaratilishini ta‘minlash uchun sarflandi.

3-jadval

2022–2024-yillarda o‘rta maxsus va professional ta‘lim muassasalariga ajratilgan mablag‘lar


Yo‘nalishlar	2022-yil I yarim yillik	2023-yil I yarim yillik	2024-yil I yarim yillik	2022-yilga nisbatan o‘shish (%)
Jami	953,7	1 219,5	1 575,3	165,2
Akademik litseylar	136,0	173,3	193,1	142,0
Kasb-hunar maktablari	524,9	673,5	855,9	163,1
Kollejlar	187,1	257,3	315,3	168,5
Texnikumlar	93,3	101,6	194,4	208,2
Qurilish markazlari	12,3	13,9	16,6	135,0

mlrd so‘m


2024-yil I yarim yillikda O‘rta maxsus va professional ta‘lim muassasalarining ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlari va ish haqiga ajratmalar uchun **1 272,8 mlrd so‘m** va boshqa xarajatlar (IV guruh xarajatlari) uchun **302,5 mlrd so‘m** mablag‘ ajratilgan.

32-rasm

O‘rta maxsus va professional ta‘lim muassasalari soni



Kadrlar tayyorlash sohasining yana bir qismi bo‘lgan **oliy ta‘lim muassasalarini saqlash** xarajatlari uchun hisobot davrida **2,3 trln so‘m** yoki o‘tgan yilning mos davriga nisbatan **16,6 foizga** ko‘p xarajatlar amalga oshirildi.




Oliy ta'lim bilan qamrovni kengaytirish, oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirish borasida tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, oliy ta'lim muassasalari soni 2021-2022-o'quv yilida 154 tani tashkil etgan bo'lsa, 2023-2024-o'quv yiliga kelib bu ko'rsatkich 65 taga ko'payib 219 tani tashkil etmoqda.

Natijada, oliy ta'lim muassasasida tahsil olayotgan talabalar soni 2021-2022-o'quv yilida 808,4 ming nafardan, 2023-2024-o'quv yiliga kelib 506,1 ming nafarga ortgan holda 1 314,5 ming nafarni tashkil etmoqda.

34-rasm

Oliy ta'lim muassasalari va unda tahsil olayotgan talabalar soni



Davlat oliy ta'lim muassasalari talabalarini turar joy bilan ta'minlash maqsadida tizimli ishlar yo'lga qo'yilgan va ushbu maqsadlar uchun tegishli tartibda Davlat budjeti hisobidan zarur mablag'lar ajratib kelinmoqda. Jumladan:

– 2024-yil I yarim yillikda yotoqxonaga bilan qamrab olinmagan va o'ziga, shu jumladan ota-onasi (qonuniy vakillari)ga tegishli bo'lmagan uyda ijara huquqi asosida yashaydigan davlat oliy ta'lim muassasalari talabalariga Davlat budjeti hisobidan **89,9 mlrd so'm** kompensatsiya mablag'lari to'lab berildi

– 2024-yil I yarim yillikda Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining talabnomalari asosida davlat-xususiy sheriklik shartlari **25 ta** talabalar turar joylarini barpo etish uchun **96,7 mlrd so'm** hamda DXSh asosida barpo etilgan talabalar turar joylariga yashagan talabalar uchun **5,6 mlrd so'm** miqdorida mablag'lar moliyalashtirilgan.

Ma'lumot uchun: Hisobot davrida davlat-xususiy sheriklik shartlari asosida 4 ta talabalar turar joylari foydalanishga topshirildi, ularda 3000 ta talabalar yashab kelmoqda

2022/2023-o'quv yilidan boshlab davlat oliy ta'lim muassasalari magistraturasida tahsil olayotgan xotin-qizlarning to'lov-kontrakt miqdori Davlat budjetidan qaytarish shartisiz qoplab berish tizimi joriy etilgan.

Natijada 2023-2024-o'quv yilida davlat oliy ta'lim muassasalari magistraturasida tahsil olayotgan **6 516 nafar** xotin-qizlarning **22,8 mlrd so'm** miqdorida ikkinchi yarim yillik to'lov-kontrakt miqdori to'lab berildi.

Bundan tashqari, 2024-yilning I yarim yilligida **Ta'lim kreditini moliyalashtirish jamg'armasiga** Davlat budjetidan **1,7 trln so'm** transferlar yo'naltirildi. Jamg'arma mablag'lari hisobidan jami **1,6 trln so'm** miqdorida (*shundan 328,4 mlrd so'm mablag' 40 569 ta talabaga ajratilgan kreditni hamda 1 274,5 mlrd so'm mablag' tijorat banklari oldida vujudga kelgan qarzdorlikni qoplash uchun*) mablag'lar moliyalashtirilib berildi. Xususan:

a) Mamlakatimizdagi yoshlarning ta'lim olishlari uchun keng imkoniyatlar yaratilgan bo'lib, 2021-2022-o'quv yilidan boshlab:

respublikadagi barcha oliy, o'rta maxsus va professional ta'lim tashkilotlari bakalavr hamda magistraturaning kunduzgi, sirtqi va kechki ta'lim shaklida to'lov-kontrakt asosida tahsil olish uchun imtiyozli ta'lim krediti ajratishning yangi tizimi yo'lga qo'yilgan.

Natijada 2024-yil I yarim yillikda Ta'lim kreditini moliyalashtirish jamg'armasi mablag'lari hisobidan **81,3 mlrd so'm** miqdorida qariyb **9 230 nafarga** yaqin talabalarga ajratilgan imtiyozli ta'lim kreditlari moliyalashtirildi.

b) Mamlakatdagi xotin-qizlarni ijtimoiy himoya qilishni yanada mustahkamlash maqsadida 2022-2023-o'quv yilidan boshlab:


respublikadagi barcha xususiy, xorijiy va davlat oliy, o'rta maxsus va professional ta'lim tashkilotlarida kunduzgi, sirtqi va kechki ta'lim shaklida xotin-qizlarning to'lov-kontrakt asosida tahsil olishi uchun imtiyozli shartlarda (foizsiz) ta'lim kreditlari ajratishning yangi tizimi joriy etilgan.

Natijada 2024-yil I yarim yillikda Ta'lim kreditini moliyalashtirish jamg'armasi mablag'lari hisobidan **247,1 mlrd so'm** miqdorida qariyb **31 339 nafarga** yaqin talaba xotin-qizlarga foizsiz ta'lim kreditlari moliyalashtirildi.

Shu o'rinda, jamg'arma hisobidan **267,8 mlrd so'm** miqdorida talaba xotin-qizlarga ajratilgan ta'lim kreditlari uchun hisoblangan foiz mablag'lari to'lab berildi.

Madaniyat va san'at sohasini rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan islohotlarning davlat tomonidan qo'llab quvvatlanishi natijasida 2024-yilning I yarim yilligida **madaniyat sohasiga 1 278,2 mlrd so'm** yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan **16,7 foizga** ko'p mablag'lar yo'naltirildi.

Bunda, ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlar uchun **570,3 mlrd so'm**, yagona ijtimoiy to'lov xarajatlari uchun **140,8 mlrd so'm** va boshqa xarajatlarga **567,1 mlrd so'm** mablag' ajratilgan.



4-jadval

2024-yilning I yarim yilligida madaniyat sohasiga yo'naltirilgan mablag'lar

Xarajatlar yo'nalishi	Kassa xarajati (mlrd so'm)	Ulushi foizda
JAMI	1 278,2	100,0
Axborot-kutubxona markazlari va kutubxonalarni saqlash xarajatlari	99,3	7,8
Muзейlar, ko'rgazmalar hamda ko'rgazma zallarini saqlash xarajatlari	59,1	4,6
Madaniyat saroylari va markazlarini saqlash xarajatlari	137,5	10,8
Teatrlar, musiqa jamoalari, konsert tomosha muassasalari xarajatlari	211,7	16,6
Televideniye, matbuot va radio xizmatlari xarajatlari	243,5	19,1
Kinematografiya agentligi, "Qoraqalpoqkino" agentligi, viloyatlar va Toshkent shahar hududiy bo'limlarini saqlash xarajatlari hamda davlat buyurtmasiga asosan milliy kino mahsulotlarini yaratish uchun xarajatlar	47,2	3,7
Madaniy meros obyektlarida restavratsiya, tiklash ishlarini amalga oshirish xarajatlari	52,7	4,1
Boshqa madaniy chora-tadbirlar va muassasalar xarajatlari	427,2	33,4

I. Kinematografiya agentligiga davlat buyurtmasiga asosan milliy kino mahsulotlarini ishlab chiqarish xarajatlari uchun 2024-yil I yarim yillikda respublika budjetidan **37,6 mlrd so'm miqdoridagi mablag'lar ajratildi.**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Milliy kinematografiyani yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2017-yil 7-avgustdagi PQ-3176-sonli qarorida Kinematografiya agentligi uchun davlat buyurtmasiga asosan milliy kino mahsulotlarini yaratish yillik ishlab chiqarish hajmlari belgilangan.

2024-yil I yarim yillikda **jami 48 ta** kinomahsulot ishlab chiqarildi. Jumladan, **“Bahodir Yalangto‘sh”**, **“Ulug‘ Amir va donna Mariya”** nomli tarixiy mavzudagi, **“Alisher Navoiy”** nomli badiiy-publisistik filmlari, ijtimoiy-zamonaviy mavzuda **“Pandemiya. Kovid-19”**, **“Xaus”**, **“Uch qahramon”**, **“Uyga qaytish”**,



“Qariqiz”, **“Ofitser 55”** kabi badiiy filmlarni suratga olish ishlari yakunlandi. **“Vatan timsollari”** turkumidagi **9 ta** hujjatli film, **“O‘zbekiston san‘ati darg‘alari”** turkumidagi **5 ta** hujjatli film, **“O‘zbekiston kino san‘ati ustalari”** turkumi ostida **9 ta** hujjatli filmlar tayyor bo‘ldi.

O‘zbekiston davlat san‘at va madaniyat institutining bitiruvchi talabalari ishtirokida **14 ta** qisqa metrajli filmlar suratga olindi.

Turkiyaning TRT Avaz telekanali bilan hamkorlikda yurtimizdagi ziyorat turizmiga bag‘ishlangan **“Ziyorat. Oltin yo‘l”** 5 qismli hujjatli filmi, **“Siz kimsiz, janob Vamberi?”** hujjatli filmlari suratga olindi.

Milliy seriallarni qo‘llab-quvvatlash maqsadida reytingi baland telekanallar o‘rtasida tanlov o‘tkazilib, tanlov g‘olibi bo‘lgan **jami 6 ta** milliy teleseriallarga subsidiyalar ajratildi.

Tarixiy mavzudagi **“Yulduzlar shu‘lasi. Jomiy va Navoiy”**, **“Xiva langari”**, **“Ajiniyoz”**, **“Kazbek. Osiyo arsloni”** nomli filmlar, shuningdek, turli soha vakillari, jumladan, o‘qituvchilar to‘g‘risida **“Bahorni quvib”**, sportchilar to‘g‘risida **“Yengilmas. Tokioga yo‘l”**, mahalla hayoti haqida **“Mening mahallam”**, **“Mahalladoshlar”**, mahalla inspektorlari to‘g‘risida **“Hudud”** kabi filmlarni suratga olish ishlari davom ettirilmoqda.



“Quyosh ta‘mi”, **“Parining sovg‘asi”** badiiy filmlari Rossiya va Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi mamlakatlari telekanallari orqali keng namoyish qilinmoqda.

Shuningdek, joriy yil boshida Agentlik tomonidan **“Yangi O‘zbekistonda duv-duv gap”** nomli ssenariylar tanlovi o‘tkazildi. Tanlovda **jami 25 ta** loyiha tanlov komissiyasiga taqdim etildi. Bundan tashqari, joriy yilning 25-yanvaridan 25-fevraligacha qadar **“Har bir serial bir missiya”** nomli serial loyihalari, S.Gerasimov nomidagi BDKI Toshkent filiali talabalari o‘rtasida **“Yangi O‘zbekiston yoshlari”** nomli qisqa metrajli filmlar loyihalari, Kamoliddin Behzod nomidagi milliy rassomlik va dizayn instituti talabalari o‘rtasida **“Yangi O‘zbekistonning milliy animatsiya qahramoni”** nomli animasion filmlar

loyihalari, O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti talabalari o‘rtasida “**Yangi O‘zbekiston yoshlari**” nomli qisqa metrajli filmlar loyihalari tanlovlari e’lon qilindi.

“**Sevdo**”, “**Ninachi qanotlari uchun kuy**”, “**Matonat**”, “**Paxta**”, “**Hayot formulasi**”, “**Bir kuni Samarqandda**” (Qirg‘iziston bilan hamkorlikda), “**Cho‘liq**”, “**Maxtumquli**”, (Turkmaniston) nomli badiiy hamda “**Baxtiyor Sayfullayev. So‘nggi nafasgacha**” nomli hujjatli filmlar ishlab chiqarishga tushirildi.



Respublikamizda jami **54 ta** kinotadbirlar va kinonamoyishlar o‘tkazilib, **785 316 nafar** aholi qamrab olindi. Jumladan, **4 ta** badiiy, filmlar premyera qilinib, **10 dan** ortiq filmlar “Kinokarvon” aksiyasi va “Kinooylik”lar doirasida, turli bayramlar, ijodiy uchrashuvlar va boshqa tadbirlarda namoyish etildi. **50 dan** ortiq kinoijodkorlar ishtirok etgan “Kinokarvon” aksiyalarida **260 ming** nafar aholi qamrab olindi.

Bundan tashqari, bir qator xalqaro kinofestivallarda, jumladan, Kann xalqaro kinofestivalida, Xitoy, Hindiston, Qirg‘iziston, Belarus va Rossiyada o‘tkazilgan kinofestivallarda ishtirok etildi.

II. Madaniy meros agentligi va uning hududiy boshqarmalarini saqlash xarajatlari hamda madaniy meros obyektlarida restavratsiya, tiklash ishlarini amalga oshirish xarajatlari uchun 2024-yil I yarim yillikda jami 52,6 mlrd so‘m mablag‘ ajratilgan. Shundan,

- Madaniy meros obyektlarini restavratsiya qilish, ta’irlash-tiklash arxeologik ishlar xarajatlari uchun **44,5 mlrd so‘m.**

- Davlat muzeylarini rivojlantirish va ta’irlash-tiklash xarajatlari uchun **1,9 mlrd so‘m.**

Yusuf Hamadoniy majmuasi



Joriy yilda **71 ta** madaniy meros obyektlarida ilmiy texnik tadqiqot ishlari o'tkazish, loyiha smeta hujjatlarini ishlab chiqish hamda restavratsiya, tiklash ishlarini amalga oshirish belgilangan bo'lib, 2024-yil I yarim yillik davomida **17 ta** madaniy meros obyektlarining loyiha hujjatlari ilmiy-ekspert kengashi tomonidan ko'rib chiqishga taqdim etilgan hamda ekspertlar kengashining ijobiy xulosasiga asosan loyiha smeta hujjatlari ishlab chiqilgan. O'z navbatida, Xorazm viloyatida "Olloqullixon karvonsaroyi" majmuasi va "Yusuf Hamadoniy" majmuasi 1-bosqich madaniy meros obyekti, Buxoro shahrida joylashgan "Tosh Saroy" madrasasi, "Ark" qo'rg'oni, "Chor Bakr" madaniy meros obyekti, "Bahouddin Naqshband" me'moriy majmuasi, Samarqand viloyatida "Registon" majmuasi shu kabi boshqa madaniy meros obyektlarida restavratsiya-tiklash ishlari amalga oshirilmoqda.

"Ark" qo'rg'oni



III. Joriy yil I yarim yilligida O'zbekiston milliy teleradiokompaniyasi hamda uning hududiy teleradiokanallarini saqlash xarajatlari uchun **243,5 mlrd** so'm mablag' ajratilgan bo'lib, shundan:

1 va 2-guruh (ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlar) xarajatlariga **124,4 mlrd so'm** mablag' ajratilgan bo'lib, ajratilgan mablag'larga nisbatan **99,6 foizga** o'zlashtirilgan;

4-guruh xarajatlariga **119,1 mlrd so'm** mablag' ajratilgan bo'lib, ajratilgan mablag'larga nisbatan **98,6 foizga** o'zlashtirilgan.

Shunga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining joylardagi tashriflari va turli rasmiy hujjatlar sharhlari tayyorlash bilan bir qatorda turli soha vakillari, jumladan, tibbiyot xodimlari to'g'risida "**Sog' bo'ling**", "**Oydin hayot**", "**Salomatlik formulasi**", "**TV shifokor**", yo'l patrul xizmati xodimlari to'g'risida "**Poytaxt yo'llarida +**", ichki ishlar xodimlari to'g'risida "**Reyd vaqti**", sportchilar to'g'risida "**Sportchilar oilasi**", "**Murabbiy**", "**Qahramonlar**", "**Badan tarbiya**", mahalla xodimlari to'g'risida "**Mahalla yangiliklari**" va shu boshqa turdagi teleko'rsatuvlar, radioeshittirishlar, shuningdek, ichki ishlar xodimlari to'g'risida "**Tuzoq**", chegara qo'shinlari to'g'risida "**Chegaradagi qishloq**",

“Jinoyat jazosiz qolmaydi”, tibbiyot xodimlari to‘g‘risida “Tez yordam” kabi teleseriallar suratga olinib efirga uzatilmoqda.


Sport sohasiga Davlat budgetidan yo‘naltirilgan mablag‘lar miqdori **1 490,4 mlrd so‘mni** (2023-yilga nisbatan **125,8 foiz**) tashkil etdi. Shundan respublika budgetidan **453,5 mlrd so‘m** hamda mahalliy budgetlar hisobidan **1 036,9 mlrd so‘m** mablag‘ ajratilgan.

Bunda:

ish haqi va ijtimoiy soliq to‘lovlari – **917,5 mlrd so‘m**;

boshqa xarajatlar – **572,9 mlrd so‘m**, shundan rivojlantirish dasturlari xarajatlari – **376,8 mlrd so‘m**;

36-rasm



37-rasm

Sport sohasidagi muassasalar soni



Sport sohasiga ajratilgan mablag‘larni sohalar kesimida

Xarajatlar yo‘nalishi	Summa (mlrd so‘m)	Ulushi (foizda, %)
Jami	1 490,4	100,0
Sport maktablarini saqlash xarajatlari	691,5	46,4
Ixtisoslashtirilgan sport maktablarini saqlash xarajatlari	218,9	14,7
Oliy sport mahorat maktablarining saqlash xarajatlari	68,3	4,6
Futbol akademiyalarini saqlash xarajatlari	48,6	3,3
Chavandozlar maktablarini saqlash xarajatlari	17,4	1,2
Sport va ommaviy jismoniy tarbiya tadbirlarining hududiy kalendar rejasi	32,1	2,2
O‘zbekiston “Yoshlik” jismoniy tarbiya va sport jamiyati saqlash xarajatlari	6,0	0,4
Federatsiya va assosiatsiyalarni qo‘llab-quvvatlash va boshqa xarajatlar	30,8	2,1
Rivojlantirish dasturlari	376,8	25,3

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va Hukumat qarorlariga asosan tasdiqlangan sport sohasiga doir rivojlantirish dasturlariga **2024-yil I yarim yillikda jami 376,8 mlrd so‘m** mablag‘ moliyalashtirilgan. Jumladan:

1. Sport va ommaviy jismoniy tarbiya tadbirlarining **respublika kalendar rejasi** uchun **105,6 mlrd so‘m** mablag‘ moliyalashtirildi. Shundan:

sport tadbirlari uchun **70,8 mlrd so‘m**;

O‘zbekiston futbol assosiatsiyasini qo‘llab-quvvatlash xarajatlari uchun **12,5 mlrd so‘m**;

Sport maktablarni sport jihozlari va sport kiyimlari bilan ta‘minlash xarajatlari uchun **9,7 mlrd so‘m**;

Jismoniy imkoniyati cheklangan va nogironligi bo‘lgan shaxslarni jismoniy tarbiya va sport bilan shug‘ullanishga jalb qilish xarajatlari uchun **6,8 mlrd so‘m**;

O‘zbekiston kurash federatsiyasini qo‘llab-quvvatlash xarajatlari uchun **5,0 mlrd so‘m**;

Olimpiya va Paralimpiya o‘yinlari g‘olibi bo‘lgan sportchilarga umrbod oylik to‘lovi xarajatlari uchun **0,8 mlrd so‘m**.

2. Olimpiya va Paralimpiya o‘yinlariga tayyorgarlik ko‘rish xarajatlari uchun **179,0 mlrd so‘m** mablag‘ moliyalashtirildi. Jumladan:

- sport tadbirlarini tashkil etish xarajatlariga – **105,5 mlrd so‘m**;

- O‘zbekiston Milliy Olimpiya va paralimpiya qo‘mitalari va federatsiyalar (uyushmalar)ning ma‘muriy ustav xarajatlariga (ish haqi va saqlash xarajatlari) – **13,4 mlrd so‘m**;

- sportchilar va trenerlarga to‘lanadigan stipendiya xarajatlariga – **38,1 mlrd so‘m**;

- Xorijiy mutaxassislarning ish haqi va boshqa xarajatlari – **10,3 mlrd so‘m**;

- Sport inventarlari va anjomlarini xarid qilish xarajatlari – **4,4 mlrd so‘m**;

- Terma jamoa sportchilarini tibbiy ko‘rikdan o‘tkazish va farmakologiya xarajatlari – **7,3 mlrd so‘m**.

Ma‘lumot uchun: Oxirgi yillarda amalga oshirilgan ishlar natijasida sportchilarimizning xalqaro musobaqalardagi natijalari yanada yaxshilandi.



E‘tiborlisi, O‘zbekiston tarixida ilk bor jamoaviy sport turlaridan - futbol bo‘yicha milliy terma jamoa sportchilari, kamondan otish 2 nafar va ayollar kurashi, suvga sakrash bo‘yicha 1 nafardan sportchilar olimpiada yo‘llanmalariga ega chiqishdi.

Shuningdek, Parijda o‘tkaziladigan Paralimpiya o‘yinlarida ishtirok etish huquqini beruvchi yo‘llanmalar ham qo‘lga kiritildi. Hozirda O‘zbekiston Milliy paralimpiya qo‘mitasi sportchilari hisobida 8 ta sport turidan jami 49 ta litsenziya mavjud, jumladan: 4 ta para o‘q otish, 19 ta para yengil atletika, 2 ta para suzish, 5 ta para taekvondo, 8 ta para kano, 1 ta para akademik eshkak eshish, 2 ta para velosport, 8 ta para pauerlifting.

3. Yurish, yugurish, mini-futbol, velosport, badminton, stritbol va «Workout» sport turlarini ommaviylashtirish va rivojlantirish dasturlarini amalga oshirish xarajatlari uchun **42,0 milliard so‘m** budjet mablag‘lari sarflangan.

Mazkur ajratilgan mablag‘lar hisobiga 2024-yilda Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida jami **400 ta** universal sport maydonchasi qurilishi rejalashtirilgan bo‘lib, joriy yilning 6 oyligida **23 tasi** qurib foydalanishga topshirilgan.

4. Sport maktablari tibbiyot xonalarini zamonaviy asbob-uskunalar, dori-darmon va tiklanish vositalari bilan jihozlash, zamonaviy o‘quv adabiyotlarini chop etish va xarid qilish, sport maktablari shug‘ullanuvchilarini (terma jamoalarini) maxsus sport kiyimlari (ekipirovkalar) bilan ta‘minlash xarajatlari uchun **2,6 milliard so‘m**;



5. «Besh tashabbus olimpiadasi» doirasidagi sport musobaqalarini tizimli tashkil etish va o‘tkazish xarajatlari uchun **23,0 milliard so‘m**;

6. «Xalqaro Kurash assotsiatsiyasi» faoliyatini qo‘llab-quvvatlash xarajatlari uchun **9,6 milliard so‘m** budjet mablag‘lari sarflangan.

Mamlakatimizda sog‘liqni saqlash sohasini takomillashtirish, tibbiy xizmat ko‘rsatish sifati va samaradorligini oshirish, sohaga yangi boshqaruv usullarini joriy etish, jamiyatda sog‘lom turmush tarzini shakllantirish borasida keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda.

Ushbu islohotlarni qo‘llab-quvvatlash maqsadida **sog‘liqni saqlash sohasiga** 2024-yilning I yarim yilligida Davlat budjetidan **16 529,6 mlrd so‘m** yoki 2023-yilning mos davriga nisbatan **996,3 mlrd so‘mga** ko‘p mablag‘lar ajratilgan.

38-rasm

Ushbu ajratilgan mablag‘lar hisobidan sog‘liqni saqlash sohasidagi **3 839 ta** muassasalar faoliyati ko‘rsatishi ta‘minlab kelinmoqda.

Hisobot davrida sog‘liqni saqlash tizimidagi muassasa va tashkilotlarda mehnat qilayotgan xodimlarning ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlariga **9 283,6 mlrd so‘m** hamda ish haqiga ajratmalar uchun **2 317,2 mlrd so‘m** mablag‘lar yo‘naltirildi.



Shuningdek, boshqa xarajatlar (IV guruh) xarajatlariga jami **4 928,9 mlrd so‘m** mablag‘ ajratildi. Jumladan:

- oziq-ovqat xarajatlari uchun – **374,7 mlrd so‘m**;
- dori-darmon va zararsizlantiruvchi vositalar uchun – **956,5 mlrd so‘m**;

39-rasm

- tibbiy asbob-uskunalar va boshqa texnika vositalari uchun – **156,5 mlrd so‘m**.

Tibbiyot muassasalarining moddiy rag‘batlantirish va rivojlantirish jamg‘armasi xarajatlari uchun **731,5 mlrd so‘m** ajratilgan.



Sog‘liqni saqlash sohasidagi muassasalar soni



O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va Hukumat qarorlariga asosan tasdiqlangan sog‘liqni saqlash sohasiga doir Davlat dasturlari va markazlashgan tadbirlarga 2024-yilning I yarim yilligida **336,0 mlrd so‘mga** ijrosi ta‘minlangan. Jumladan, yirik dasturlardan:

Bolalarni vaksinatsiya qilish bilan bog‘liq xarajatlariga **214,4 mlrd so‘m** mablag‘lar o‘zlashtirildi.

Bunda, Immunizatsiya milliy dasturiga asosan vakcina bilan emlanadigan bolalar soni 2024-yilning 6 oyida 9 million nafardan ortiq bolalar emlangan.



Onkologiya yordamini takomillashtirish va onkologiya xizmatini yanada rivojlantirish uchun xarajatlarga joriy yilning



6 oyi davomida **12,5 mlrd so‘m** budjet mablag‘lari yo‘naltirilgan. Shuningdek, Tibbiyotni rivojlantirish jamg‘armasi orqali onkologik davolash qiyin bo‘lgan kasalliklar xarajatlariga **55,8 mlrd so‘m** yo‘naltirilgan.

Bunda; davolash xarajatlari tarkibida Respublikadagi davolash muassasalarida 25 mingdan ortiq 0-18 yoshli bolalarga poliklinika xizmatida konsultativ hamda diagnostik xizmatlari ko‘rsatilgan, 2,5 ming nafarga yaqin bolalarda onkologik davolash ishlari olib borilgan.

“**Spinal mushak artrofiyasi**” tashxisi qo‘yilgan bemor bolalarga tibbiy-ijtimoiy yordam ko‘rsatish va dori vositalarini bepul yetkazib berish dasturi uchun **151,2 mlrd so‘m** (mazkur dastur uchun yil boshida 130 mlrd so‘m rejalashtirilgan bo‘lib, kiritilgan o‘zgarishlar bilan qo‘shimcha 21,2 mlrd so‘m ajratilgan yillik rejaga nisbatan 116 foiz) budjet mablag‘lari sarflangan.



Bunda, joriy yilning 6 oyi davomida bemor bolalarning 172 nafari bepul dori vositalar bilan ta'minlangan.

Neyrosensor karlik yoki zaif eshitadigan bolalarda koxlear implantatlardan foydalangan holda operatsiyalar o'tkazish xarajatlarini moliyalashtirish uchun 2024-yil I yarim yilligida **34,4 mlrd so'm** mablag'lar ajratilgan.



Dastur doirasida joriy yilning 6 oyi davomida 280 dona koxlear implant vositasi olib kelingan va koxlear implantlarini o'rnatish bo'yicha jarrohlik amaliyoti uchun qo'llanilgan, shuningdek, 2000 ta eshitish moslamalari xarid qilingan.

Otorinolaringologiya xizmatini rivojlantirish uchun xarajatlarni moliyalashtirish uchun 2024-yil I yarim yilligida **4,1 mlrd so'm** ajratilgan.



Audioskrininglar natijasi asosida aniqlangan zaif eshitadigan bolalarni koxlear implantatsiya amaliyotiga tayyorgarlik davrida yiliga qo'shimcha kamida 2 000 ta raqamli eshitish moslamalari bilan ta'minlanadi.

Qon komponentlari zaxirasini yaratish maqsadida qon bilan ishlash xizmati muassasalarini zarur miqdordagi gemokonteynerlar bilan ta'minlash xarajatlariga **14,9 mlrd so'm** yo'naltirildi.



Bunda, Donorlar soni 250 ming va Donatsiyalar, qon (plazma, trombositlar) topshirishlar soni 290 ming tani rejalashtirilgan.

Joriy yilning 6 oyi davomida qon bilan ishlash xizmati muassasalari 165 ming dona gemokonteynerlar bilan ta'minlangan.



Shu bilan birga, 2024-yil 11-martda sog'liqni saqlash sohasida 2024-yilda amalga oshiriladigan islohotlarining reja-jadvaliga asosan Sog'liqni saqlash vazirligining markazlashtirilgan xarajatlar smetasiga joriy yilda qo'shimcha ravishda **50 mlrd so'm** ajratildi.

Bunda, Toshkent shahri hamda respublika darajasidagi tibbiyot muassasalari uchun zarur bo'lgan IT-infratuzilma va IT-uskunalarini, shu jumladan kompyuter texnikasini xatlovdan o'tkazish, sotib olish va o'rnatish, shuningdek, axborot tizimlarini ishlab chiqish ishlari amalga oshiriladi.

Shu bilan birga, nefrologiya va gemodializ yordamni ko'rsatish uchun xarajatlariga **9,3 mlrd so'm**;

gematologiya va transfuziologiya xizmatlarini rivojlantirish hamda onkogematologik va davolanishi qiyin bo'lgan kasalliklarga chalingan shaxslarni yanada qo'llab-quvvatlash uchun xarajatlariga **4,1 mlrd so'm**;

Onalar va bolalar salomatligini muhofaza qilish, aholining reproduktiv salomatligini mustahkamlash dasturi uchun xarajatlariga **2,9 mlrd so'm**;


Bolalarni hamda tug'ish yoshidagi ayollarni, homilador ayollarni va bola emizuvchi onalarni profilaktik maxsus preparatlar bilan bepul ta'minlash dasturi uchun **8,2 mlrd so'm** yo'naltirilgan.

Kam ta'minlangan oilalarga bolalar nafaqasi, moddiy yordam va kompensatsiya to'lovlari uchun 2024-yilning I yarim yilligida Davlat budjetidan **7 984,6 mlrd so'm** mablag' ajratildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 21-dekabrda 209-son farmoniga asosan "Mahalla yettiligi" hamda Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 10-noyabrda 596-son qaroriga asosan oilalarning har oylik daromadini elektron tekshirish tizimi tashkil qilindi.

Shunga ko'ra 2024-yilning 6 oyi davomida nafaqa tayinlangan oilalarning moddiy ahvoli joyiga chiqib o'rganilganda **280,2 ming oilaning** iqtisodiy ahvoli "o'ziga to'q"ligi hamda daromadlari elektron bazalar orqali o'rganilganda **533 ming oilaning** "sharoiti yaxshilangan"ligi aniqlanib, ularning nafaqa to'lovlari to'xtatildi.

41-rasm



2024-yilning yanvar-iyun oylarida ijtimoiy nafaqa oluvchi oilalar o‘rtacha soni **1 495,0 mingta**, shundan **1 448,3 mingta bolalar nafaqasi va 49,7 mingta moddiy yordam** tashkil etdi hamda nafaqa to‘lovlari uchun **4 289,6 mlrd so‘m** mablag‘, shundan **4 175,4 mlrd so‘m** kam ta‘minlangan oilalarga bolalar nafaqasi va **114,2 mlrd so‘m** kam ta‘minlangan oilalarga moddiy yordam to‘lovlari uchun ajratildi. Ijtimoiy nafaqa oluvchi oilalar soni jami oilalarga nisbatan **15,4 %** ni tashkil etdi.


O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 20-sentabrdagi 515-son qarori bilan tasdiqlangan Nizomga muvofiq **2024-yilning yanvar-iyun oylarida** xo‘jalik yurituvchi subyektlarda ishlovchi **7 438 nafar** ayollarga Davlat ijtimoiy sug‘urtasi bo‘yicha homiladorlik va tug‘ish nafaqasi to‘lab berilib, korxonalarining **18,1 mlrd so‘m**lik mablag‘lari o‘z ixtiyorida qoldirildi.

2024-yilning 6 oyida 29,6 mlrd so‘m mablag‘lar hisobidan ijtimoiy himoyaga muhtoj shaxslarni qo‘llab-quvvatlash maqsadida nogironligi bo‘lgan muhtoj shaxslar **33 250 dona** reabilitatsiya qilishning texnik vositalari bilan ta‘minlandi.

Xususan, **2 750 dona**, shundan, **1 377 dona** murakkab ortoped poyabzal va protezga poyabzal, **484 dona** ko‘krak bezi ekzoprotezi, **649 dona** boldir protezi va shu kabi protez – ortopediya moslamalari bilan hamda **2 412 dona** eshitish moslamalari, **4 859 dona** xonaga va sayr qilishga mo‘ljallangan o‘rindiqli aravachalar, **815 dona** ko‘zi ojizlar uchun hassa va shu kabi reabilitatsiya qilish texnik vositalari bilan ta‘minlandi. 42-rasm

Hududlar kesimida Respublika budjetidan yo‘naltirilgan mablag‘ va sotib olingan uy-joylar

2024-yilning I yarim yilligida 108,8 mlrd so‘m mablag‘lar hisobidan **558 nafar** uy-joyga muhtoj deb topilgan yetim bolalar va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalar uy-joylar bilan ta‘minlandi.



Ipoteka kreditlari bo'yicha subsidiya

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 30-apreldagi "2024-yilda ipoteka kreditlarini ajratish mexanizmlarini takomillashtirish va aholining uy-joy sharoitlarini yaxshilashga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-70-son Farmoni bilan belgilangan aholini uy-joy bilan ta'minlash dasturi doirasida



2024-yil I yarim yillikda respublika budjetidan ipoteka kreditlari bo'yicha **542,8 mlrd so'm** subsidiya to'lovlari moliyalashtirilib berildi.

Shundan, boshlang'ich badal to'lovlari uchun – **3 970 nafar** fuqarolarga **124,1 mlrd so'm**;

2020–2023-yillardan o'tib kelayotgan foiz to'lovlarini bir qismini qoplash uchun **55 mingdan** ziyod fuqarolarga **418,7 mlrd so'm** subsidiya mablag'lari to'lab berilgan.

Dasturda ishtirok etuvchi tijorat banklari tomonidan 2024-yil I yarim yillikda ajratilgan ipoteka kreditlarini qayta moliyalashtirish uchun davlat budjeti mablag'lari hisobidan jami **5 302,3 mlrd so'm** resurs banklarga joylashtirildi.

Joriy yilning 1 iyul holatiga "Yangi O'zbekiston" massivlarida ko'p qavatli uy-joylar qurilishida ishtirok etadigan qurilish tashkilotlarining aylanma mablag'larini to'ldirish bo'yicha tijorat banklari tomonidan ajratiladigan kreditlar uchun bank talabi asosida **124,4 mlrd so'm** joylashtirildi.

2024-yil I yarim yillikda ishtirok etuvchi tijorat banklari tomonidan 2024-yil dasturi doirasida respublika budjeti mablag'lari hisobidan joylashtirilgan resurs hisobiga **16 366 nafar** fuqarolarga **3 671,1 mlrd so'm**lik ipoteka kreditlari ajratilgan.

Bunda, respublika miqyosida eng ko'p ajratilgan ipoteka kreditlari Xalq banki – 1 418,3 mlrd so'm, Ipotekabank – 845,1 mlrd so'm, O'zmilliybank – 625,3 mlrd so'm (jamiga nisbatan 80 foiz) hamda eng kam ajratilgan kreditlar Hamkor bank – 1,5 mlrd so'm, Asaka bank – 12,7 mlrd so'm, Agro bank – 38,6 mlrd so'm va Mikrokredit bank – 33,7 mlrd so'm (jamiga nisbatan 2 foiz) hissasiga to'g'ri keladi.

Hisobot davrida **iqtisodiyot sohasiga** amalga oshirilgan xarajatlar **21 560,9 mlrd so'mni** yoki jami Davlat budjeti xarajatlarining **14,4 foizini** tashkil etdi. Jumladan:

- suv xo'jaligi ekspluatatsiyasi xarajatlari – **4 715,2 mlrd so'm**;
- sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash – **74,0 mlrd so'm**;
- aholi punktlarini obodonlashtirish ishlarini amalga oshirish xarajatlari – **2 638,7 mlrd so'm**;
- tabiatni muhofaza qilish ishlariga – **99,0 mlrd so'm**;

– uy-joy kommunal ishlariga – **1 622,9 mlrd so‘m.**

– ichki bozorda tabiiy gazni ulgurji sotib olish va sotish bo‘yicha ixtisoslashtirilgan kompaniya zararlarini qoplash va joriy faoliyatini moliyalashtirishga – **9 300,0 mlrd so‘m.**

2024-yil I yarim yilligida **ekologiya va atrof-muhit muhofazasi tadbirlari uchun jami 2,4 trln so‘m** yo‘naltirildi. Shundan,

- atmosfera havosi muhofazasi bo‘yicha tadbirlarga **37,8 mlrd so‘m;**

- Suv tejoychi texnologiyalarni joriy qilish bilan bog‘liq xarajatlar **25,5 mlrd so‘m;**

- o‘simlik va hayvonot dunyosi muhofazasiga (jumladan qo‘riqxonalar, tabiiy va milliy bog‘lar, o‘rmonlarni saqlashga) **257,5 mlrd so‘m;**

- “Yashil makon” umummilliy loyihasi tadbirlarga **17,1 mlrd so‘m;**

- yerlarni suv va shamol eroziyasidan saqlashga va yerlar rekultivatsiyasiga **563,0 mln so‘m** moliyalashtirib berildi.



6-jadval

Atrof-muhitni muhofaza qilish uchun 2024-yil I yarim yilligida amalga oshirilgan xarajatlar

T/r	Tadbir nomi	2024-yil I yarim yillik ijrosi	Ulushi foizda
	Atrof muhitni muhofaza qilish uchun xarajatlar	2 405,4	100
1	Atmosfera havosi muhofazasi (sanitariya muhofaza zonalarini yaratish va boshqalar)	37,8	1,6
2	Suv tejoychi texnologiyalarni joriy qilish bilan bog‘liq xarajatlar	25,5	1,1
3	Ichimlik va oqova suv tozalash inshootlarini qurish va qayta ta‘mirlash	1 780,4	74,0
4	O‘simlik va hayvonot dunyosi muhofazasi (qo‘riqxonalar, tabiiy va milliy bog‘lar, o‘rmonlar)	257,5	10,7
5	Hayvonot va o‘simlik dunyosi, muhofaza etiladigan tabiiy hududlar va chiqindilarni utilizatsiya qilish joylarining davlat kadastrlarini yuritish uchun xarajatlar	1,3	0,1
6	«Yashil makon» umummilliy loyihasi doirasidagi xarajatlar	17,1	0,7
7	Yerlarni meliorativ holatini yaxshilash ishlari	198,8	8,3
8	Yerlarni suv va shamol eroziyasidan saqlash	0,6	0,0

T/r	Tadbir nomi	2024-yil I yarim yillik ijrosi	Ulushi foizda
9	Yerlar rekultivatsiyasi	32,8	1,4
10	Mening bog‘im loyihasi uchun xarajatlar	52,0	2,2
11	Boshqa atrof-muhitni muhofaza qilishga doir tadbirlar	1,6	0,1

Ekologiya vazirligi

Joriy yilning I yarmida **Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi va uning tizim tashkilotlarining joriy xarajatlariga davlat budjetidan 372,5 mlrd so‘m mablag‘ ajratilgan bo‘lib, shundan 207,6 mlrd so‘m ish haqi xarajatlariga, 51,1 mlrd so‘m ijtimoiy soliq to‘lovlariga va 113,8 mlrd so‘m boshqa xarajatlarga yo‘naltirilgan.**

Ta‘kidlash joizki, Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi sohasidagi rivojlantirish dasturlarini moliyalashtirish uchun hisobot davrida respublika budjetidan 18,9 mlrd so‘m ajratilgan.



Jumladan, “Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasidagi xarajatlar uchun joriy yil I yarim yilligida **17,1 mlrd so‘m** rejalashtirilgan bo‘lib, ushbu mablag‘lar **to‘liq o‘zlashtirildi.**

Respublikada ekologik vaziyatni barqarorlashtirish maqsadida **220 ming gektar** maydonda o‘rmon barpo qilish va qayta tiklash tadbirlari amalga oshirildi va ushbu o‘rmon ekish ishlarining asosiy qismi cho‘l hududlarga to‘g‘ri keladi.

*Jumladan, Orol dengizining qurigan tubi va Orolbo‘yi hududlarida qum ko‘chishi hamda atmosfera havosiga tuz-chang ko‘tarilishini bartaraf etish maqsadida jami **215,0 ming gektar** shundan, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Mo‘ynoq tumanida **112,5 ming gektar**, Buxoro viloyati Olot tumanida **41 ming gektar**, Navoiy viloyati Tomdi va Uchquduq tumanlarida **51,3 ming gektar** hamda Xorazm viloyati Tuproqqala tumanida **10 ming gektar** maydonlarda “yashil qoplamalar” barpo etildi.*

O‘rmonchilik hamda ko‘kalamzorlashtirish tadbirlari uchun daraxt va butalarning **771 tonna** urug‘lari jamg‘arilib, **318 gektar** niholxonalar va **350 gektar** ko‘chatxonalar tashkil etildi.

2 820 gektarda (102 foiz) dorivor va ozuqabop o‘simliklar plantatsiyasi barpo etilib, **663 tonna** (110 foiz) dorivor va ozuqabop o‘simliklar xom-ashyosi tayyorlandi.

Dorivor o‘simlik mahsulotlari eksporti hajmi **50 ming AQSh dollarini** tashkil etdi.

Joriy yil bahor mavsumida “Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasidagi tadbirlarga o‘rmon xo‘jaliklari tomonidan **12,3 mln dona** ko‘chat va qalamchalar yetkazib berildi.



Jumladan, bahor mavsumida Jizzax viloyati, Zomin tumani tog‘ va tog‘oldi hududlarining 91 gektar maydonida manzarali o‘rmonzorlar barpo etilib, Sufa hududida loyiha asosida **2,5 dona** zarang, **500 dona** qrim qarag‘ayi, **450 dona** shumtol va **150 dona** sadaqayrag‘och kabi jami **3,6 dona** hududning tuproq-iqlim sharoitiga mos manzarali ko‘chatlarni ekish ishlari amalga oshirildi.

Toshkent viloyati Bo‘stonliq tumanidagi tog‘ oldi hududlarida **258 gektar** maydonda tuproq-iqlim sharoitga mos daraxt va butalardan iborat o‘rmon barpo etish ishlari bajarildi.

Joriy yilning hisobot davri yakuniga ko‘ra mazkur loyihalar doirasida jami **2,5 mln AQSh dollari** to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar o‘zlashtirildi.

Hayvonot va o‘simlik dunyosi, muhofaza etiladigan tabiiy hududlar va chiqindilarni utilizatsiya qilish joylarining davlat kadastrlarini yuritish uchun 2024-yilning dastlabki 6 oyligida **1,3 mlrd** so‘m rejalashtirilgan bo‘lib, ushbu mablag‘lar to‘liq o‘zlashtirilgan.



Jumladan:

Farg‘ona, Andijon, Namangan viloyatlarining istiqbolli xom ashyobop o‘simliklarning davlat ro‘yxati va kadastrini yaratish hamda ushbu viloyatlarda joylashgan muhofaza etiladigan tabiiy hududlarning flora turlari tarkibini inventarizatsiya qilish ishlarini bajarish bo‘yicha **0,2 mlrd** so‘m mablag‘lar o‘tkazib berildi.

Bunda 29 turdagi istiqbolli xom ashyobop o‘simliklarning davlat ro‘yxati va kadastrini yaratilib, ushbu viloyatlarda joylashgan muhofaza etiladigan tabiiy hududlarning flora turlari tarkibi inventarizatsiya qilindi hamda ma‘lumotlar umumlashtirildi.

Fanlar akademiyasi Zoologiya instituti bilan Buxoro va Jizzax viloyatlari hududlarida iqtisodiy ahamiyatga ega (baliqlar, sudralib yuruvchi va sutemizuvchi) hayvonlar turlarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish va kadastrini shakllantirish bo‘yicha **0,4 mlrd** so‘m o‘tkazib berildi.

Shuningdek, muhofaza etiladigan tabiiy hududlarda yashaydigan hayvonlar turlarining davlat ro‘yxati va kadastrini yaratish bo‘yicha Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar departamenti shartnoma imzolaniib **0,2 mlrd** so‘m mablag‘lar moliyalashtirilgan.



Imzolangan shartnomalar doirasida **17 ta** turdagi iqtisodiy ahamiyatga ega (baliqlar, sudralib yuruvchi va suturemizuvchi) va muhofaza etiladigan tabiiy hududlarda yashaydigan hayvonlar turlari davlat ro'yxatidan o'tkazildi va kadastri shakllantirildi.

Shu bilan birga, dastur doirasida "O'zdvroyiha" davlat ilmiy loyihalash instituti bilan shartnoma imzolangan bo'lib, **0,5 mlrd** so'm mablag'lar moliyalashtirilgan.

Bunda, muhofaza etiladigan tabiiy hududlar davlat kadastrini shakllantirish bo'yicha Surxondaryo viloyatidagi Bandixonsoy, Elbayansoy va Sharg'unsoy soylari, Buxoro viloyatidagi Dengizko'l, Zikri, Og'itma, Devxona, Xadicha, Zamonbobo va Qumsulton ko'llari, Toshkent viloyatidagi Pskem daryosi va Gushsoy soylari, Jizzax viloyatidagi Osmonsoy va Kulbasoy soylarining suvni muhofaza qilish zonalarini, shu jumladan sohil bo'yi mintaqalarini belgilash loyihalarini ishlab chiqish ishlari amalga oshirilmoqda.

Joriy yilning dastlabki 6 oy yakuni bilan Ekologiya jamg'armasiga **223,9 mlrd so'm** mablag'lar kelib tushib, shundan tabiatni muhofaza qilish va tashkiliy tadbirlar, ilmiy-izlanish, me'yoriy-uslubiy, kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash, ekologik bilimlarni targ'ib qilish va xalqaro hamkorlikni tashkillashtirish ishlariga, vazirlik tizimining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash va zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish xarajatlariga shuningdek, tegishli normativ-huquqiy hujjatlar ijrosi bajarilishini moliyalashtirish tadbirlariga hamda xodimlarni moddiy rag'batlantirish maqsadlarida jami **188,9 mlrd so'm** yo'naltirildi. Jumladan:



- **83,1 mlrd so'm** Ekologiya vazirligi, hududiy bo'linmalar xodimlarini moddiy rag'batlantirish, moddiy yordam ko'rsatish va ijtimoiy qo'llab - quvvatlash uchun;

- **36,1 mlrd so'm** Ekologiya vazirligi tizim tashkilotlarini saqlash xarajatlari uchun;

- **20,6 mlrd so'm** Xalqaro miqyosda o'tkazilgan tadbirlarni (CRIC-21 va COP-14) o'tkazish uchun;

- **24,8 mlrd so'm** Markaziy Osiyo atrof-muhit va iqlim o'zgarishini o'rganish universiteti (Green University) binosining qurilish va kapital ta'mirlashga, chiqindi poligonlari atrofida ixota daraxtzorlari barpo etishga, Jizzax shahrida 13,6 gektar maydonda "Yashil jamoat parki" bo'yicha loyiha smeta hujjatlarini ishlab chiqishga, Andijon viloyati "Dung qishlog'i" MFYda va Farg'ona viloyati "Qorasuv" o'rmon bo'limiga qarashli hududlarda vazirlik bog'ini barpo etishga;

- **24,3 mlrd so'm** Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligiga yuklatilgan vazifalarni bajarish bilan bog'liq boshqa xarajatlar uchun sarflangan.

Mening bog'im

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 23-noyabrdagi PF-199-son Farmoniga asosan **“Yashil makon”** umummilliy loyihasini amalga oshirishda davlat budjetidan har yili ajratiladigan mablag'larning kamida **50 foizi** “yashil bog'lar” va “yashil jamoat parklari”ni tashkil qilish uchun “Ochiq budjet” axborot portali orqali jamoatchilik fikri asosida shakllangan **“Mening bog'im”** loyihalarini moliyalashtirishga yo'naltirilishi belgilandi.



“Mening bog'im” loyihalarini shakllantirish va ularga ovoz berish jarayoni har yili yanvar-fevral oylarida o'tkaziladi.

2024-yildan boshlab **«Yashil makon»** umummilliy loyihasi doirasida Respublika budjetidan har yili ajratiladigan mablag'larning kamida **50 foizi** «yashil bog'» va «yashil jamoat parklari»ni tashkil qilish uchun **«Ochiqbudjet»** axborot portali orqali jamoatchilik fikri asosida ishlab chiqilgan **«Mening bog'im»** loyihasi doirasida yo'naltirilishi joriy etildi.

Jumladan, joriy yil 6-iyundan 7-iyulga qadar **«Ochiq Budjet»** axborot portalida bo'lib o'tgan «Mening bog'im» tadbirlarining ilk mavsumida **789 ta** loyiha ilgari surilgan bo'lsa, shundan umumiy summasi **52,0 milliard so'mni** tashkil qilgan 215 ta loyiha eng ko'p ovoz olgan holda g'olib bo'lgan.

Bugungi kunda mazkur loyihalarni amalga oshirish yuzasidan loyiha-smeta hujjatlarini tayyorlash va pudratchi tashkilotlarni aniqlash yuzasidan ishlar amalga oshirilmoqda.

Suv xo'jaligi sohasi

Suv xo'jaligi sohasiga hisobot davrida **4 715,2 mlrd so'm** mablag' ajratilgan bo'lib, shundan **449,8 mlrd so'm** ish haqi va unga tenglashtirilgan xarajatlarga, **118,5 mlrd so'm** ijtimoiy soliq to'lovlari va **4 146,9 mlrd so'm** boshqa xarajatlarga yo'naltirilgan.

*Suv xo'jaligi tizimidagi nasos stansiyalar tomonidan hisobot davrida iste'mol qilingan **2 902 mln. kVt** elektr energiyasi uchun **3 483,0 mlrd so'm** mablag'lar sarflangan.*

Bunda to'lovlar, amaldagi tartib bo'yicha hisobot davridan keyingi oy uchun belgilangan iste'mol limitining 100 foizini hisobga olgan holda amalga oshirilgan.

Xususan, nasos stansiyalarining elektr energiyasi xarajatlari uchun ajratilgan mablag'lardan **2 005,7 mlrd so'm** yirik hisoblangan Qarshi magistral kanalidan foydalanish, Jizzax bosh nasos stansiyasi, Amu-Buxoro mashina kanali Olot va Qiziltepa tuman boshqarmalari nasos stansiyalari foydalangan **1795,6 mln. kVt** elektr energiyasi uchun yo'naltirilgan.



Iste'mol qilingan elektr energiyasi 2023-yilning I yarim yilligida **3 341,2 mln. kVt**ni tashkil etgan bo'lib, hisobot davrida o'tgan yilning mos davriga nisbatan **439,2 mln. kVt** kam iste'mol qilingan.

Amudaryo daryosi havzasida suv miqdorining me'yorga nisbatan kam bo'lishi natijasida daryoning quyi qismidagi Taxiatoş gidrouzelinig yuqori byefida yig'ilib qolgan loyqa cho'kindilarni gidravlik usul yuvib chiqarib tashlash imkoni bo'lmaganligi sababli, ularni mexanik usul bilan, ya'ni zemsniaryad mexanizmlari yordamida qazib tozalash ishlari tashkil etilmoqda.

Bu maqsadlar uchun hisobot davrida **6,3 mlrd so'm** mablag' yo'naltirilgan bo'lib, **2,7 mln m³** loyqa cho'kindilari chiqarilgan.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 23-fevraldagi 95-son qarorida paxta xomashyosi yetishtirishda tomchilatib va diskret sug'orish texnologiyalarini joriy etishga sarflangan xarajatlarning bir qismini qoplashga ajratiladigan subsidiyalarni talabgorlarning hisobvaraqlariga o'tkazib berishga Suv xo'jaligi vazirligi mas'ul etib belgilangan.

Subsidiyalarni ajratish bo'yicha arizalar paxta xom-ashyosi yetishtiruvchilar tomonidan texnologiyalar ishga tushirilib, sinovdan o'tkazilgandan so'ng asosan iyul-avgust oylaridan kelib tushishni boshlaydi.

Hisobot davrida 155 gektar paxta maydonida joriy qilingan suv tejoychi texnologiyalar uchun **1,7 mlrd so'm** subsidiya mablag'lari 2 ta qishloq xo'jaligi korxonalariga to'lab berilgan.

Qishloq xo'jaligi sohasi

Qishloq xo'jaligi vazirligi va uning tizimdagi respublika budjetidan moliyalashtiriladigan tashkilotlari tomonidan joriy yilning I yarim yilligida **682,8 mlrd so'm** mablag'lar o'zlashtirilgan.

Jumladan, qishloq xo'jaligini rivojlantirish dasturlari uchun ko'zda tutilgan mablag'lardan **388,3 mlrd so'm** mablag'lar o'zlashtirilgan, jumladan:

qishloq xo'jaligida suv tejoychi texnologiyalarni joriy etish uchun subsidiyalarga **23,8 mlrd so'm;**

qishloq xo'jaligi yerlarining normativ qiymatini aniqlash va qayta baholash, tuproq bonitirovkasi hamda tuproq xaritalarining korrektirovkasini o'tkazish, sug'oriladigan yerlarda tuproq agrokimyoviy tadqiqot ishlarini bajarish, agrokimyoviy kartogrammlar tuzish va tuproq (yerlar) monitoringini o'tkazish uchun xarajatlarga **42,6 mlrd so'm;**

qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchisi bo'lgan chorvachilik, parrandachilik va baliqchilik xo'jaliklari tomonidan yetishtirilib, sotilgan mahsulotlar uchun subsidiyalarga **171,9 mlrd so'm;**

uy hayvonlarini emlash uchun xarajatlariga **87,5 mlrd so‘m;**



chorvachilik mahsulotlarini yetishtiruvchi xo‘jaliklar tomonidan xorijiy davlatlardan import qilingan nasldor qoramol, qo‘y va echki, ona baliq va jo‘jalarni sotib olish uchun xarajatlarining bir qismini qoplab berish uchun subsidiyalarga **18,7 mlrd so‘m;**

chigirtka va zararkunandalarga qarshi kurashish hamda favqulodda vaziyatlarda hosilni saqlab qolishni ta‘minlash bilan bog‘liq xarajatlarga **3,6 mlrd so‘m;**

qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlarni xatlovdan o‘tkazish uchun xarajatlarga **16,6 mlrd so‘m;**

respublika hududidagi gidrografik obyektlarni raqamlashtirish va elektron xaritalarini yaratish uchun xarajatlarga **7,5 mlrd so‘m;**

tut parvonasiga qarshi kurashish tadbirlari uchun xarajatlarga **16 mlrd so‘m** hamda Bog‘dorchilik va issiqxona xo‘jaligini rivojlantirish jamg‘armasiga **30 mlrd so‘m** transfert amalga oshirilgan.

Respublika hududida hayvonlarning o‘ta xavfli kasalliklarini kelib chiqishi va chetdan kirib kelishini oldini olish maqsadida epizootiyaga qarshi profilaktik tadbirlarni o‘tkazish uchun jami **1200 ta** ishchi guruh tashkil etilib, unga **5 mingga** rahbar va xodimlar, soha mutaxassislari va mas‘ullar biriktirildi hamda ishchi guruh ishini muvofiqlashtirib borish bo‘yicha respublika, viloyat va tuman shtablari tashkil etilgan. Shuningdek, hayvonlar kasalliklariga qarshi o‘tkaziladigan profilaktik tadbirlar **“Mahallabay”** va **“Xonadonbay”** usulda asosida amalga oshirilmoqda.

Respublika hududida epizootiyaga qarshi profilaktik tadbirlarni **“Hayvonlar sog‘ligi - xalq salomatligi”** shiori ostida ommaviy ravishda tashkil etish belgilab olindi.

Hayvonlar orasida kelib chiqayotgan kasalliklarning mamlakatimiz hududiga kirib kelishi va tarqalishini oldini olish maqsadida chorva mollarining **21,3 mln** boshi kuydirgi, **12,7 mln** boshi oqsil, **0,93 mln** boshi qorason, **6,9 mln** boshi nodulyar dermatit, **0,89 mln** boshi chechak, **5,97 mln** boshi brusellyoz, **0,4 mln** boshi bradzot, **12,8 ming** bosh tuyalar o‘lat va **36,7 ming** bosh quyonlar virusli gemorragik isitma kasalligiga va ro‘yxatga olingan **0,93 mln** bosh it va mushuklar quturish kasalligiga qarshi profilaktik emlash va **6,0 mln** bosh chorva mollar brusellyoz kasalligiga diagnostik tekshirildi hamda **40,7 mln** bosh chorva mollar ektoparazitlarga qarshi profilaktik ishlov berilib,



chorva mollari saqlanadigan bino va inshootlarda doimiy ravishda profilaktik dezinfeksiya va dezinseksiya tadbirlari o'tkazib kelinmoqda.

Brusellyoz, kuydirgi, quturish, parranda grippi va Qrim-Kongo gemmoragik isitmasi kasalliklarining kelib chiqishi, uning oldini olish va qarshi kurashishda aholi va chorvachilik bilan shug'ullanuvchi rahbar va xodimlar xabardorligini oshirish maqsadida respublika va hududiy seminarlar o'tkazildi hamda targ'ibot-tashviqot ishlari uchun **52 ming dona** rangli plakatlar, **550,4 mingta** varaqalar tayyorlanib, tarqatildi va **272 marotaba** televideniye va radioda chiqish qilinib, matbuotda **253 ta** maqolalar chop etildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 24-avgustdagi PQ-285-son "Chorvachilikda identifikatsiya qilish tizimi va naslchilik sohasini takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorlariga asosan xo'jaliklar tomonidan nasldor qoramol, qo'y va echki va jo'jalarni sotib olish uchun subsidiyalar ajratib kelinmoqda.

Xususan, import qilingan har bir bosh naslli qoramolga **2 mln so'm**, qo'y-echkiga **400 ming so'm**, bir kunlik naslli jo'jaga **15 ming so'm** miqdorida subsidiyalar ajratiladi. Ushbu maqsadlar uchun 2024-yil I yarim yil yakuni bilan **18,7 mlrd so'm** subsidiya mablag'lari yo'naltirildi.

Hisobot davrida **4 ta** davlatga **11 turdagi** qishloq xo'jaligi mahsulotlari eksporti uchun **fitosanitar ruxsatlar** olinib, **24 ta** davlatdan olingan ruxsatlar soni **592 taga** yetkazildi. Shuningdek, **56 ta** davlatga fitosanitariya sertifikatini asosida yuklash imkoniyati yaratilgan.

O'simliklarni himoya qilish bo'yicha xizmatlar ko'lamini kengaytirish, mahsulot ishlab chiqaruvchilarga qulaylik yaratish maqsadida **biolaboratoriyalar 639 taga** (qo'shimcha **16 ta**) va **o'simlik klinikalari 968 taga** (qo'shimcha **19 ta**) yetkazilishiga ko'maklashildi.

Xonadonbay ishlash tizimi yo'lga qo'yilib, 4 158 ta xonadonda biolaboratoriyalarning mavsumiy shoxobchalari hamda aholi tomorqa ekin maydonlariga xizmat ko'rsatuvchi 2 397 ta otryadlar tashkil etilishiga erishildi.

2024-yil hosili uchun **4 mlrd 555 mln** dona **oltinko'z**, **5 276 kg** **trixogramma** va **1 mlrd 827 mln** dona **brakon** entomofaglari ko'paytirilib, qishloq xo'jaligi ekin maydonlarida tarqatildi.

Xavfli zararkunanda va kasallik o'choqlarini o'z vaqtida aniqlash va ularga qarshi samarali kurashish choralarini belgilash va monitoring yuritish uchun **1 012 ming** gektar g'o'za ekini maydonida **1,6 mln** dona sadsh va **1,6 mln** dona feromon tutqichlar o'rnatildi.

Respublika bo'yicha jami **233,8 ming** gektar maydonning agrokimyoviy xaritanomalari konturlar kesimida ishlab chiqilib, konturlar kesimidagi elektron

agrokimyoviy xaritanomasi yerdan foydalanuvchilarga yetkazib berildi.

450,5 ming gektarda zararli chigirtkaga qarshi kurash choralari ko‘rildi. Jumladan, Qashqadaryo viloyatida 105,7 ming gektar, Jizzaxda 93 ming gektar, Surxondaryoda 82 ming gektar, Samarqandda 45,5 ming gektar, Qoraqalpog‘iston Respublikasida 41,5 ming gektar, Toshkentda 25,7 ming gektar, Navoiyda 24,9 ming gektar, Buxoroda 14,9 ming gektar, Namangan, Xorazm, Sirdaryo, Andijon va Farg‘onada 0,7-5,9 ming gektardan maydonda ishlovlar o‘tkazildi.



Ushbu tadbirlarga **203 ta** OVX purkagichli traktor, **308 ta** motorli qo‘l purkagich, **43 ta** UMO purkagichli avtomashina, **2 ta** motodeltaplan, **58 ta** suv tashuvchi transport vositasi (vodovoz) jalb qilindi.

Joriy yilning I yarim yilligida **qishloq xo‘jaligini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasiga 240,4 mlrd so‘m** mablag‘lar yo‘naltirildi. Jumladan:

– Jamg‘armaga ajratilgan budjet ssudasi va tijorat banklariga qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirish xarajatlarini moliyalashtirish uchun joylashtirilgan resurslarning foiz stavkalari o‘rtasida yuzaga kelgan salbiy tafovutni qoplash uchun **89,4 mlrd so‘m** yo‘naltirildi.

– O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 12-iyuldagi “Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchilarning moddiy-texnik bazasini yanada mustahkamlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 578-son qarorida **qishloq xo‘jaligi texnikasini kredit va lizing shartlarida xarid qilishni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash uchun** subsidiya berish tizimi yo‘lga qo‘yilgan.



Ushbu qaror ijrosini ta‘minlash va sohani davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash maqsadida 2024-yil 6 oy davomida mazkur yo‘nalishga davlat budjetidan **48,2 mlrd so‘m** subsidiya ajratildi.

– O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 31-iyuldagi “Qishloq xo‘jaligi mashinasozligini jadal rivojlantirish, agrar sektorni qishloq xo‘jaligi texnikalari bilan ta‘minlashni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashga oid chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4410-son qaroriga asosan, **mahalliy va import qishloq xo‘jaligi texnika va agregatlarning qiymatini qisman qoplab berish uchun** davlat tomonidan subsidiya berish tizimi yo‘lga qo‘yildi.

Ushbu qaror ijrosini ta‘minlash va sohani davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash maqsadida 2024-yil 6 oy davomida davlat budjetidan **43,8 mlrd so‘m** subsidiya ajratildi.

Respublikaning shahar va tumanlari obodonlashtirish sohasi yo‘nalishida jami bugungi kunda **231 ta** tashkilotlar mavjud bo‘lib, ularning mavjud shtat birliklari **65,7 ming tani** tashkil etmoqda.



Ushbu boshqarmalar xodimlarini saqlash hamda belgilangan tadbirlarni amalga oshirish uchun joriy yilning I yarim yilligida **2 638,7 mlrd so‘m** mablag‘lar ajratildi.

- qarovsiz hayvonlarni tutish va saqlash tadbirlarida band bo‘lgan xodimlarning ish haqi, saqlash va mazkur tadbirlar bilan bog‘liq boshqa xarajatlar bo‘yicha I yarim yillikda **12,9 mlrd so‘m** ajratilgan;

- shahar va tumanlar aholi punktlarini obodonlashtirish va ko‘kalamzorlashtirish bo‘limlaridagi mavjud shtat birliklari, ularga biriktirilgan hududlarni saqlash va boshqa tadbirlarga I yarim yillikda **1 497,8 mlrd so‘m** ajratilgan;

- shahar va tumanlardagi dafn etish joylarini saqlash va obodonlashtirish uchun 2024-yil I yarim yillik yakuni bo‘yicha **322,9 mlrd so‘m** mablag‘;

- shahar va tuman markazlarida mavjud tik quduqlar, kuzatuv quduqlari va kollektorlarni saqlash va joriy xarajatlari bo‘yicha 2024-yil I yarim yillik yakuni bo‘yicha **23,7 mlrd so‘m** ajratilgan;

- shahar va tumanlar ko‘chalarining tashqi yoritish tarmoqlarini saqlash, ta‘mirlash, foydalanish va ekspluatatsiya qilish tadbirlari hamda joriy xarajatlarga **133,4 mlrd so‘m** ajratilgan;


- shahar/tuman hokimliklari balansida mavjud bo‘lgan ichki yo‘llarni ta‘mirlash xarajatlari bo‘yicha **908,9 mlrd so‘m**, shundan, **800 mlrd so‘m** qismi “Mening yo‘lim” loyihalari uchun rejalashtirilgan bo‘lib, I yarim yillik yakuni bo‘yicha **610,3 mlrd so‘m** rejalashtirilgan mablag‘lar to‘liq “Ochiq budjet” axborot portali orqali joriy yilning birinchi mavsumida g‘olib bo‘lgan loyihalarni amalga oshirish uchun “Tashabbusli budjet” jamg‘armasiga o‘tkazib berilgan;



- boshqa turdagi kommunal rivojlantirish bo‘yicha xarajatlarga **32,7 mlrd so‘m** mablag‘ ajratilgan;

Uy-joy kommunal xo‘jaligi sohasiga 2024-yilning I yarim yilligida Davlat budjetidan **1 622,9 mlrd so‘m** yoki o‘tgan yilning mos davriga nisbatan **586,1 mlrd so‘m** ko‘p mablag‘ ajratildi. Jumladan:

2024-yilning I yarim yilligida aholiga issiqlik ta'minoti xizmatlari tariflarini past qo'llash hisobiga ko'rilgan zararlarini qoplash maqsadida taqdim etilgan tegishli hisob-kitoblarga ko'ra **1 467,8 mlrd so'm** mablag'lar issiqlik ta'minoti korxonalariga yo'naltirildi.




Hukumat qarorlariga asosan, Uy-joy kommunal sohasi bo'yicha Davlat dasturlarining ijrosi yuzasidan:

- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 12-iyundagi **376-sonli** qaroriga asosan 2021-2027-yillarda Ko'p kvartirali uylardagi lift uskunalari ta'mirlash va yangilash Dasturiga muvofiq, hududlardagi ko'p kvartirali uylarning liftlarini yangisiga almashtirish bo'yicha **2024-yilning I yarim yilligida 139,0 mlrd so'm** mablag'lar ajratildi.

- Joylardagi Ko'p kvartirali uy-joylarning tutash hududlarini obodonlashtirish tadbirlari uchun 2024-yilning I yarim yilligida **14,3 mlrd so'm** mablag'lar ajratildi.

Shahar jamoat transporti yo'nalishi bo'yicha:



Yo'lovchilarni muntazam tashish bilan band bo'lgan tashuvchilar tomonidan ko'riladigan zararlar davlat budjetidan qoplanib kelinmoqda.

2024-yilning I yarim yilligida shahar avtobus yo‘nalishida cheklangan tariflarda yo‘lovchi tashishni brutto-shartnoma (gross cost contract) asosida bajarilgan ishlar qiymati **806,0 mlrd so‘mni** tashkil qilgan bo‘lib, shundan **262,0 mlrd so‘mi** tashishdan tushgan tushumlar hisobidan, **405,8 mlrd so‘m** budget mablag‘lari hisobidan qoplab berilgan.

Jamiyat tomonidan I yarim yillik davomida jami **157,2 mln** yo‘lovchilarga xizmat ko‘rsatilib, **405,8 mlrd so‘m** subsidiya mablag‘lari ajratilgan.

Xususan:


- yo‘nalishli yo‘lovchilar soni – **133,1 mln;**
- transport kartalardan foydalangan yo‘lovchilar soni – **23,7 mln;**
- bepul xizmat ko‘rsatilgan yo‘lovchilar soni – **0,5 mln.**

Hisobot davrida “Toshkentmetropoliteni” DUKning (keyingi o‘rinlarda – korxonaga) cheklangan tariflar hisobiga yo‘lovchi tashish xizmatidan kutilayotgan zararlarini qoplash uchun **192,0 mlrd so‘m** ajratilgan.

“Toshkent metropoliteni” DUK tomonidan taqdim etilgan hisob-kitoblarga asosan yo‘lovchilarni tashishdan ko‘rilgan daromadlar 166,6 mlrd so‘m, xarajatlar 492 mlrd so‘mni tashkil qilgan.

Korxonaga tomonidan 6 oy davomida 89,9 mln yo‘lovchiga xizmat ko‘rsatilgan.

45-rasm



Xususan:

- yo‘nalishli yo‘lovchilar soni – **75,6 mln;**
- transport kartalardan foydalangan yo‘lovchilar soni – **41,2 mln;**
- imtiyozli yo‘lovchilar soni – **2,7 mln;**
- tashilgan pensionerlar soni – **4,4 mln.**


Ushbu ko‘rsatkich o‘tgan yilning mos davriga nisbatan **8,7 mln** yo‘lovchiga ko‘p xizmat ko‘rsatilgan.

Mahalliy yo‘nalishlardagi temir yo‘l va aviatashuvchilarni qo‘llab-quvvatlash:

Ichki turizmni rivojlantirish maqsadida mahalliy yo‘nalishlarda aviaqatnovlardagi chipta narxini bir qismini aviatashuvchilarga qoplab berish dasturi bo‘yicha 2024-yil I yarim yilligida jami **3,7 mlrd so‘m** “Uzbekistan Airways” AJga budget mablag‘lari hisobidan qoplab berildi.

Farg‘ona shahridan So‘x tumaniga kichik aviatsiya transportida aholiga maqbul narxlarda qatnovlarni yo‘lga qo‘yish natijasida tashuvchi ko‘rgan zararlarni qoplash dasturi bo‘yicha **413 nafar** yo‘lovchi uchun jami **132 mln so‘m** “Humo Air” MChJga budget mablag‘lari hisobidan qoplab berildi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi va Xorazm viloyatida yashovchi pensionerlar, nafaqa oluvchilar hamda nogironligi bo‘lgan shaxslarga temir yo‘l va avia chiptalar 50 foizlik imtiyoz bilan sotilishi natijasida tashuvchilar tomonidan ko‘rilgan zararni qoplab berish dasturi bo‘yicha **62 ming nafar** yo‘lovchi uchun jami **6,0 mlrd so‘m** “O‘zbekiston temir yo‘llari” AJga va “Uzbekistan Airways” AJga kompensatsiya mablag‘lari ajratildi.



Xalqaro IT-sertifikatlarga ega yosh mutaxassislarni qo‘llab-quvvatlash:

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Xalqaro IT-sertifikatlarga ega yosh mutaxassislarni qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2021-yil 19-apreldagi 310-son qarori ijrosini ta‘minlash maqsadida hamda yoshlarni IT sohasida salohiyatini oshirish, shuningdek, IT bilimlarga qiziqtirish maqsadida xalqaro IT sertifikatlarni olish uchun **50 foizgacha** xarajatlarini davlat budjeti mablag‘lari hisobidan qoplash tizimi joriy etilgan.

Xalqaro IT sertifikatlarni olish uchun **510 ta** yoshlar qatnashgan bo‘lib, ularning **446 tasiga 959,3 mln so‘m** xalqaro sertifikat xarajatlari qoplab berildi.

Hozirda belgilangan vazifalarni ijrosini ta‘minlash maqsadida quyidagi ishlar amalga oshirildi:

- O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Xalqaro IT-sertifikatga ega yosh mutaxassislarni qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2021-yil 19-maydagi 310-son qaroriga muvofiq “Dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalari texnologik parki direksiyasi” MChJ (Direksiya) tomonidan respublika bo‘yicha oliy ta‘lim muassasalari talabalari o‘rtasida so‘rovnoma o‘tkazilib, eng ko‘p talab qilinadigan **205 ta** xalqaro IT-sertifikatlar ro‘yxati shakllantirildi;

- ushbu maqsadlar uchun O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining G‘aznachiligida alohida shaxsiy g‘azna hisobvarag‘i ochildi;

- xalqaro IT-sertifikatga ega bo'lgan talabgorlarning xalqaro IT-sertifikatni olish xarajatlarining **50 foizgacha** bo'lgan qismini qoplashga oid hujjatlar namunalari ishlab chiqilgan;

- xalqaro IT-sertifikatlarga ega bo'lgan yoshlarning o'qish hamda ushbu sertifikatlarni olish xarajatlarining **60 foizgacha** bo'lgan qismini qoplab berish tartibi va ingliz tilida B2 va undan yuqori darajadagi sertifikatga ega bo'lgan yoshlarning xalqaro IT-sertifikatlar olish xarajatlarini to'liq qoplab berish tartibi joriy etildi;

- qo'shimcha ma'lumot olish hamda kompensatsiya qilinadigan xalqaro IT-sertifikatlar ro'yxati bilan tanishtirish maqsadida it-istedod.uz portali takomillashtirildi.

Eksportga ko'maklashish va uni rag'batlantirish choralari doirasida hisobot davrida.

- **398 ta** eksport qiluvchi korxonalariga eksportga yo'naltirilgan mahsulotlarni eksport qilishda tashish xarajatlarining bir qismini qoplab berish bo'yicha **184,5 mlrd so'mlik** kompensatsiya to'lab berildi;

Buning natijasida mahalliy tadbirkorlar tomonidan **465,1 mln. AQSh dollarlik** eksport amalga oshirilgan.

- **31 ta** eksportyor korxonalariga garov sifatida sug'urta xizmatlaridan foydalanganda **0,7 mlrd so'mlik** sug'urta mukofoti xarajatlari qoplab berildi;

- **27 ta** mahalliy eksport qiluvchi korxonalariga xalqaro standart va sertifikatni joriy qilish bo'yicha **9,6 mlrd so'mlik** moliyaviy yordam ko'rsatildi;

- **60 ta** mahalliy eksport qiluvchi korxonalariga xalqaro ko'rgazma-yarmarka tadbirlarini tashkil etish bo'yicha **4,4 mlrd so'mlik** moliyaviy yordam ko'rsatildi;

- **34 ta mahalliy** eksport qiluvchi korxonalariga davriy nashrlarga obuna bo'lish, taqdimotlar va reklama kompaniyalarini o'tkazish bo'yicha **1,3 mlrd so'mlik** moliyaviy yordam ko'rsatildi;

- eksport qiluvchi korxonalariga vakolatli organlarning meva-sabzavotlar, to'qimachilik mahsulotlari va buyumlarini eksport qilish uchun zarur sertifikatlarni (**17 258 ta** fitosanitar sertifikati, **31 961 ta** kelib chiqish sertifikati, **9 ta** muvofiqlik sertifikati) rasmiylashtirish bilan bog'liq **9,6 mlrd so'mlik** xarajatlar qoplab berildi.

(O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 14-martdagi "Tashqi savdo va hududiy sanoatni rivojlantirishda tadbirkorlar birlashmalarining rolini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-126-son qaroriga asosan Eksportni rag'batlantirish agentligi negizada "Savdoni rivojlantirish kompaniyasi" AJ tashkil qilingan hamda kompaniyani boshqarish Savdo-sanoat palatasiga berilgan.

Eksportga ko'maklashish va uni rag'batlantirishni kuchaytirish tadbirlari ko'rsatkichlari Eksportni rag'batlantirish agentligi hamda "Savdoni rivojlantirish kompaniyasi" AJ tomonidan qo'shilgan holda inobatga olingan.)

Markazlashgan investitsiya loyihalari va hududlar infratuzilmalarini rivojlantirish tadbirlari

Hisobot davrida **Markazlashgan investitsiya loyihalari va hududlar infratuzilmalarini rivojlantirish xarajatlariga** Davlat budjeti jami xarajatlarining **6,6 foizi** yoki **9 858,8 mlrd so‘m** mablag‘ sarflandi.



O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 30-dekabrda “2024–2026 yillarda O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-404-sonli qaroriga asosan joriy yilning I yarim yilligida ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish dasturi doirasida **1 731 ta** obyektlarda qurilish-ta‘mirlash ishlari uchun **7,1 trln so‘m** mablag‘lar ajratildi.

Dastur ijrosi yuzasidan ajratilgan mablag‘larning o‘zlashtirilishi holati sohalar kesimida tahlili quyidagilardan iborat:

1. Ijtimoiy soha muassasalari.

a) umumta‘lim maktablari bo‘yicha:

Dastur doirasida **622 ta** umumta‘lim maktablarida, jumladan **11 ta** ijod va ixtisoslashtirilgan maktab internatlarini qurish, rekonstruksiya qilish, mukammal ta‘mirlash va jihozlash ishlarini amalga oshirish uchun I yarim yillikda **1 095,9 mlrd so‘m** mablag‘ o‘zlashtirilgan.

Ushbu dastur doirasida joriy yilda qo‘shimcha **178 810 o‘quvchi o‘rni** yaratiladi.

2024-yil dastur doirasidagi obyektlarning 43 tasi yildan-yilga o‘tuvchi hamda qolgan 579 tasi yangidan boshlanuvchi obyektlar hisoblanadi.

b) Maktabgacha ta‘lim muassasalari bo‘yicha:

Ta‘limning boshlang‘ich bo‘g‘ini hisoblangan maktabgacha ta‘lim muassasalarida qulay sharoit yaratish maqsadida, jami 178 ta **maktabgacha ta‘lim muassasalarida** qurilish-ta‘mirlash ishlarini amalga oshirish uchun **232,5 mlrd so‘m** o‘zlashtirildi.



O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 8-fevraldagi “Maktabgacha va umumiy o‘rta ta‘lim sohasi obyektlarini barpo etishda buyurtmachi xizmati faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-65-son qaroriga asosan Qurilish vazirligi huzurida davlat muassasasi shaklida Infratuzilmani rivojlantirish injiniring kompaniyasi (keyingi

Ushbu mablag‘lar evaziga 2024-yilda 24 ta sport obyektlari, **1 608 o‘rinli** yotoqxonalar yangidan qurilishi, **14 ta obyektlarda** va **210 o‘rinli** yotoqxonalarda rekonstruksiya ishlari hamda 2 ta obyektida mukammal ta‘mirlash ishlari amalga oshirilishi rejalashtirilgan.

e) Madaniyat va san‘at obyektlari bo‘yicha:

Madaniyat va turizm vazirligiga 11 ta madaniyat va san‘at muassasalarini qurish-ta‘mirlash ishlari uchun hisobot davrida **43,6 mlrd so‘m** o‘zlashtirildi (*shundan, 3 ta yildan-yilga o‘tuvchi, 8 ta yangidan boshlanuvchi*).

j) Ilm-fan va innovasion obyektlari bo‘yicha:

6 ta Ilm-fan va innovatsiya (*ilmiy tadqiqot*) obyektlarida qurilish-ta‘mirlash ishlarini amalga oshirish uchun **joriy yilning I yarim yilligida 38,3 mlrd so‘m** o‘zlashtirildi.

Muhandislik-kommunal infratuzilma

a) Joriy yilda **Ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish dasturi** doirasida respublika aholi punktlarini toza ichimlik suvi bilan ta‘minlash va oqova suv tizimlarini yaxshilash maqsadida Davlat budjetidan “**Suv ta‘minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish**” jamg‘armasiga **89 ta** obyekt uchun avans to‘lovlarini moliyalashtirish uchun **551,9 mlrd so‘m** transfert mablag‘lari yo‘naltirildi.



Joriy yilda 798 km ichimlik va 122 km oqova suv tarmoqlarini qurish hamda 58 ta ichimlik va 16 ta oqova suv inshootlarini barpo etish ishlarini amalga oshirish ko‘zda tutilgan.



Bunda, 105 ta MFYga yangi tarmoq tortish orqali 542 ming aholi ilk bor markazlashgan ichimlik suvi bilan ta‘minlansa, 80 ta MFYning 835 ming aholisining ichimlik suv ta‘minoti yaxshilanishi ko‘zda tutilmoqda. Natijada, joriy yil yakuni bilan respublika bo‘yicha markazlashgan ichimlik suvi bilan ta‘minlanish darajasi 81 foizga hamda oqova suv xizmatlari bilan qamrab olish darajasi 19 foizga oshirilishiga erishiladi.

b) **Issiqlik ta‘minoti** bo‘yicha **14 ta** obyektida **67 km** issiqlik tarmoqlarini tortish hamda **10 ta** isitish qozonxonasini (kotelniy) qurish ishlarini amalga oshirish rejalashtirilgan, hisobot davrida **13 ta** obyekt uchun **122,0 mlrd so‘m** mablag‘lar o‘zlashtirildi.

Yo'l-transport infratuzilmasi

1. 164 ta yo'l xo'jaligidagi obyektlarda qurilish ishlarini amalga oshirish, o'lchov tarozilarini o'rnatish, texnika va mashina-mexanizmlar xarid qilish uchun avans to'lovlarini moliyalashtirish uchun **1 495,5 mlrd so'm** transfert mablag'lari yo'naltirildi.



Ushbu mablag'larni o'zlashtirilishi hisobiga yil yakunida jami **110,1 km** uzunlikdagi avtomobil yo'llari hamda **1 673,0 pm** ko'priklar va yo'l o'tkazgichlar qurish va ta'mirlash ishlari yakunlanib, foydalanishga topshirilishi rejalashtirilgan.

Jumladan:

a) umumiy foydalanishdagi avtomobil yo'llarini, ichki xo'jaliklararo avtomobil yo'llari va shahar ko'chalarini qurish, rekonstruksiya qilish va ta'mirlash va ko'priklarni qurish va rekonstruksiya qilish, shuningdek texnika va mashina-mexanizmlar xarid qilish uchun I yarim yillikda **880,6 mlrd so'm** yo'naltirildi.

2. Joriy yilgi dastur doirasida temir yo'l transporti va metro 5 ta obyektlarida moliyalashtirish ochilgan. Toshkent shahar halqa avtomobil yo'li bo'ylab 13,7 kmlik 9 bekatdan iborat metropoliten liniyasining ikkinchi bosqich ishlari doirasida **Qo'yliq-Qipchoq-Yangihayot** liniyasi qurilish ishlarini yakunlash uchun **75 mlrd so'm** mablag' ajratilgan.

Aholining talab va ehtiyojlarini, poytaxtimizning kelgusida rivojlanishi, urbanizatsiya jarayonlarining tezlashishi hamda demografik joylashuvlarni inobatga olib, Toshkent shahrida yer usti halqa metro liniyasi qurilishi davom etmoqda. 2020-yilda boshlangan umumiy uzunligi 52,1 km bo'lgan yer usti halqa metro yo'nalishining 11,4 kmlik 7 bekatdan iborat birinchi bosqich Do'stlik – Qo'yliq liniyasining qurilishi yakuniga yetkazildi.

Shuningdek, ushbu loyihaning II bosqichi **Qo‘yliq-Qipchoq-Yangihayot** liniyasi doirasida umumiy uzunligi 7,74 km bo‘lgan 5 ta bekatda **“Qo‘yliq-Quruvchilar”** uchastkasida qurilish ishlari tugatildi. Shu bilan Toshkent metropolitenining bekatlari soni **48 taga** yetdi.



Mazkur obyektни yakunlash bilan Toshkent viloyati Bektemir tumani, Toshkent shahri Yashnobod tumani Qo‘yliq massivi, Sergeli va yangi tashkil etilgan Yangihayot tumanlarida istiqomat qiluvchi aholining transport vositalariga bo‘lgan ehtiyojlari qondirilib, kunlik **86 ming yo‘lovchiga** ekologik toza, sifatli va zamon talablariga mos transport xizmati ko‘rsatilishiga erishiladi. Yer usti metrosi qurilishining ikkinchi bosqichi to‘liq yakunlanishi bilan Toshkent metropolitenining jami uzunligi **70 kmdan** ortadi. Bekatlar soni esa **50 taga** yetadi.



Bundan tashqari, Toshkent metropolitenida faoliyat ko‘rsatayotgan metro vagonlari ko‘p yillardan buyon poytaxt aholisiga xizmat ko‘rsatib kelmoqda. Mazkur vagonlarni o‘z muddatida modernizatsiya qilib borish zamon talabiga aylanib bormoqda.

Shundan kelib chiqib, metro vagonlarini modernizatsiya qilish orqali ularning xizmat muddatini uzaytirish ishlariga **35,5 mlrd so‘m** mablag‘lar ajratilishi nazarda tutilgan.

Mazkur obyekt bo‘yicha qurilish-montaj ishlarini amalga oshiruvchi pudrat tashkilotini aniqlash, tanlov (tender) savdolarini o‘tkazish ishlari amalga oshirilmoqda.

Irrigatsiya va melioratsiya obyektlari:

a) 170 ta **irrigatsiya obyektlari** (49 ta yildan-yilga o'tuvchi, 121 ta yangidan boshlanuvchi) qurilish ta'mirlash ishlarini amalga oshirish rejalashtirilgan. Hisobot davri yakuni bilan 47 ta yildan-yilga o'tuvchi va 116 ta yangidan boshlanuvchi obyektlarga **1 085,1 mlrd so'm** mablag' o'zlashtirildi.



2024-yilgi Investitsiya dasturi doirasida ajratilgan mablag'lar hisobiga **345,9 km** kanal, **75,9 km** lotok tarmoqlari, **8 ta** gidrotexnik inshoot, **31,0 m³/sek** suv chiqarish quvvatiga ega bo'lgan nasos stansiyalar, **18,4 km** bosimli quvurlar, **124 ta** sug'orish qudug'i, **3 ta** ko'prik, **2,025 mln.m³** hajmli suv ombori qurish va rekonstruksiya qilish rejalashtirilgan.

b) 57 ta melioratsiya obyektlari (shundan, 8 ta yildan-yilga o'tuvchi, 49 ta yangidan boshlanuvchi) uchun ikkinchi chorak yakuni bilan **142,6 mlrd so'm** mablag'lar o'zlashtirildi.

2024-yilgi Investitsiya dasturi doirasida ajratilgan mablag'lar hisobiga **254,5 km** ochiq, **114,3 km** yopiq gorizontal kollektor-drenaj tarmoqlari, **82 ta** vertikal drenaj qudug'i, **25 ta** gidrotexnik inshoot va **648 ta** kuzatuv quduqlarini qurish va rekonstruksiya qilish rejalashtirilgan.

Ushbu loyihalarni amalga oshirish natijasida irrigatsiya va melioratsiya obyektlarining texnik holati yaxshilanib, loyihalar hududidagi **207 ming gektar** maydonlarning **suv ta'minoti** va **114 ming gektar** sug'oriladigan yer maydonlarining **meliorativ holati** yaxshilanishiga erishiladi.

Maxsus iqtisodiy zonalar, kichik sanoat zonalari, yoshlar sanoat va tadbirkorlik zonalari hamda yirik ishlab chiqarish loyihalarini tashqi muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlari bilan ta'minlash

Joriy yilning I yarim yilligida maxsus iqtisodiy va kichik sanoat zonalar hamda investitsiya loyihalarini tashqi muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlari bilan ta'minlash uchun **497,4 mlrd so'm** mablag' ajratilgan.

Jumladan:

Ichimlik suv ta'minoti va kanalizatsiya tarmoqlarini qurish ishlariga 74,2 mlrd so'm;

Avtomobil yo'llari, ko'priklar va yo'l o'tkazgichlarni qurish ishlariga 89,4 mlrd so'm;

Tashqi elektr tarmoqlari bilan ta'minlash uchun 298,7 mlrd so'm;

Tashqi tabiiy gaz tarmoqlari bilan ta'minlash uchun 3,3 mlrd so'm

Temir yo‘l qurish ishlariga 31,4 mlrd so‘m.

Ma‘muriy-hududiy, muhandislik-infratuzilma, shuningdek alohida muhim va toifalangan obyektlarni qurish hamda rekonstruksiya qilish:

28 ta **ma‘muriy va boshqa obyektlar** (8 ta yildan-yilga o‘tuvchi, 25 ta yangidan boshlanuvchi) uchun ikkinchi chorak yakuniga ko‘ra **524,1 mlrd so‘m** mablag‘lar o‘zlashtirildi. Jumladan:

Hududlarning bosh reja, hududlarning arxitektura-rejalashtirish loyihalari va sxemalarini hamda batafsil rejalashtirish loyihalarini ishlab chiqish ishlari uchun hisobot davrida **134,3 mlrd so‘m** mablag‘ o‘zlashtirildi. Buning natijasida respublikamizdagi **152 ta** shahar, shaharchalar va qishloq aholi punktlarinig bosh rejalari ishlab chiqilib, Shaharsozlik geoaxborot tizimiga kiritiladi;

Davlat hokimiyati, boshqaruv, adliya, prokuratura va sud organlari ta‘minotiga 2024 yilning I yarim yilligida **8,3 trln so‘m** yoki o‘tgan yilning mos davriga nisbatan **1,1 trln so‘m** ko‘p mablag‘ ajratildi.

Nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatning boshqa institutlarini qo‘llab-quvvatlashga Davlat budjetidan **661,5 mlrd so‘m** mablag‘ ajratildi.

Birinchi darajali budjet mablag‘larini taqsimlovchilariga respublika budjetidan ajratilgan mablag‘larining ijrosi.

Hisobot davrida birinchi darajali budjet mablag‘larini taqsimlovchilar tomonidan o‘zlashtirilgan mablag‘lar miqdori **118 846,8 mlrd so‘mni** yoki I yarim yillikda ajratilgan mablag‘larning **96,8 foizini** tashkil etdi. Jumladan:

- joriy xarajatlar o‘zlashtirilishi **92 454,8 mlrd so‘mni** yoki jami mablag‘larning **97,3 foizini** tashkil etgan;

- obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalariga **4 277,6 mlrd so‘m** mablag‘ sarflandi.

- respublika budjetidan davlat maqsadli jamg‘armalariga ajratilgan mablag‘lar miqdori **13 239,6 mlrd so‘mni** tashkil etdi.

Budjet mablag‘laridan foydalanish bilan bog‘liq maqsadli indikatorlari ijrosi bo‘yicha:

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 29-dekabrda “O‘zbekiston Respublikasining “2024-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi Qonuni ijrosini ta‘minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-422-sonli qarorning 7-ilovasiga muvofiq **37 ta** vazirlik va idoralarning 2024 - 2026-yillar uchun budjet mablag‘laridan foydalanish bilan bog‘liq maqsadli indikatorlari tasdiqlangan.

2024-yil uchun belgilangan **574 ta** maqsadli indikatorlar vazirlik va idoralarning **69,7 trln.so‘m** budget xarajatlarini **qamrab olgan bo‘lib**, bu davlat budjeti xarajatlarining **24,8 foizini** tashkil etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 21-dekabrda PF-208-son Farmoniga asosan, **Oila va xotin-qizlar qo‘mitasining bo‘ysunuvi Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligidan Vazirlar Mahkamasiga o‘tkazilgan.**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 20-yanvardagi PF-18-son Farmoniga asosan **Yoshlar ishlari agentligi** Yoshlar siyosati va sport vazirligi tizimidan **Vazirlar Mahkamasi bo‘ysunuviga o‘tkazilgan.** Shuningdek ushbu Farmonda **Yoshlar siyosati va sport vazirligi** negizida **Sport vazirligi tashkil etilgan.**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 27-fevraldagi PF-41-son Farmoniga asosan Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi huzuridagi **O‘zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi Vazirlar Mahkamasi bo‘ysunuviga o‘tkazilgan.**

Yuqorida keltirilgan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonlarini inobatga olib, budget xarajatlari va maqsadli indikatorlari ishlab chiqilgan vazirlik va idoralarning soni **40 tani** tashkil etadi.

Maqsadli indikatorlari tasdiqlangan **40 ta** vazirlik va idoralarning budget xarajatlari va rivojlantirish dasturlari uchun yillik aniqlangan reja **118 trln so‘m** bo‘lib, shundan hisobot davrida **59,4 trln so‘mi** yoki yillik aniqlangan rejaga nisbatan **50,3 foizi** o‘zlashtirilgan.

Tegishli vazirlik va idoralarning budget mablag‘laridan foydalanish bilan bog‘liq maqsadli indikatorlarining 2024-yil 6 oylik ijrosi to‘g‘risidagi hisoboti ular tomonidan taqdim etilgan hisobotlarga asosan shakllantirildi.

Vazirlik va idoralarning budget mablag‘laridan foydalanish bilan bog‘liq maqsadli indikatorlarining 2024-yil I yarim yillik ijrosi to‘g‘risidagi batafsil hisoboti **ilovada** keltirilgan jadvalga muvofiq taqdim etiladi.

Ma‘lumot uchun: O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 29-dekabrda “O‘zbekiston Respublikasining “2024-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi Qonuni ijrosini ta‘minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-422-sonli qarori bilan vazirliklar va idoralar rahbarlari budgetdan ajratilgan mablag‘larning maqsadli sarflanishi va maqsadli indikatorlarning to‘liq bajarilishi uchun shaxsan mas‘ul hisoblanishi belgilab o‘tilgan.

2024-yilning I yarim yilligi uchun O‘zbekiston Respublikasining respublika budjetidan birinchi darajali budjet mablag‘larini taqsimlovchilariga ajratiladigan budjet mablag‘larining ijrosi

mln so‘m

T/r	Ko‘rsatkichlar	Reja	Ijro	Foiz	Izoh
	Respublika budjetidan ajratiladigan mablag‘lar, jami	122 780 242,9	118 846 765,6	96,8	
	<i>shu jumladan:</i>				
	joriy xarajatlar	95 040 691,3	92 454 795,3	97,3	
	shundan:				
	rivojlantirish dasturlari uchun xarajatlar	16 677 715,3	16 248 736,9	97,4	
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	5 520 280,6	4 277 590,7	77,5	
	davlat maqsadli jamg‘armalariga transfertlar	13 310 124,3	13 239 639,7	99,5	
	O‘zbekiston Respublikasining respublika budjetidan Qoraqalpog‘iston Respublikasi budjetiga, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy budjetlariga ajratiladigan tartibga soluvchi transfertlar	8 763 027,0	8 729 900,0	99,6	
	qayta taqsimlanadigan mablag‘lar	146 119,7	144 839,8	99,1	
1.	O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi	26 094 991,3	25 158 466,8	96,4	
	<i>shu jumladan:</i>				
	joriy xarajatlar	24 448 847,0	24 136 057,5	98,7	
	shundan:				
	rivojlantirish dasturlari uchun xarajatlar	706 849,1	640 775,6	90,7	
	umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida darsliklarni yangilash bilan bog‘liq xarajatlar	346 015,5	317 149,3	91,7	Rejalashtirilgan mablag‘lar bo‘yicha chop etilishi ko‘zda tutilgan darsliklar maketini yaratishdagi kechikishlar sababli mablag‘larni o‘zlashtirish ishlarida kechikishlar yuzaga kelgan.
	Ta’lim sohasidagi islohotlarga ko‘maklashish jamg‘armasi mablag‘larini shakllantirish	110 000,0	105 000,0	95,5	O‘zlashtirilmagan mablag‘lar bo‘yicha so‘rovnomalarni tegishli g‘aznachilik bo‘linmasida ro‘yxatga olingan. Ushbu so‘rovnomalarni bo‘yicha bosqichma-bosqich mablag‘larni jamg‘armaga yo‘naltirish ko‘zda tutilgan.

T/r	Ko'rsatkichlar	Reja	Ijro	Foiz	Izoh
	Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri jamg'armasi mablag'larini shakllantirish	9 716,5	8 716,5	89,7	O'zlashtirilmagan mablag'lar bo'yicha so'rovnomalar tegishli g'aznachilik bo'linmasida ro'yxatga olingan. Ushbu so'rovnomalar bo'yicha bosqichma-bosqich mablag'larni jamg'armaga yo'naltirish ko'zda tutilgan.
	Xorazm viloyati Qo'shko'pir va Xonqa tumanidagi boshlang'ich sinf o'quvchilarini ta'lim planshetlari bilan ta'minlash uchun xarajatlar	10 536,0	9 080,4	86,2	Ta'lim planshetlari bilan ta'minlash uchun o'tkazilgan tender savdolari natijalariga ko'ra joriy yil 6 oy davomida 60,5 mlrd so'm miqdorida shartnomalar tuzilgan bo'lib, shartnoma shartlariga ko'ra 9,1 mlrd so'm (15 foiz) bunak to'lovlari sifatida o'tkazib berilgan. Qolgan mablag'lar mahsulotlar yetkazib berilgandan so'ng o'zlashtiriladi.
	Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi tizimidagi muassasalarni sport jihozlari bilan ta'minlash uchun xarajatlar	61 783,1	58 062,7	94,0	
	umumta'lim maktablarini milliy cholg'u asboblari bilan ta'minlash uchun xarajatlar	46 012,0	34 037,5	74,0	Milliy musiqa anjomlari xaridi uchun o'tkazilgan tender savdolari bo'yicha 46,0 mlrd so'm shartnomalar tuzilgan bo'lib, shartnoma shartlariga ko'ra to'lovlar amalga oshirilmoqda.
	maktablarda ma'nan eskirgan kompyuter sinflarini yangilash uchun xarajatlar	122 786,0	108 729,2	88,6	Joylardagi haqiqiy ehtiyojlardan kelib chiqqan holda, Maktabgacha va maktab ta'limi vazirining tegishli buyrug'i bilan kompyuter jamlanmalarining texnik parametrlari tasdiqlangan. Shu parametrlar asosida tender savdolari o'tkazilgan bo'lib, qoldiq mablag'larni yetkazib beruvchining schet fakturasiga asosan mablag' ajratilmoqda.
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	1 646 144,3	1 022 409,3	62,1	Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 14-martdagi 134-sonli qaroriga asosan O'zbekiston Respublikasining 2024-yilgi ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish dasturi doirasida amalga oshirilayotgan yangidan boshlanuvchi umumta'lim maktablari obyektlari bo'yicha buyurtmachi vazifasi yangidan tashkil etilgan "Infratuzilmani rivojlantirish injiniring kompaniyasi" DMga yuklatilgan. Bunda, qurilish materiallari buyurtmachi tomonidan markazlashgan tartibda yetkazib berish belgilangan. O'zlashtirilmagan mablag'lar qurilish materiallari xaridi uchun rejalashtirilgan mablag'lar bo'lib, bugungi kunda ya'ni iyul oyida mazkur mablag'lar o'zlashtirilishi ta'minlanmoqda.

T/r	Ko'rsatkichlar	Reja	Ijro	Foiz	Izoh
2.	O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi	2 384 589,1	2 238 951,1	93,9	
	<i>shu jumladan:</i>				
	joriy xarajatlar	1 972 450,5	1 877 603,3	95,2	Tizim tashkilotlari tomonidan tuzilgan shartnomalarga asosan oldindan to'lovlar amalga oshirilgan bo'lib, qolgan 70 foiz to'lovlar shartnomada keltirilgan ishlar to'liq yakuniga yetmaganligi sababli to'lab berilmagan. Hozirgi kunda tovar-moddiy zaxiralarni qabul qilish jarayoni amalga oshirilmoqda. Yetkazib berilgan hamda bajarilgan ishlar bo'yicha qabul qilish-topshirish dalolatnomalari tasdiqlanganidan so'ng qoldiq mablag'lar o'zlashtiriladi.
	<i>shundan:</i>				
	rivojlantirish dasturlari uchun xarajatlar	75 410,0	72 688,2	96,4	
	<i>shu jumladan qayta taqsimlanadigan mablag'lar:</i>				
	oliy ta'lim muassasalarining magistratura bosqichida o'qiyotgan barcha xotin-qizlarning kontrakt to'lovlarini qaytarish shartsiz qoplash uchun xarajatlar	0,4	0,0	0,0	
	davlat-xususiy sheriklik va davlat oliy ta'lim muassasalarining buyurtmalari asosida talabalar turar joylarni barpo etish bo'yicha loyihalar uchun subsidiyalar	69 820,5	67 324,9	96,4	
	davlat xususiy sheriklik asosida qurilgan talabalar turar joylarida yashaydigan talabalar uchun davlat sherigiga ajratiladigan subsidiyalar	5 589,1	5 363,4	96,0	
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	190 138,6	139 347,8	73,3	O'zbekiston milliy universiteti Jizzax filialining 1 000 o'rinli o'quv binosini qurish, Jizzax shahri hududida Inno innovatsion o'quv-ishlab chiqarish texnoparkini qurish, Samarqand davlat universitetining Intellektual tizimlar va kompyuter texnologiyalari fakulteti 1 000 o'rinli o'quv binosini qurish, Guliston davlat pedagogika institutining o'quv binosini qurish obyektlari ish fronti yetishmovchiligi sababli ishlar tasdiqlangan reja grafiklaridan ortda qolgan hamda rejalashtirilgan mablag'lar to'liq o'zlashtirilmagan.

T/r	Ko'rsatkichlar	Reja	Ijro	Foiz	Izoh
	Ilm-fanni moliyalashtirish va innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash jamg'armasiga transfertlar	222 000,0	222 000,0	100,0	
3.	O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi	1 857 145,9	1 704 516,1	91,8	
	<i>shu jumladan:</i>				
	joriy xarajatlar	1 528 361,0	1 396 036,1	91,3	
	shundan:				
	rivojlantirish dasturlari uchun xarajatlar	339 727,6	336 006,4	98,9	
	bolalarni emlash bilan bog'liq xarajatlar	215 584,2	214 399,7	99,5	
	onalar va bolalar salomatligini muhofaza qilish, aholining reproduktiv salomatligini yanada mustahkamlash uchun xarajatlar	2 970,0	2 926,2	98,5	
	bolalarni hamda tug'ish yoshidagi ayollarni, homilador ayollarni va bola emizikli onalarni profilaktik maxsus preparatlar bilan bepul ta'minlash uchun xarajatlar	8 154,0	8 154,0	100,0	
	onkologiya yordamini takomillashtirish va onkologiya xizmatini yanada rivojlantirish uchun xarajatlar	12 477,8	12 477,8	100,0	
	gematologiya va transfuziologiya xizmatlarini rivojlantirish hamda onkogematologik va davolanishi qiyin bo'lgan kasalliklarga chalingan shaxslarni yanada qo'llab-quvvatlash uchun xarajatlar	4 074,9	4 056,9	99,6	
	nefrologiya va gemodializ yordamini ko'rsatish uchun xarajatlar	9 274,1	9 274,1	100,0	
	endokrin kasalliklarning oldini olish, erta tashxislash va davolash chora-tadbirlarini moliyalashtirish uchun xarajatlar	882,5	622,5	70,5	Endokrin kasalliklarning oldini olish, erta tashxislash va davolash chora-tadbirlariga ta'minlash xarajatlari I yarim yillikda 882,5 mln so'm rejalashtirilgan shundan 622,5 mln so'm mablag' o'zlashtirilgan, farqi ikkinch yarim yillikda to'liq o'zlashtiriladi.
	ftiziatriya va pulmonologiya xizmatini yanada rivojlantirish uchun xarajatlar	74,4	74,3	99,9	

T/r	Ko'rsatkichlar	Reja	Ijro	Foiz	Izoh
	odamning immunitet tanqisligi virusi keltirib chiqaradigan kasalliklar tarqalishiga qarshi kurashish bilan bog'liq xarajatlar	12 629,3	12 628,5	100,0	
	2 500 ta okklyuderni xarid qilish uchun xarajatlar	6,6	6,6	100,0	
	aholining ruhiy salomatligini muhofaza qilish xizmatini rivojlantirish uchun xarajatlar	1 363,3	1 165,3	85,5	Joriy yilning 6 oyi uchun ushbu dasturga rejalashtirilgan mablag'larning 1,1 mlrd so'miga shartnoma tuzilib o'zlashtirildi. Qolgan mablag'lar tender savdolariga davom etmoqda.
	kam uchraydigan (orfan) va boshqa irsiy-genetik kasalliklarga chalingan bolalarga tibbiy va ijtimoiy yordam ko'rsatish uchun xarajatlar	849,8	780,0	91,8	
	neyrosensor karlik yoki zaif eshitadigan bolalarda koxlear implantatlardan foydalangan holda operatsiyalar o'tkazish uchun xarajatlar	35 355,0	34 375,6	97,2	
	otorinolaringologiya xizmatini rivojlantirish uchun xarajatlar	4 098,0	4 098,0	100,0	
	buyrak va jigar transplantatsiyasi bo'yicha jarrohlik amaliyoti o'tkazilgan bemorlarni dori vositalari bilan ta'minlash uchun xarajatlar	12 143,5	11 434,3	94,2	Joriy yilning 6 oyiga ushbu dasturga 12,1 mlrd so'm mablag' rejalashtirilgan shundan 12,1 mlrd so'mga shartnoma tuzilib 11,4 mlrd so'm o'zlashtirilgan. Qolgan 0,7 mlrd so'm mablag'ga tender savdolari iyul oyida tugatilishi sababli to'liq o'zlashtirilmagan.
	qon komponentlari zaxirasini yaratish maqsadida qon bilan ishlash xizmati muassasalarini zarur miqdordagi gemokonteynerlar bilan ta'minlash uchun xarajatlar	15 166,0	14 935,4	98,5	
	nogironligi bo'lgan shaxslarga ko'rsatilayotgan tibbiy-ijtimoiy xizmatlar sifatini yanada yaxshilash bo'yicha chora-tadbirlarni moliyalashtirish uchun xarajatlar	751,0	748,2	99,6	
	virusli gepatitning «S» va «V» turlarini erta tashxislash va virusga qarshi maxsus davolash ishlarini tashkil etish uchun xarajatlar	3 873,3	3 849,0	99,4	
	<i>shu jumladan qayta taqsimlanadigan mablag'lar:</i>				
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	133 004,8	113 056,7	85,0	Loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish va tender (tanlov) savdolarini o'tkazish uchun rejalashtirilgan mablag'lar

T/r	Ko'rsatkichlar	Reja	Ijro	Foiz	Izoh
					buyurtmachi tashkilotlari tomonidan o'z vaqtida ishlari to'g'ri tashkillashtirilmaganligi sababli o'zlashtirilmagan. Yildan-yilga o'tuvchi obyektlarning birlamchi hujjatlari va tasdiqlangan loyixa-smeta hujjatlarriga huquqni muhofaza organlarining talablariga asosan tegishli o'zgartirish kiritilishi evaziga o'zlashtirilmasdan qolgan. Yil yakuniga qadar mablag'lar to'liq o'zlashtirilishi ta'minlash bo'yicha tegishli tarzda choralar ko'riladi.
	Tibbiyotni rivojlantirish davlat maqsadli jamg'armasiga transfertlar	195 780,1	195 423,3	99,8	
4.	O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi	515 097,0	474 247,2	92,1	
	<i>shu jumladan:</i>				
	joriy xarajatlar	465 010,1	435 694,1	93,7	Tizim tashkilotlari tomonidan tuzilgan shartnomalarga asosan oldindan to'lovlar amalga oshirilgan bo'lib, qolgan 70 foiz to'lovlar shartnomada keltirilgan ishlar to'liq yakuniga yetmaganligi sababli to'lab berilmagan. Hozirgi kunda tovar-moddiy zaxiralarni qabul qilish jarayoni amalga oshirilmoqda. Yetkazib berilgan tovar-moddiy zaxiralar hamda bajarilgan ishlar bo'yicha qabul qilish-topshirish dalolatnomalari tasdiqlanganidan so'ng qoldiq mablag'lar o'zlashtirilib beriladi.
	<i>shundan:</i>				
	rivojlantirish dasturlari uchun xarajatlar	48 145,3	44 669,1	92,8	
	bolalar musiqa va san'at maktablarini, madaniyat markazlarini milliy cholg'u asboblari bilan ta'minlash uchun xarajatlar	1 745,3	1 669,2	95,6	
	davlat buyurtmasiga asosan milliy kino mahsulotlarini yaratish uchun xarajatlar	41 000,0	37 599,9	91,7	Davlat buyurtmasiga asosan milliy kino mahsulotlarini yaratish uchun I yarim yillikda 41.0 mlrd sum rejalashtirilgan mablag'lar bo'yicha shartnomalar to'liq tuzilib g'aznachilikdan ro'yxatdan o'tkazilgan, shundan 37,6 mlrd so'm mablag'lar moliyalashtirilgan. Shartnoma shartlariga ko'ra qolgan tulovlar ijrochi tomonidan buyurtmalar bo'yicha bajarilgan ishlar hajmiga hamda taqdim qilingan hisob faktura va dalolatnomalar asosida bosqichma-bosqich o'zlashtiriladi.

T/r	Ko'rsatkichlar	Reja	Ijro	Foiz	Izoh
	milliy seriallar ishlab chiqarishni qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish uchun respublika miqyosida faoliyat yurituvchi telekanallarga ajratiladigan subsidiyalar	5 400,0	5 400,0	100,0	
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	50 086,8	38 553,0	77,0	Qurilish-montaj ishlarini amalga oshirish bo'yicha shartnomalar rasmiylashtirilgan va avans mablag'lari o'zlashtirilgan. Pudrat tashkiloti tomonidan ishlar bajarilmaganligi sababli o'zlashtirish ishlarini amalga oshirilmagan.
5.	O'zbekiston Respublikasi Sport vazirligi	747 526,6	675 508,3	90,4	
	<i>shu jumladan:</i>				
	joriy xarajatlar	495 866,7	472 710,5	95,3	Tizim tashkilotlari tomonidan tuzilgan shartnomalarga asosan oldindan to'lovlar amalga oshirilgan bo'lib, qolgan 70 foiz to'lovlar shartnomada keltirilgan ishlar to'liq yakuniga yetmaganligi sababli to'lab berilmagan. Hozirgi kunda tovar-moddiy zaxiralarni qabul qilish jarayoni amalga oshirilmoqda. Yetkazib berilgan tovar-moddiy zaxiralar hamda bajarilgan ishlar bo'yicha qabul qilish-topshirish dalolatnomalari tasdiqlanganidan so'ng qoldiq mablag'lar ajratilib beriladi.
	shundan:				
	rivojlantirish dasturlari uchun xarajatlar	365 701,3	361 828,3	98,9	
	Olimpiya o'yinlariga samarali tayyorgarlik ko'rish uchun xarajatlar	155 000,0	155 000,0	100,0	
	Paralimpiya o'yinlariga samarali tayyorgarlik ko'rish uchun xarajatlar	24 000,0	24 000,0	100,0	
	sport va ommaviy jismoniy tarbiya tadbirlarining kalendar rejasiga kiritilgan tadbirlar uchun xarajatlar	108 739,8	105 634,7	97,1	
	«Besh tashabbus olimpiadasi» doirasida o'tkazilgan sport musobaqalarida g'olib bo'lgan hamda sport infratuzilmasi rivojlanmagan mahallalarda sport maydonchalarini barpo etish uchun xarajatlar	42 500,0	42 000,0	98,8	
	sport maktablari tibbiyot xonalarini zamonaviy asbob-uskunalar, dori-darmon va tiklanish	2 900,0	2 632,1	90,8	

T/r	Ko'rsatkichlar	Reja	Ijro	Foiz	Izoh
	vositalari bilan jihozlash, zamonaviy o'quv adabiyotini chop etish va xarid qilish, sport maktablari shug'ullanuvchilarini (terma jamoalarini) maxsus sport kiyimlari (ekipirovkalar) bilan ta'minlash uchun xarajatlar				
	«Besh tashabbus olimpiadasi» doirasidagi sport musobaqalarini tizimli tashkil etish va o'tkazish uchun xarajatlar	22 961,5	22 961,5	100,0	
	«Kurash» xalqaro assosiasiyasi faoliyatini qo'llab-quvvatlash uchun xarajatlar	9 600,0	9 600,0	100,0	
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	251 659,9	202 797,8	80,6	Buxoro mintaqaviy futbol akademiyasini qurish, Jizzax viloyatida Kurash mahorati sport maktabini qurish, Qashqadaryo viloyati futbol akademiyasini qurish, Toyloq Olimpiya va Paralimpiya sport turlariga tayyorlash markaziga 250 o'rinli yotoqxona, 250 o'rinli oshxona va 34x36 metr o'lchamdagi sport zal qurish, Surxondaryo viloyati futbol akademiyasining mavjud bino va inshootlarini rekonstruksiya qilish, Respublika Olimpiya va Paralimpiya sport turlariga tayyorlash markaziga 300 o'rinli yotoqxona qurish, Nukusda Kurash mahorati sport maktabini qurish obyektlarida tender (tanlov) savdolarini o'tkazish kechiktirilgani hamda ba'zi hududlarda ish fronti yetishmovchilishi yuzaga kelganligi sababli qurilish-montaj ishlari tasdiqlangan grafikdan ortda qolgan. Yil yakuniga qadar mablag'lar to'liq o'zlashtirilishi ta'minlanadi.
6.	O'zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligi	1 100 626,7	967 269,7	87,9	
	<i>shu jumladan:</i>				
	joriy xarajatlar	27 345,0	18 031,0	65,9	
	shundan:				
	rivojlantirish dasturlari uchun xarajatlar	5 909,6	5 463,9	92,5	
	shaharsozlik norma va qoidalarini ishlab chiqish uchun xarajatlar	5 909,6	5 463,9	92,5	
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	520 771,8	397 305,3	76,3	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11 sentyabrdagi PQ-299-sonli qarorining 14-bandi b-kichik bandi

T/r	Ko'rsatkichlar	Reja	Ijro	Foiz	Izoh
					va 1-ilovasi 2-bandida Qishloqlar (Ovullar) aholi punktlarining sxemalari Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, Xalq Deputatlari viloyat Kengashlarining qarorlari tasdiqlanishi belgilangan. O'zlashtirilmagan mablag'lar ishlab chiqilgan bosh rejalar viloyat Xalq deputatlari Kengashi qarorlari tasdiqlanishi kechikkanligi sababli to'liq moliyalashtirib berilmagan.
	<i>shundan:</i>				
	issiqlik ta'minoti obyektlarini qurish, rekonstruksiya qilish va modernizatsiyalash uchun xarajatlar	149 388,9	122 029,1	81,7	Buyurtmachi tashkilot tomonidan moliyalashtirishning reja-grafigi bo'yicha ishlar to'g'ri tashkillashtirilmaganligi sababli rejalashtirilgan mablag' to'liq o'zlashtirilmagan.
	bosh rejalar, hududlarning arxitektura-rejalashtirish loyihalarini va batafsil rejalashtirish loyihalarini ishlab chiqish uchun xarajatlar	152 503,8	134 320,4	88,1	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PQ-299-sonli qarorining 14-bandi b-kichik bandi va 1-ilovasi 2-bandida Qishloqlar (Ovullar) aholi punktlarining sxemalari Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, Xalq deputatlari viloyat Kengashlarining qarorlari tasdiqlanishi belgilangan. O'zlashtirilmagan mablag'lar ishlab chiqilgan bosh rejalar viloyat Xalq deputatlari Kengashi qarorlari tasdiqlanishi kechikkanligi sababli to'liq moliyalashtirib berilmagan.
	Suv ta'minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg'armasiga transfertlar	552 510,0	551 933,4	99,9	
7.	O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi	855 413,5	763 566,2	89,3	
	<i>shu jumladan:</i>				
	joriy xarajatlar	825 413,5	733 566,2	97,8	
	<i>shundan:</i>				
	rivojlantirish dasturlari uchun xarajatlar	397 238,6	388 315,6	97,8	
	qishloq xo'jaligida suv tejoychi texnologiyalarni joriy etish uchun subsidiyalar	24 221,0	23 841,0	98,4	
	qishloq xo'jaligi yerlarining normativ qiymatini aniqlash va qayta baholash, tuproq bonitirovkasi hamda tuproq xaritalarining korrektirovkasini o'tkazish, sug'oriladigan yerlarda tuproq agrokimyoviy tadqiqot ishlarini bajarish,	42 623,5	42 608,4	100,0	

T/r	Ko'rsatkichlar	Reja	Ijro	Foiz	Izoh
	agrokimyoviy kartogrammalar tuzish va tuproq (yerlar) monitoringini o'tkazish uchun xarajatlar				
	yaylov yerlarida shaxtali va tik quduqlar hamda nasos stansiyalarini qurish va rekonstruksiya qilishga sarflangan xarajatlarning bir qismini qoplash uchun subsidiyalar	240,0	0,0	0,0	
	qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchisi bo'lgan chorvachilik, parrandachilik va baliqchilik xo'jaliklari tomonidan yetishtirilib, sotilgan mahsulotlar uchun subsidiyalar	172 780,0	171 855,5	99,5	
	uy hayvonlarini emlash uchun xarajatlar	94 381,0	87 514,1	92,7	
	chorvachilik mahsulotlarini yetishtiruvchi xo'jaliklar tomonidan xorijiy davlatlardan import qilingan nasldor qoramol, qo'y va echki, ona baliq va jo'jalarni sotib olish uchun xarajatlarning bir qismini qoplab berish uchun subsidiyalar	18 808,0	18 725,2	99,6	
	chigirtka va zararkunandalarga qarshi kurashish hamda favqulodda vaziyatlarda hosilni saqlab qolishni ta'minlash bilan bog'liq xarajatlar	4 050,0	3 640,0	89,9	
	qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlarni xatlovdan o'tkazish uchun xarajatlar	16 626,0	16 623,1	100,0	
	respublika hududidagi gidrografik obyektlarni raqamlashtirish va elektron xaritalarini yaratish uchun xarajatlar	7 509,1	7 508,5	100,0	
	tut parvonasiga qarshi kurashish tadbirlari uchun xarajatlar	16 000,0	15 999,8	100,0	
	Bog'dorchilik va issiqxona xo'jaligini rivojlantirish jamg'armasiga transfertlar	30 000,0	30 000,0	100,0	
8.	O'zbekiston Respublikasi Suv xo'jaligi vazirligi	5 766 491,5	5 496 224,1	95,3	
	<i>shu jumladan:</i>				
	joriy xarajatlar	4 477 626,0	4 362 165,8	97,4	
	shundan:				
	rivojlantirish dasturlari uchun xarajatlar	3 742 604,6	3 696 459,3	98,8	
	paxta xom-ashyosini yetishtiruvchilar tomonidan tomchilatib va diskret sug'orish tizimini joriy etish	1 700,0	1 674,0	98,5	

T/r	Ko'rsatkichlar	Reja	Ijro	Foiz	Izoh
	bo'yicha xarajatlarning bir qismini qoplash uchun xarajatlar				
7	Bog'dorchilik va issiqxona xo'jaligini rivojlantirish jamg'armasi			
	Yil boshiga kutilayotgan qoldiq	46,8	21,4	
	Daromadlar prognozi	457,0	29,2	6,4%
	Davlat budjetidan transfertlar	150,0	30,0	20,0%
	Xarajatlar	613,7	59,5	9,7%
	Yil oxiriga kutilayotgan qoldiq	40,1	21,1	
8	Vinochilikni rivojlantirish jamg'armasi			
	Yil boshiga kutilayotgan qoldiq	103,5	141,2	
	Daromadlar prognozi	65,5	15,2	23,2%
	Davlat budjetidan transfertlar			
	Xarajatlar	138,5	25,0	18,1%
	Yil oxiriga kutilayotgan qoldiq	30,5	131,4	
9	Raqamli texnologiyalarni rivojlantirish jamg'armasi			
	Yil boshiga kutilayotgan qoldiq	180,9	214,2	
	Daromadlar prognozi	1 150,9	651,5	56,6%
	Davlat budjetidan transfertlar			

T/r	Ko'rsatkichlar	Reja (yillik)	Ijro 6 oylik	Bajarilishi
	Xarajatlar	1 150,9	607,3	52,8%
	Yil oxiriga kutilayotgan qoldiq	180,9	258,3	
10	Turizmni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi			
	Yil boshiga kutilayotgan qoldiq	12,3	15,7	
	Daromadlar prognozi	98,4	107,0	108,7%
	Davlat budjetidan transfertlar	187,0	25,0	13,4%
	Xarajatlar	281,6	122,1	43,4%
	Yil oxiriga kutilayotgan qoldiq	16,1	25,6	
11	Davlat qarzig'a xizmat ko'rsatish bo'yicha kafolat jamg'armasi			
	Yil boshiga kutilayotgan qoldiq	1 182,1	1 029,9	
	Daromadlar prognozi	518,5	484,0	93,3%
	Davlat budjetidan transfertlar			
	Xarajatlar	897,5	74,7	8,3%
	Yil oxiriga kutilayotgan qoldiq	803,1	1 439,1	
12	Oila va xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash davlat maqsadli jamg'armasi			
	Yil boshiga kutilayotgan qoldiq	122,9	205,1	
	Daromadlar prognozi	37,3	45,3	121,3%
	Davlat budjetidan transfertlar	50,0		
	Xarajatlar	204,0	82,4	40,4%
	Yil oxiriga kutilayotgan qoldiq	6,2	167,9	
13	Budjetdan tashqari Davlat aktivlarini boshqarish, transformatsiya va xususiyashtirish jamg'armasi			
	Yil boshiga kutilayotgan qoldiq	2 987,0	3 326,0	
	Daromadlar prognozi	11 803,0	1 292,3	10,9%
	Davlat budjetidan transfertlar			
	Xarajatlar	11 803,0	3 324,3	28,2%
	<i>shundan:</i>			
	<i>Davlat budjetiga transfertlar</i>	<i>10 300,0</i>	<i>2 644,8</i>	<i>25,7%</i>
	Yil oxiriga kutilayotgan qoldiq	2 987,0	1 294,0	
14	Davlat tibbiy sug'urtasi jamg'armasi			

T/r	Ko'rsatkichlar	Reja (yillik)	Ijro 6 oylik	Bajarilishi
	Yil boshiga kutilayotgan qoldiq	40,3	62,5	
	Daromadlar prognozi	4,0	2,5	62,6%
	Davlat budjetidan transfertlar	3 708,5	1 772,0	47,8%
	Xarajatlar	3 709,6	1 751,6	47,2%
	Yil oxiriga kutilayotgan qoldiq	43,2	85,4	
15	Ta'lim kreditini moliyalashtirish jamg'armasi			
	Yil boshiga kutilayotgan qoldiq	2 928,9	3 287,7	
	Daromadlar prognozi	244,5	152,2	62,2%
	Davlat budjetidan transfertlar	2 200,0	1 750,0	79,5%
	Xarajatlar	350,0	267,8	76,5%
	Yil oxiriga kutilayotgan qoldiq	5 023,4	4 922,0	
16	Avtomobil yo'llarini rivojlantirish maqsadli jamg'armasi			
	Yil boshiga kutilayotgan qoldiq	0,0	240,7	
	Daromadlar prognozi		23,8	
	Davlat budjetidan transfertlar	5 484,8	2 656,5	48,4%
	Xarajatlar	5 484,8	2 763,6	50,4%
	Yil oxiriga kutilayotgan qoldiq	0,0	157,4	
17	Suv ta'minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg'armasi			
	Yil boshiga kutilayotgan qoldiq	0,0	118,2	
	Daromadlar prognozi		1,1	
	Davlat budjetidan transfertlar	1 260,0	551,9	43,8%
	Xarajatlar	1 260,0	616,8	49,0%
	Yil oxiriga kutilayotgan qoldiq	0,0	54,5	
18	Ilm-fanni moliyalashtirish va innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi			
	Yil boshiga kutilayotgan qoldiq	48,8	128,5	
	Daromadlar prognozi	68,3	41,6	60,9%
	Davlat budjetidan transfertlar	800,0	222,0	27,8%
	Xarajatlar	916,7	239,3	26,1%
	Yil oxiriga kutilayotgan qoldiq	0,4	152,9	

T/r	Ko'rsatkichlar	Reja (yillik)	Ijro 6 oylik	Bajarilishi
19	Aholini tadbirkorlikka jalb qilish jamg'armasi			
	Yil boshiga kutilayotgan qoldiq	0,0	40,8	
	Daromadlar prognozi	135,6	63,1	46,6%
	Davlat budjetidan transfertlar	246,4	45,0	18,3%
	Xarajatlar	382,0	101,7	26,6%
	Yil oxiriga kutilayotgan qoldiq	0,0	47,3	
20	Hunarmandchilik va kasanachilikni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi			
	Yil boshiga kutilayotgan qoldiq	0,0	61,8	
	Daromadlar prognozi	30,0	0,0	
	Davlat budjetidan transfertlar	50,0		
	Xarajatlar	80,0	16,9	21,2%
	Yil oxiriga kutilayotgan qoldiq	0,0	44,9	
21	Ijtimoiy himoya davlat jamg'armasi			
	Yil boshiga kutilayotgan qoldiq	401,0	586,5	
	Daromadlar prognozi	3 422,0	919,6	26,9%
	Davlat budjetidan transfertlar			
	Xarajatlar	3 285,0	32,2	1,0%
	Yil oxiriga kutilayotgan qoldiq	538,0	1 474,0	
22	Tibbiyotni rivojlantirish jamg'armasi			
	Yil boshiga kutilayotgan qoldiq	9,3	49,8	
	Daromadlar prognozi	100,0	4,2	4,2%
	Davlat budjetidan transfertlar	530,0	195,4	36,9%
	Xarajatlar	530,0	245,1	46,2%
	Yil oxiriga kutilayotgan qoldiq	109,3	4,3	

1. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining 2024-yil boshiga qoldiq mablag'lari 3 037,3 mlrd so'mni tashkil etgan.

Joriy yilda jamg'arma daromadlari prognoz ko'rsatkichi **46 831,2 mlrd** so'm belgilangan bo'lib, hisobot davrida ijrosi **23 066,5 mlrd** so'm (49,3 foiz)ni tashkil etgan, shu jumladan:

- ijtimoiy soliq tushumlari **22 164,8 mlrd** so'm;

- boshqa tushumlar **901,7** mlrd so‘m.

Shu bilan birga, jamg‘armaga Davlat budjetidan **6 815,0** mlrd so‘m miqdorida **transfertlar** ajratilgan.

Joriy yilda jamg‘armaning **xarajatlari** rejasi **63 137,0** mlrd so‘mga rejalashtirilgan bo‘lib, hisobot davrida ijrosi **30 081,4** mlrd so‘m (*47,6 foiz*)ni tashkil etgan, **shu jumladan:**


- Fuqarolarga davlat pensiyalarining barcha turlari uchun to‘lovlar, shuningdek pensiya va nafaqalarni yetkazib berish xarajatlari uchun **30 079,7** mlrd so‘m;

- boshqa xarajatlar uchun **1,7** mlrd so‘m.

Jamg‘armaning hisobot davri yakuniga jami qoldiq mablag‘lari **2 837,3** mlrd so‘mni tashkil etdi.

52-rasm

Pensiya jamg'armasining yarim yillik ijrosi dinamikasi, *mlrd so'm*



Jamg‘arma faoliyati bilan bog‘liq bo‘lgan amalga oshirilgan ishlar va erishilgan natijalar

I. Pensiya jamg‘armasining umumiy ko‘rsatkichlari.

1.1. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi budjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasining 2024-yilning yanvar-iyun oylarida daromadlari prognoz ko‘rsatkichlari 23 066,5 mlrd so‘m yoki 101,5 foizga bajarildi, shundan, soliqlardan tashqari tushumlar miqdori 32,3 mlrd so‘mni tashkil etadi. Buning natijasida, 2024-yilning 1-iyul holatiga 2 837,3 mlrd so‘m yoki 17 kunlik to‘lov uchun yetarli erkin qoldiq mablag‘lari saqlanishiga erishildi.

1.2. Joriy yilning yanvar-iyun oylarida fuqarolarga davlat pensiyalarining barcha turlari uchun to'lovlar 30 081,4 mlrd so'mni tashkil etdi. Har oyda pensiya to'lovlari uchun talab etilgan mablag'lar belgilangan muddatlarda moliyalashtirilishi hamda to'lanishi ta'minlandi.

Pensiyalarning eng kam miqdorlarini minimal iste'mol xarajatlari miqdoriga yetkazish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 28-iyulda PF-24-son hamda 2024-yil 30-apreldagi PF-69-son Farmonlar tasdiqlandi. Buning natijasida 862 ming nafar fuqarolarning pensiya miqdorlari minimal iste'mol xarajatlari miqdoriga yetkazilib, ushbu maqsadlar uchun Pensiya jamg'armasi hisobidan jami 290 mlrd so'm ajratildi.

1.3. 2024-yilning yanvar-iyun oylarida Pensiya jamg'armasi tomonidan 145,6 ming nafar fuqaroga yangi pensiya tayinlandi. 2024-yil 1-iyul holatiga pensiya oluvchilarning umumiy soni 4 020,6 ming nafarga yetib, aholi sonidagi ulushi 10,8 %ni tashkil qildi.

1.4. 2024-yil iyun oyida pensiyalarning bir oylik o'rtacha miqdori 1 245,3 ming so'mni tashkil qilib, 2023-yil iyun oyiga nisbatan 99,3 ming so'mga yoki 8,6 foizga ko'paydi.

II. Tizimni avtomatlashtirish va aholiga ko'rsatilayotgan xizmatlar sifatini oshirish.

2.1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 31 oktyabrdagi "Aholiga pensiya tayinlash bo'yicha ko'rsatiladigan davlat xizmatlari sifatini yanada oshirishga qaratilgan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" PQ-353-son qaroriga asosan, 2024-yil 1-yanvardan boshlab fuqarolarga davlat pensiyalarini tayinlash uchun amaldagi tartibga qo'shimcha ravishda ularning xohishiga ko'ra Davlat xizmatlari markazlari yoki Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali ham murojaat qilish tizimi joriy etildi.

2.2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 31-yanvardagi "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim hujjatlariga o'zgartirishlar kiritish to'g'risida"gi PF-24-son farmoniga asosan 975 ming nafar pensiya va nafaqa oluvchilarning pensiya hamda nafaqa miqdorlari avtomatik tarzda eng kam iste'mol xarajatlari miqdoriga yetkazildi va SMS xabarnomalar yuborildi.

2.3. Pensiya jamg'armasi tomonidan 2024-yilning yanvar-iyun oylarida 323,5 ming nafar fuqarolarga interaktiv xizmatlar ko'rsatildi. Jumladan:

- 268,1 ming nafar fuqarolarga pensiya oluvchilar ro'yxatida mavjudligi va fuqarolarga to'langan Pensiya miqdorlari to'g'risida Davlat xizmatlari markazlari yoki Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali murojaat etish orqali elektron ma'lumotnomalar taqdim etildi;

- 27,7 ming nafar fuqarolarga davlat pensiyalarini tayinlash uchun Davlat xizmatlari markazlari yoki Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali murojaat etish orqali tayinlandi;

- 21,7 ming nafar fuqarolar tomonidan Pensiya jamg'armasi hududiy boshqarmalari va tuman (shahar) bo'limlarining manzil ma'lumotlari to'g'risidagi ma'lumotlarni Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalida mavjud xizmatdan foydalanilgan;

- 6,0 mingdan ortiq fuqarolar tomonidan pensiya va nafaqalarni vaqtincha to'xtatib turish uchun Pensiya jamg'armasiga tashrif buyurmasdan Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalida yoki Davlat xizmatlari markazlari orqali ariza berish orqali avtomatik tarzda to'xtatilgan.

III. Qonunchilik bazasini takomillashtirish va bu orqali fuqarolarga qulayliklar yaratish.

3.1. Mamlakatimizda pensiya oluvchilarni ijtimoiy ko'llab-quvvatlashni yanada kuchaytirish, qariyalar va keksa yoshdagilarga har tomonlama g'amxo'rlik qilish, fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti tizimini takomillashtirish va sohada mavjud muammolarni bartaraf etish, bu borada byurokratik to'siqlarni qisqartirish yuzasidan 2024-yilning yanvar – iyun oylarida 1 ta O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 2 ta O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 3 ta idoraviy normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi.

3.2. O'zbekiston Respublikasining 2024-yil 18-martdagi "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga fuqarolarning ijtimoiy himoyasini yanada kuchaytirishga qaratilgan o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi O'RQ-922-son Qonuniga muvofiq "Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritildi.

Kiritilgan o'zgartirishga muvofiq:

- mahkumlarni ozodlikdan mahrum qilingan davrlarida amalga oshirgan mehnat faoliyati davrlari pensiya olish huquqini beradigan faoliyat turi sifatida inobatga olinishi;

- pensiya miqdori rasman belgilangan eng kam iste'mol xarajatlaridan kam bo'lishi mumkin emasligi;

- pensionerga hisoblangan, lekin uning tomonidan o'z vaqtida olinmagan pensiyani oldingi 24 oydan oshmagan davr uchun to'lab berish;

- fuqaro yoki uning qonuniy vakili pensiya tayinlashni so'rab o'z tanloviga ko'ra Pensiya jamg'armasining tuman (shahar) bo'limi, davlat xizmatlari markazi yoki Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali murojaat qilishi mumkinligi;

pensiya miqdori yil davomida tovarlar va xizmatlarning iste'mol narxlari indeksi (inflatsiya) darajasining o'sish sur'atlarini hisobga olgan holda, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining hujjatlariga asosan indeksatsiya qilinishi (oshirilishi) belgilandi.

3.3. O'zbekiston Respublikasi Hukumatning qarori va Iqtisodiyot va moliya vazirligining 1 ta idoraviy me'yoriy hujjatlari tizimlashtirilib yaxlitlanishi natijasida 2 ta me'yoriy huquqiy hujjat bekor qilindi, 2 ta idoraviy me'yoriy-huquqiy hujjatlarga yuqori me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan qoidalarga muvofiq lashtirish maqsadida o'zgartirish va qo'shimchalar kiritildi.

3.4. Shuningdek, o'tgan 6 oy davomida 4 ta me'yoriy-huquqiy hujjat loyihalari, jumladan 1 ta O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 2 ta O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari loyihalari ishlab chiqildi. Bundan tashqari Pensiya jamg'armasi Kuzatuv kengashi qarori loyihasi ishlab chiqilib, kengash a'zolari bilan kelishildi va imzolash uchun kengash raisi tomonidan imzolash choralari ko'rilmoqda.

IV. Pensioner va kam ta'minlangan aholi qatlamini qo'llab-quvvatlash hamda ijtimoiy to'lov miqdorlarini oshirish.

4.1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 31-yanvardagi "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim hujjatlariga o'zgartirishlar kiritish to'g'risida"gi PF-24-son Farmoni qabul qilindi.

Farmon bilan 862 ming nafar fuqarolarning pensiya miqdorlari rasman belgilangan eng kam iste'mol xarajatlaridan oz bo'lmasligi ta'minlandi.

V. Fuqarolarning murojaatlari va ommaviy-axborot vositalari bilan ishlash.

5.1. 2024-yilning yanvar-iyun oylarida 7 198 nafar jismoniy va yuridik shaxslardan kelgan ariza, shikoyat va takliflar o'rnatilgan tartibda ko'rib chiqilishi ta'minlandi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti virtual qabulxonasi orqali kelgan 5 446 nafar, Bosh Prokuratura "Ishonch telefoni", Jamg'arma "Ishonch telefoni" va boshqa manbalar orqali kelib tushgan 1 752 nafar fuqaroning murojaatlari o'rnatilgan tartibda ko'rib chiqildi hamda joyiga chiqib o'rganilgan holda ijrosi ta'minlandi.

5.2. Jamg'armaning hududiy boshqarmalari va tuman (shahar) bo'limlari tomonidan qishloq va mahalla fuqarolar yig'inlarida pensiya ta'minotiga oid masalalar yuzasidan fuqarolar bilan 5 035 marotaba sayyor uchrashuvlar o'tkazilib (shundan, ijro etuvchi apparat tomonidan 21 marotaba), amalga oshirilgan islohotlar yuzasidan huquqiy tushuntirishlar berildi hamda amaliy yordamlar ko'rsatildi.

5.3. Jamg'arma hamda uning hududiy boshqarma va tuman (shahar) bo'limlari tomonidan ommaviy axborot vositalarida jami 7 147 marotaba targ'ibot-tashviqot ishlari amalga oshirildi (shundan, Jamg'arma saytiga 78 ta, televideniye 173 ta, gazeta-jurnallarda 296 ta va radioda 122 marotaba).

5.4. Shuningdek, Jamg'armaning "Telegram", "Facebook" va "Instagram" ijtimoiy tarmoqlaridagi sahifalariga jami 6 478 marta yangiliklar, maqolalar va boshqa ma'lumotlar joylashtirildi.

2024-yil iyun oyi yakunida obunachilar soni "Telegram"da – 84 mingdan, "Instagram"da – 9,6 ming, "Facebook"da – 5 ming, "Youtube"da – 12,6 ming nafardan ortdi.

5.5. Ko'rilgan choralar natijasida murojaatlar soni 2023-yilning yanvar-iyun oylariga (46 782 ta) nisbatan, 2024-yilning mos davrida (7 198 ta) 39 584 taga yoki 84,6 % ga kamaytirishga erishildi.

VI. Pensiya jamg'armasi moliyaviy faoliyati va mablag'larini maqsadli sarflanishi ustidan nazorat.

6.1. 2024-yilning yanvar-iyun oylarida Pensiya jamg'armasining 6 850,0 trln so'm miqdoridagi vaqtincha bo'sh bo'lgan mablag'larini tijorat banklarining qisqa muddatli depozitlariga joylashtirilishi natijasida 31,5 mlrd so'm hamda Rivojlantirish jamg'armasidagi 90,0 mlrd so'm qoldiq mablag'larini tijorat banklarining depozitlariga joylashtirilishi natijasida 7,5 mlrd so'm qo'shimcha daromad olindi.

6.2. Jamg'armaning Ichki audit xizmati tomonidan 2024-yilning yanvar-iyun oylari davomida amalga oshirilgan nazorat tadbirlarida hududlarda moliya-xo'jalik faoliyati, budjet, smeta-shtat intizomiga rioya qilinishi hamda fuqarolarga pensiyalar tayinlanishi va to'lanishi bo'yicha 1 909 ta holatda 4 134,1 mln so'mlik xato va kamchiliklar aniqlanib, hujjatlar huquqni muhofaza qilish idoralariga taqdim etildi.

6.3. Hisob palatasi tomonidan Pensiya jamg'armasining 2023-yil moliyaviy faoliyati o'rganilib, hisobotlarda kamchiliklar aniqlanmadi.

2. Bandlikka ko'maklashish davlat maqsadli jamg'armasining 2024-yil boshiga jami qoldiq mablag'lari 12,6 mlrd so'mni tashkil etgan.

Joriy yilda jamg'arma **daromadlari** prognoz ko'rsatkichi **187,1 mlrd so'm** belgilangan bo'lib, hisobot davrida ijrosi **96,0 mlrd so'm (51,3 foiz)**ni tashkil etgan, **shu jumladan:**

- Ijtimoiy soliq tushumlari **60,6 mlrd so'm**;
- boshqa daromadlar **35,4 mlrd so'mni** tashkil etgan.

Shu bilan birga, hisobot davrida Davlat budjetidan ajratilgan **transfertlar** miqdori **121,0 mlrd so'm** tashkil etadi.

Joriy yilda jamg'armaning **xarajatlari** rejasi **465,9 mlrd** so'mga rejalashtirilgan bo'lib, hisobot davrida ijrosi **201,4 mlrd** so'm (*43,2 foiz*)ni tashkil etgan, **shu jumladan:**

- aholi bandligiga ko'maklashish markazlarida ish qidirayotgan va ishsiz maqomiga ega shaxs sifatida ro'yxatdan o'tgan shaxslarni kasbga tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish uchun **126,3 mlrd** so'm;

- ishsizlarga muddatidan oldin pensiyalar tayinlanishi munosabati bilan Pensiya jamg'armasining xarajatlarini qoplash uchun **8,2 mlrd** so'm;

- ishsizlik bo'yicha nafaqalar, ishsizlarga kompensatsiyalar, stipendiyalar, moddiy yordam va boshqa to'lovlarni to'lash uchun **30,2 mlrd** so'm;

- bandlikka ko'maklashish markazlari, vaqtinchalik bir martalik ish bilan ta'minlash markazlari, ishsiz va band bo'lmagan aholini kasb-hunarga o'qitish mintaqaviy markazlari, ishsizlarni kasbga tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish o'quv markazlarining ayrim bo'linmalarini moddiy-texnik ta'minlash va saqlab turish uchun **11,3 mlrd** so'm;

- ishga joylashtirish, aholi bandligini ta'minlash va mehnatni muhofaza qilish, vakansiyalar hamda band bo'lmagan aholini hisobga olish sohasida axborot-kompyuter tizimlari va texnologiyalarini yaratish, rivojlantirish va texnik qo'llab-quvvatlash, shu jumladan dasturiy ta'minot ishlab chiqish va texnik vositalarni xarid qilish uchun **3,1 mlrd** so'm;

- subsidiyalar to'lash uchun **6,4 mlrd** so'm;

- boshqa xarajatlar uchun **15,9 mlrd** so'm miqdoridagi xarajatlar amalga oshirilgan.

Bandlikka ko'maklashish davlat maqsadli jamg'armasining hisobot davri yakuniga jami qoldiq mablag'lari **28,2 mlrd** so'mni tashkil etdi.

3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Jismoniy va yuridik shaxslarga yetkazilgan mulkiy zararlarni kompensatsiya qilish bo'yicha respublika maqsadli jamg'armasiga hisobot davrida Davlat budjetidan **256,1 mlrd** so'm miqdorida transfertlar ajratilgan.

Joriy yil hisobot davrida davlat va jamiyat ehtiyojlari uchun yer uchastkalarining olib qo'yilishi munosabati bilan mulkdorlarga yetkazilgan zararlarni qoplash uchun O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining tegishli qaror va farmoyishlariga asosan jamg'armadan **256,1 mlrd** so'm miqdoridagi mablag'lar kompensatsiya to'lovlarini amalga oshirish uchun hududiy kompensatsiya jamg'armalariga o'tkazib berilgan, jumladan:

- Toshkent shahar hududiy kompensatsiya jamg'armasiga **182,1 mlrd** so'm;

– Namangan viloyati hududiy kompensatsiya jamg‘armasiga **12,8 mlrd so‘m**;

– Jizzax viloyati hududiy kompensatsiya jamg‘armasiga **11,4 mlrd so‘m**;

– Samarqand viloyati hududiy kompensatsiya jamg‘armasiga **4,8 mlrd so‘m**;

– Toshkent viloyati hududiy kompensatsiya jamg‘armasiga **25,0 mlrd so‘m**;

– Xorazm viloyati hududiy kompensatsiya jamg‘armasiga **20,0 mlrd so‘m**.

4. Mutaxassislarni xorijda tayyorlash va vatandoshlar bilan muloqot qilish bo‘yicha “El-yurt umidi” jamg‘armasining 2024-yil boshiga qoldiq mablag‘lari **48,1 mlrd so‘mni tashkil etib, hisobot davrida jamg‘armaga jami **146,6 mlrd so‘m** miqdorida mablag‘lar kelib tushgan, shundan Davlat budjetidan ajratilgan transfertlar **130,8 mlrd so‘m**ni va boshqa daromadlar **15,8 mlrd so‘m**ni tashkil etgan.**

2024-yilda jamg‘armaning xarajatlari rejasi **605,8 mlrd so‘m**ga rejalashtirilgan bo‘lib, hisobot davrida ijrosi **131,9 mlrd so‘m (21,8 foiz)**ni tashkil etgan, **shu jumladan:**

- jamg‘arma stipendiatlarini xorijiy nufuzli ta‘lim muassasalarda ta‘lim olishini va stajirovkadan o‘tishini tashkil etish uchun **121,9 mlrd so‘m**;

- jamg‘armani saqlash bilan bog‘liq xarajatlar **1,6 mlrd so‘m**;

- boshqa xarajatlar **8,5 mlrd so‘m**ni tashkil etadi.

Jamg‘armaning hisobot davri yakuniga jami qoldiq mablag‘lari **62,7 mlrd so‘m**ni tashkil etdi.

Jamg‘arma tomonidan joriy yilning I yarim yilligida amalga oshirilgan ishlar va erishilgan natijalar

Xorijda ta‘lim olib qaytgan stipendiatlarning mehnat faoliyati monitoringini o‘tkazish, taklif va tashabbuslarini o‘rganish, kasbiy o‘sishi hamda munosib lavozimlarga tavsiya etish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining davlat maslahatchilari rahbarligida vazirliklar rahbarlari ishtirokida suhbatlar o‘tkazilib, natijalari yuzasidan har chorakda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasiga axborot kiritib borish tizimi yaratildi.

Shuningdek, vazirlik va idoralarning birinchi rahbarlari tomonidan o‘zlariga biriktirilgan Jamg‘arma stipendiatlari bilan uchrashuvlar o‘tkazilib, ularni qo‘shimcha qo‘llab-quvvatlash tizimi yaratildi.

Bugungi kunda Jamg‘arma tomonidan 120 dan ortiq xorijiy universitet va tashkilotlar bilan ikki tomonlama memorandumlar imzolashga erishilgan. Xususan, Buyuk Britaniyaning University of York, University of Reading, University of Birmingham, University of Glasgow, “Kaplan International Pathways”, AQShning University of Minnesota, Colorado State University, Avstraliyaning University of

Sydney, Ispaniyaning “SEPIE”, Malayziyaning “EMGS” kabi 20 dan ortiq nufuzli tashkilotlar bilan ikki tomonlama memorandumlar imzolanib, stipendiatlarni o‘qish xarajatlaridan 10 foizdan 50 foizgacha chegirmalar olishga erishildi.

Bundan tashqari, University of Oxford, Université Paris-Saclay, Universiti Sains Malaysia (USM), University Of Southern California, Cardiff University, Sejong University, University of Nagoya, University College London, Ghent University, Macquarie University kabi nufuzli universitetlari bilan memorandum loyihalari ishlab chiqilgan bo‘lib, bugungi kunda imzolanish jarayonida.

2024-yil yanvar oyi davomida 2023-yilgi 2-ochiq stipendiya tanlovi g‘oliblarini (119 *nafar*) xorijga jo‘nab ketishlari bilan bog‘liq hujjatlari rasmiylashtirilib, ulardan 62 *nafari* xorijda ta‘lim olishini boshlashi tashkillashtirildi. Shu o‘rinda, 57 *nafar* stipendiatlar bugungi kunda kuzgi semestrda o‘qishini boshlashiga tayyorgarlik ishlari olib borildi.

Joriy yilning fevral oyida O‘zbekistonda mehnat faoliyatini olib borayotgan hamda xorijda ta‘lim olayotgan Jamg‘arma stipendiatlari orasidan 1 *nafar Prezident* va 2 *nafar vitse-prezidentlari* Amerika Qo‘shma Shtatlari va Kanada, Buyuk Britaniya/Avstraliya, MDH davlatlari, Yevropa davlatlari, Osiyo davlatlari kesimida saylandi.

Ushbu tashabbusdan ko‘zlangan asosiy maqsad stipendiatlarning mehnat faoliyati va o‘qishi davomida duch kelayotgan muammolari va takliflarini yaqindan o‘rganish, stipendiatlar orasida “*networking*” aloqalarini yanada kuchaytirish hamda stipendiatlar va Jamg‘arma o‘rtasida muloqot ko‘prigini yo‘lga qo‘yish hisoblanadi.

5. Xorijda mehnat faoliyatini amalga oshiruvchi shaxslarni qo‘llab-quvvatlash hamda ularning huquq va manfaatlarini himoya qilish jamg‘armasining 2024-yil boshiga qoldiq mablag‘lari **166,7 mlrd** so‘mni tashkil etgan.

Joriy yilda jamg‘arma **daromadlari** prognoz ko‘rsatkichi **75,0 mlrd** so‘m belgilangan bo‘lib, hisobot davrida ijrosi **54,1 mlrd** so‘m (*72,1 foiz*)ni tashkil etgan, **jumladan:**

- litsenziya bitimi doirasida O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarini mehnat faoliyatini amalga oshirish uchun xorijga yuboruvchi tashkilotlarning mablag‘larini zaxiralash hisobidan tushumlar **8,7 mlrd** so‘m;

- ruxsatnoma (ish beruvchiga xorijdan ishchi kuchini jalb qilish huquqini beradigan hujjat) va tasdiqnoma (chet el fuqarosiga mehnat faoliyatini amalga oshirish huquqini beradigan hujjat) berilganligi uchun yig‘imlardan tushumlar **30,5 mlrd** so‘m;

- boshqa daromadlar **14,8 mlrd** so‘m.

Joriy yilda jamg'armaning **xarajatlari** rejasi **102,0 mlrd** so'mga rejalashtirilgan bo'lib, hisobot davrida ijrosi **40,0 mlrd** so'm (*39,2 foiz*)ni tashkil etgan, **shu jumladan:**

- Xorijda mehnat faoliyatini amalga oshirish davrida mehnat va boshqa huquqlari buzilgan, murakkab moliyaviy ahvolga tushib qolgan fuqarolarni huquqiy va ijtimoiy himoya qilish hamda ularga moddiy yordam ko'rsatish uchun **0,3 mlrd** so'm;

- mehnat faoliyatini amalga oshirish uchun xorijga ketayotgan fuqarolarni ketish oldidan moslashtirish, kasbga tayyorlash, ularning kasbiy malakasini tasdiqlash markazlarini respublika hududlarida tashkil etish va jihozlash uchun **3,0 mlrd** so'm;

- tashqi mehnat migratsiyasi agentligining xorijiy vakolatxonalarini tashkil etish, jihozlash va saqlab turish uchun **15,5 mlrd** so'm;

- Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligining mehnatni rag'batlantirish jamg'armasiga ajratmalar uchun **9,5 mlrd** so'm;

- Jamg'armaning Ijro etuvchi direksiyasini saqlash bilan bog'liq xarajatlar uchun **0,6 mlrd** so'm;

- boshqa xarajatlar uchun **11,0 mlrd** so'm.

Jamg'armaning hisobot davri yakuniga jami qoldiq mablag'lari **180,8 mlrd** so'mni tashkil etdi.

6. Jamoat ishlari jamg'armasining 2024-yil boshiga qoldiq mablag'lari **46,1 mlrd** so'mni tashkil etgan.

Joriy yilda jamg'arma **daromadlari** prognoz ko'rsatkichi **5,0 mlrd** so'm belgilangan bo'lib, hisobot davrida ijrosi **10,1 mlrd** so'm (*202,7 foiz*)ni tashkil etgan, **shu jumladan:**

- asosiy vositalar, mini-uskunalar va inventarlar ijarasidan tushumlar **3,9 mlrd** so'm;

- boshqa daromadlar **6,2 mlrd** so'm.

Shu bilan birga, jamg'armaga joriy yilda Davlat budjetidan **79,0 mlrd** so'm miqdorida **transfertlar** ajratilgan.

Joriy yilda jamg'armaning **xarajatlari** rejasi **215,9 mlrd** so'mga rejalashtirilgan bo'lib, ijrosi **82,4 mlrd** so'm (*38,2 foiz*)ni tashkil etgan, **shu jumladan:**

- jamoat ishlariga jalb etilgan ishsizlar va band bo'lmagan shaxslarning mehnat haqiga to'lovlar uchun **60,3 mlrd** so'm;

- jamoat ishlarida, shu jumladan ijara asosida berish yo‘li bilan foydalanish uchun mo‘ljallangan asosiy vositalar, mini-uskunalar va inventarlarni xarid qilish uchun **7,6 mlrd so‘m**;

- jamoat ishlarini bajarish uchun maxsus kiyimlar va xavfsizlik texnikasi vositalarini xarid qilish uchun **2,5 mlrd so‘m**;

- jamg‘armani saqlash bilan bog‘liq xarajatlar uchun **2,4 mlrd so‘m**;

- boshqa xarajatlar uchun **9,6 mlrd so‘m**.

Jamg‘armaning hisobot davri yakuniga jami qoldiq mablag‘lari **52,9 mlrd so‘m**ni tashkil etdi.

7. Davlat aktivlarini boshqarish, transformatsiya va xususiyashtirish jamg‘armasining 2024-yil boshiga qoldiq mablag‘lari 3 326,0 mlrd so‘mni tashkil etgan.

Joriy yilda jamg‘arma **daromadlari** prognoz ko‘rsatkichi **11 803,0 mlrd so‘m** belgilangan bo‘lib, hisobot davrida ijrosi **1 292,3 mlrd so‘m (10,9 foiz)**ni tashkil etgan, **shu jumladan:**

- davlat aktivlarini (korxonalar, xo‘jalik jamiyatlarining ustav fondlaridagi aksiyalar, yer uchastkalariga bo‘lgan huquq va davlat mulki hisoblanadigan boshqa mol-mulklarni) sotishdan tushgan mablag‘lar **1 285,8 mlrd so‘m**;

- boshqa daromadlar **6,6 mlrd so‘m**;

Joriy yilda jamg‘armaning **xarajatlari** rejasi **11 803,0 mlrd so‘m**ga rejalashtirilgan bo‘lib, ijrosi **3 324,3 mlrd so‘m (28,2 foiz)**ni tashkil etgan, **shu jumladan:**

- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining va Vazirlar Mahkamasining qarorlariga asosan bir yo‘la to‘lovlar uchun **545,9 mlrd so‘m**;

- Jamg‘arma tasarrufida qoladigan mablag‘lar **76,5 mlrd so‘m**;

- boshqa xarajatar **57,1 mlrd so‘m**.

Shu bilan birga, jamg‘armadan joriy yilda Davlat budjetiga **2 644,8 mlrd so‘m** miqdorida **transfertlar** o‘tkazilgan, jumladan:

- O‘zbekiston Respublikasining respublika budjetiga **2 443,7 mlrd so‘m**;

- Qoraqalpog‘iston Respublikasining respublika budjetiga, viloyatlar va Toshkent shahrining mahalliy budjetlariga **201,1 mlrd so‘m**;

Jamg‘armaning hisobot davri yakuniga jami qoldiq mablag‘lari **1 294,0 mlrd so‘m**ni tashkil etdi.

8. Oila va xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash davlat maqsadli jamg‘armasining 2024-yil boshiga qoldiq mablag‘lari 205,1 mlrd so‘mni tashkil etgan.

Joriy yilda jamg'arma **daromadlari** prognoz ko'rsatkichi **37,3 mlrd** so'm belgilangan bo'lib, hisobot davrida ijrosi **45,3 mlrd** so'm (*121,3 foiz*)ni tashkil etgan, **shu jumladan:**

- tijorat banklariga imtiyozli asosda kreditlar ajratish uchun berilgan resurslarning qaytishi va hisoblangan foizdan kelib tushadigan va boshqa daromadlar **45,0 mlrd** so'm;

- boshqa daromadlar **0,3 mlrd** so'm.

Joriy yilda jamg'armaning **xarajatlari** rejasi **204,0 mlrd** so'mga rejalashtirilgan bo'lib, ijrosi **82,4 mlrd** so'm (*40,4 foiz*)ni tashkil etgan, **shu jumladan:**

- og'ir ijtimoiy vaziyatga tushib qolgan, shu jumladan nogironligi bo'lgan, kam ta'minlangan xotin-qizlarni moddiy qo'llab-quvvatlash uchun **5,0 mlrd** so'm;

- yosh qizlarni oilaviy hayotga tayyorlash, an'anaviy oilaviy qadriyatlarni mustahkamlash bo'yicha maqsadli ishlar olib borilishiga ko'maklashish uchun **1,2 mlrd** so'm;

- xotin-qizlarni kasbga o'rgatish va bandligini ta'minlashga ko'maklashadigan hamda ularning muammolari bilan shug'ullanadigan nodavlat notijorat tashkilotlarga grant mablag'larini ajratish uchun **0,7 mlrd** so'm;

- Respublika xotin-qizlar jamoatchilik kengashi tomonidan xotin-qizlar masalalari bo'yicha o'tkaziladigan xalqaro tadbirlarni tashkil etish va O'zbekiston delegatsiyasining xalqaro tadbirlarda ishtirok etishi bilan bog'liq xarajatlarini qoplashga ko'maklashish uchun **3,0 mlrd** so'm;

- Respublika xotin-qizlar tadbirkorlik markazi, uning hududiy bo'linma (filial)larini saqlash bilan bog'liq xarajatlarni qoplash, faoliyatini moliyaviy qo'llab-quvvatlash, ularda tashkil etilgan o'quv kurslarining mutaxassislariga soatbay haq to'lash uchun **20,0 mlrd** so'm;

- Jamg'armaning Ijro etuvchi direksiyasini saqlash bilan bog'liq xarajatlar uchun **2,5 mlrd** so'm;

- xotin-qizlarga oilaviy va xususiy tadbirkorlikni, hunarmandchilikni tashkil etishda hamda shunday faoliyat uchun imtiyozli kreditlar ajratish uchun resurslar ajratish uchun **50,0 mlrd** so'm.

Jamg'armaning hisobot davri yakuniga jami qoldiq mablag'lari **167,9 mlrd** so'mni tashkil etdi.

9. Raqamli texnologiyalarni rivojlantirish jamg'armasining 2024-yil boshiga qoldiq mablag'lari **214,2 mlrd** so'mni tashkil etgan.

Joriy yilda jamg'arma **daromadlari** prognoz ko'rsatkichi **1 150,9 mlrd** so'm belgilangan bo'lib, hisobot davrida ijrosi **651,5 mlrd** so'm (*56,6 foiz*)ni tashkil etgan, **shu jumladan:**

- abonent raqamidan foydalanganlik uchun to'lovdan tushumlar **505,0** mlrd so'm;

- telekommunikatsiyalar sohasidagi faoliyatni amalga oshirish huquqi uchun litsenziya berilganligi uchun davlat bojidan tushumlar **5,1** mlrd so'm;

- boshqa daromadlar **141,4** mlrd so'm;

Joriy yilda jamg'armaning **xarajatlari** rejasi **1 150,9 mlrd** so'mga rejalashtirilgan bo'lib, ijrosi **607,3 mlrd** so'm (*52,8 foiz*)ni tashkil etgan, **shu jumladan:**

- O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasi qarorlarida belgilangan axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirishga oid vazifalarni hamda loyihalarni amalga oshirish, axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini takomillashtirish hamda rivojlantirish bo'yicha ustuvor loyihalarni ishlab chiqish, amalga oshirish va kuzatib borish, elektron hukumat va raqamli iqtisodiyot tizimlarini shakllantirish, rivojlantirish bo'yicha loyihalarni ishlab chiqish, amalga oshirish va kuzatib borish uchun **71,8** mlrd so'm;

- Muhammad al-Xorazmiy nomidagi axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yo'nalishiga oid fanlarni chuqurlashtirib o'qitishga ixtisoslashtirilgan maktabni ta'mirlash, rekonstruksiya qilish va jihozlash, uning o'qituvchilari va xodimlarini qo'shimcha rag'batlantirish uchun xarajatlar uchun **4,0** mlrd so'm;

- Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti huzuridagi Ilmiy-innovatsion rivojlantirish jamg'armasiga ajratmalar uchun **1,7** mlrd so'm;

- O'zbekiston Milliy kutubxonasi — axborot-resurs markazi huzuridagi budjetdan tashqari Axborot-kutubxona muassasalarini rivojlantirish jamg'armasiga ajratmalar uchun **3,6** mlrd so'm;

- «Kiberxavfsizlik markazi» DUK faoliyatini moliyalashtirish uchun **32,3** mlrd so'm;

- Raqamli texnologiyalar rivojlantirish vazirligi, uning hududiy boshqarmalari va tizim tashkilotlarini saqlash bilan bog'liq xarajatlar uchun **316,0** mlrd so'm;

- Axborot texnologiyalari sohasida ta'lim tizimini yanada takomillashtirish hamda ta'lim yo'nalishidagi dasturiy mahsulotlarni ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish bilan bog'liq xarajatlar uchun **46,6** mlrd so'm;

- boshqa xarajatlar uchun **131,4** mlrd so‘m.

Jamg‘armaning hisobot davri yakuniga jami qoldiq mablag‘lari **258,3** mlrd so‘mni tashkil etdi.

10. Turizmni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasining 2024-yil boshiga qoldiq mablag‘lari **15,7** mlrd so‘mni tashkil etgan.

Joriy yilda jamg‘arma **daromadlari** prognoz ko‘rsatkichi **98,4** mlrd so‘m belgilangan bo‘lib, hisobot davrida ijrosi **107,0** mlrd so‘m (*108,7 foiz*)ni tashkil etgan, **jumladan:**

- Joylashtirish vositalaridan undiriladigan turistik (mehmonxona) yig‘imdan tushumlar **95,3** mlrd so‘m;

- boshqa daromadlar **11,6** mlrd so‘m;

Shu bilan birga, jamg‘armaga joriy yilda Davlat budjetidan **25,0** mlrd so‘m miqdorida **transfertlar** ajratilgan.

Joriy yilda jamg‘armaning **xarajatlari** rejasi **281,6** mlrd so‘mga rejalashtirilgan bo‘lib, hisobot davrida ijrosi **122,1** mlrd so‘m (*43,4 foiz*)ni tashkil etgan, **jumladan:**

- turizm sohasidagi maqsadli dasturlarni moliyalashtirish uchun **32,4** mlrd so‘m;

- xorijiy turizm bozorlarida mamlakat turizm salohiyatini targ‘ib qilish xarajatlari uchun **31,1** mlrd so‘m;

- Turizm qo‘mitasi, shu jumladan uning hududiy bo‘linmalari va tizim tashkilotlarini saqlash bilan bog‘liq xarajatlar uchun **46,0** mlrd so‘m;

- turistik (mehmonxona) yig‘imdan kelib tushadigan mablag‘lar hisobidan O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi huzuridagi Xavfsiz turizmni ta‘minlash jamg‘armasiga o‘tkaziladigan mablag‘lar **3,3** mlrd so‘m;

- boshqa xarajatlar uchun **9,3** mlrd so‘m.

Jamg‘armaning hisobot davri yakuniga jami qoldiq mablag‘lari **25,6** mlrd so‘mni tashkil etdi.

11. Bog‘dorchilik va issiqxona xo‘jaligini rivojlantirish jamg‘armasining 2024-yil boshiga qoldiq mablag‘lari **21,4** mlrd so‘mni tashkil etgan.

Joriy yilda jamg‘arma **daromadlari** prognoz ko‘rsatkichi **457,0** mlrd so‘m belgilangan bo‘lib, hisobot davrida ijrosi **29,2** mlrd so‘m (*6,4 foiz*)ni tashkil etgan, **shu jumladan:**

- tijorat banklari va tadbirkorlarga ajratilgan resurslar bo‘yicha olinadigan foizlar **0,8** mlrd so‘m;

- oldingi yillarda ajratilgan resurslarning qaytishi **28,4** mlrd so‘m.

Shu bilan birga, jamg'armaga joriy yilda Davlat budjetidan **30,0 mlrd** so'm miqdorida **transfertlar** ajratilgan.

Joriy yilda jamg'armaning **xarajatlari** rejasi **613,7 mlrd** so'mga rejalashtirilgan bo'lib, ijrosi **59,5 mlrd** so'm (*9,7 foiz*)ni tashkil etgan, **shu jumladan:**

- subsidiyalar berish uchun **6,0 mlrd** so'm;
- agentlik va uning idoraviy mansub tashkilotlarini saqlash bilan bog'liq xarajatlar uchun **12,8 mlrd** so'm;
- Davlat budjetidan olingan ssuda va jalb qilingan qarz mablag'larini qaytarish xarajatlari uchun **40,6 mlrd** so'm;
- jalb qilingan qarz mablag'lari bo'yicha to'lanadigan foiz xarajatlar uchun **0,1 mlrd** so'm.

Jamg'armaning hisobot davri yakuniga jami qoldiq mablag'lari **21,1 mlrd** so'mni tashkil etdi.

12. Vinochilikni rivojlantirish jamg'armasining 2024-yil boshiga qoldiq mablag'lari **141,2 mlrd** so'mni tashkil etgan.

Joriy yilda jamg'arma **daromadlari** prognoz ko'rsatkichi **65,5 mlrd** so'm belgilangan bo'lib, hisobot davrida ijrosi **15,2 mlrd** so'm (*23,2 foiz*)ni tashkil etgan, **shu jumladan:**

- texnik navli uzum plantatsiyalarini yaratish va alkogol mahsulotlari ishlab chiqarish uchun berilgan qarzlarni hamda tijorat banklariga kredit ajratish uchun berilgan resurslar bo'yicha hisoblangan foizlardan tushumlar **13,2 mlrd** so'm;
- boshqa daromadlar **1,9 mlrd** so'm.

Joriy yilda jamg'armaning **xarajatlari** rejasi **138,5 mlrd** so'mga rejalashtirilgan bo'lib, hisobot davrida ijrosi **25,0 mlrd** so'm (*18,1 foiz*)ni tashkil etgan bo'lib, mazkur mablag'lar Alkogol va tamaki bozorini tartibga solish inspeksiyasiga o'tkazib berilgan.

Jamg'armaning hisobot davri yakuniga jami qoldiq mablag'lari **131,4 mlrd** so'mni tashkil etdi.

13. Davlat qarziga xizmat ko'rsatish bo'yicha kafolat jamg'armasining 2024-yil boshiga qoldiq mablag'lari **1 029,9 mlrd** so'mni tashkil etgan.

Joriy yilda jamg'arma **daromadlari** prognoz ko'rsatkichi **518,5 mlrd** so'm belgilangan bo'lib, hisobot davrida ijrosi **484,0 mlrd** so'm (*93,3 foiz*)ni tashkil etgan, **shu jumladan:**

- jalb etiladigan kreditlar (qarzlarni) bo'yicha O'zbekiston Respublikasi nomidan davlat kafolatlari berilganligi uchun undiriladigan mukofot puli tushumlari **21,8 mlrd** so'm;

- vaqtincha bo‘sh mablag‘larni tijorat banklariga depozitlarga joylashtirishdan va yuqori likvidli qimmatli qog‘ozlarga investitsiya qilishdan tushumlar **75,7 mlrd so‘m**;

- Xalqaro obligatsiyalarni joylashtirishdan tushgan mablag‘larni depozitga joylashtirish, kredit liniyalari ochish va budjet ssudalarini ajratishdan foiz tarzida to‘lanadigan daromadlardan olingan foyda solig‘i miqdorida respublika budjetidan ajratmalar **27,6 mlrd so‘m**;

- xalqaro moliya institutlari, xorijiy davlatlar va tashkilotlardan jalb qilingan qarz mablag‘larini O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki va tijorat banklariga depozitga joylashtirishdan olinadigan daromadlar **162,2 mlrd so‘m**;

- boshqa daromadlar **196,6 mlrd so‘m**.

Joriy yilda jamg‘armaning **xarajatlari** rejasi **897,5 mlrd so‘m**ga rejalashtirilgan bo‘lib, hisobot davrida ijrosi **74,7 mlrd so‘m (8,3 foiz)**ni tashkil etgan, **shu jumladan:**

- qarzdor tashkilotlar davlat qarzi bo‘yicha to‘lovlarni o‘z vaqtida va to‘liq amalga oshirmagan holatlarda qarzdor tashkilotlar tomonidan qayta qoplash sharti bilan qarz to‘lovlarni amalga oshirish uchun **65,4 mlrd so‘m**;

- boshqa xarajatlar (xalqaro obligatsiyalar bo‘yicha foiz xarajatlar) uchun **9,3 mlrd so‘m**.

Jamg‘armaning hisobot davri yakuniga jami qoldiq mablag‘lari **1 439,1 mlrd so‘m**ni tashkil etdi.

14. Davlat tibbiy sug‘urtasi jamg‘armasining 2024-yil boshiga qoldiq mablag‘lari **62,5 mlrd so‘m**ni tashkil etgan.

Joriy yilda jamg‘arma **daromadlari** prognoz ko‘rsatkichi **4,0 mlrd so‘m** belgilangan bo‘lib, hisobot davrida ijrosi **2,5 mlrd so‘m (62,6 foiz)**ni tashkil etgan.

Jamg‘armaga joriy yilning hisobot davrida Davlat budjetidan **1 772,0 mlrd so‘m** miqdorida **transfertlar** ajratilgan, **shu jumladan:**

- respublika budjetidan **361,9 mlrd so‘m**;

- mahalliy budjetlardan **1 410,1 mlrd so‘m**.

Joriy yilda jamg‘armaning **xarajatlari** rejasi **3 709,6 mlrd so‘m**ga rejalashtirilgan bo‘lib, hisobot davrida ijrosi **1 751,6 mlrd so‘m (47,2 foiz)**ni tashkil etgan, **shu jumladan:**

- Davlat tomonidan kafolatlangan tibbiy yordam doirasida tibbiy xizmatlarni davlat va xususiy tibbiyot tashkilotlaridan xarid qilish uchun **1 734,8 mlrd so‘m**;

- Jamg‘armaning ijro etuvchi apparatini saqlash bilan bog‘liq xarajatlar uchun **16,8 mlrd so‘m**.

Jamg'armaning hisobot davri yakuniga jami qoldiq mablag'lari **85,4 mlrd** so'mni tashkil etdi.

15. Ta'lim kreditini moliyalashtirish jamg'armasining 2024-yil boshiga qoldiq mablag'lari **3 287,7 mlrd** so'mni tashkil etgan bo'lib, shundan, **3 237,3 mlrd** so'mi Ta'lim kreditini moliyalashtirish uchun tijorat banklari depozitlariga joylashtirilgan.

Joriy yilda jamg'arma **daromadlari** prognoz ko'rsatkichi **244,5 mlrd** so'm belgilangan bo'lib, hisobot davrida ijrosi **152,2 mlrd** so'm (*62,2 foiz*)ni tashkil etgan.

Shu bilan birga, jamg'armaga joriy yilning hisobot davrida Davlat budjetidan **1 750,0 mlrd** so'm miqdorida **transfertlar** ajratilgan.

Joriy yilning hisobot davrida jamg'armadan **267,8 mlrd** so'm miqdorida xarajatlar amalga oshirilgan.

Shu bilan birga, **1 602,9 mlrd** so'm ta'lim kreditini moliyalashtirish uchun jamg'arma mablag'lari tijorat banklariga depozitlarga joylashtirilgan.

Jamg'armaning hisobot davri yakuniga jami qoldiq mablag'lari **4 922,0 mlrd** so'mni tashkil etadi.

16. Avtomobil yo'llarini rivojlantirish maqsadli jamg'armasining 2024-yil boshiga qoldiq mablag'lari **240,7 mlrd** so'mni tashkil etgan.

Hisobot davrida jamg'arma **daromadlari** **23,8 mlrd** so'mga ijro etilgan.

Shu bilan birga, jamg'armaga hisobot davrida Davlat budjetidan **2 656,5 mlrd** so'm miqdorida **transfertlar** ajratilgan.

Joriy yilda jamg'armaning **xarajatlari** rejasi **5 484,8 mlrd** so'mga rejalashtirilgan bo'lib, hisobot davrida ijrosi **2 763,6 mlrd** so'm (*50,4 foiz*)ni tashkil etgan, **shu jumladan:**

- O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish dasturiga asosan avtomobil yo'llari, ko'priklar va yo'l o'tkazgichlarini qurish hamda rekonstruksiya qilish, shuningdek obyektlarni jihozlash va texnikalar xarid qilish uchun **1 224,5 mlrd** so'm;

- umumiy foydalanishdagi avtomobil yo'llarini mukammal va joriy ta'mirlash, saqlash, qishki qarov, ko'klamzorlashtirish ishlari bilan bog'liq xarajatlar uchun **1 430,4 mlrd** so'm;

- umumiy foydalanishdagi avtomobil yo'llarida tabiiy ofatlarning oldini olish va ularning oqibatlarini bartaraf etish uchun **102,2 mlrd** so'm;

- Avtomobil yo'llari qo'mitasi va uning bosh boshqarmalari hamda Qo'mita tuzilmasidagi tashkilotlarni saqlash bilan bog'liq xarajatlar uchun **6,5 mlrd** so'm.

Jamg'armaning hisobot davri yakuniga jami qoldiq mablag'lari **157,4 mlrd** so'mni tashkil etdi.

17. Suv ta'minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg'armasining 2024-yil boshiga qoldiq mablag'lari **118,2 mlrd** so'mni tashkil etgan.

Joriy yilda jamg'arma **daromadlari 1,1 mlrd** so'mga ijro etilgan.

Shu bilan birga, jamg'armaga joriy yilda Davlat budjetidan **551,9 mlrd** so'm miqdorida **transfertlar** ajratilgan.

Joriy yilda jamg'armaning **xarajatlari** rejasi **1 260,0 mlrd** so'mga rejalashtirilgan bo'lib, ijrosi **616,8 mlrd** so'm (*49,0 foiz*)ni tashkil etgan, **shu jumladan:**

- ichimlik suvi ta'minoti va kanalizatsiya tizimlarini kompleks rivojlantirish dasturiga muvofiq ichimlik suvi ta'minoti va kanalizatsiya tizimi obyektlarini qurish va rekonstruksiya qilish, shuningdek loyiha-tadqiqot ishlarini moliyalashtirish uchun **616,8 mlrd** so'm.

Jamg'armaning hisobot davri yakuniga jami qoldiq mablag'lari **54,5 mlrd** so'mni tashkil etdi.

18. Ilm-fanni moliyalashtirish va innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash jamg'armasining 2024-yil boshiga qoldiq mablag'lari **128,5 mlrd** so'mni tashkil etgan.

Joriy yilda jamg'arma **daromadlari** prognoz ko'rsatkichi **68,3 mlrd** so'm belgilangan bo'lib, hisobot davrida ijrosi **41,6 mlrd** so'm (*60,9 foiz*)ni tashkil etgan.

Shu bilan birga, jamg'armaga joriy yilning hisobot davrida Davlat budjetidan **222,0 mlrd** so'm miqdorida **transfertlar** ajratilgan.

Joriy yilda jamg'armaning **xarajatlari** rejasi **916,7 mlrd** so'mga rejalashtirilgan bo'lib, hisobot davrida ijrosi **239,3 mlrd** so'm (*26,1 foiz*)ni tashkil etgan, **shu jumladan:**

- ilmiy faoliyatga oid davlat dasturlari doirasidagi loyihalarni moliyalashtirish uchun xarajatlar uchun **120,1 mlrd** so'm;

- yangi va zamonaviy yuqori texnologik asbob-uskunalar bilan jihozlangan ilmiy laboratoriyalarni tashkil qilish va qo'shimcha jihozlash uchun xarajatlar uchun **40,8 mlrd** so'm;

- yosh olimlarning qisqa muddatli ilmiy stajirovkalarini moliyalashtirish uchun xarajatlar uchun **10,3 mlrd** so'm;

- Jamg'armaning Ijro etuvchi direksiyasini saqlash xarajatlari uchun **4,0 mlrd** so'm;

- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining va Vazirlar Mahkamasining qarorlariga asosan dasturlarni amalga oshirish bilan bog‘liq xarajatlar uchun **64,1 mlrd so‘m**.

Jamg‘armaning hisobot davri yakuniga jami qoldiq mablag‘lari **152,9 mlrd so‘mni** tashkil etdi.

19. Aholini tadbirkorlikka jalb qilish jamg‘armasining 2024-yil boshiga qoldiq mablag‘lari **40,8 mlrd so‘mni** tashkil etgan.

Joriy yilda jamg‘arma **daromadlari** prognoz ko‘rsatkichi **135,6 mlrd so‘m** belgilangan bo‘lib, hisobot davrida ijrosi **63,1 mlrd so‘m (46,6 foiz)**ni tashkil etgan.

Shu bilan birga, jamg‘armaga joriy yilning hisobot davrida Davlat budjetidan **45,0 mlrd so‘m** miqdorida **transfertlar** ajratilgan.

Joriy yilda jamg‘armaning **xarajatlari** rejasi **382,0 mlrd so‘mga** rejalashtirilgan bo‘lib, hisobot davrida ijrosi **101,7 mlrd so‘m (26,6 foiz)**ni tashkil etgan, **shu jumladan:**

- subsidiyalar to‘lash uchun **98,6 mlrd so‘m**, shundan:
 - *tomorqa yer egalari uchun subsidiyalar to‘lash uchun 7,4 mlrd so‘m;*
 - *Qishloq xo‘jaligi kooperativlari ustav fondiga ulush sifatida kiritish uchun subsidiyalar to‘lash uchun 6,4 mlrd so‘m;*
 - *Tadbirkorlik va o‘zini o‘zi band qilish faoliyatini boshlamoqchi bo‘lgan ishsiz, shu jumladan «Temir daftar», «Ayollar daftari» va «Yoshlar daftari»ga kiritilgan fuqarolarga faoliyatini boshlash uchun kerak bo‘lgan asbob-uskuna, mehnat qurollarini xarid qilish uchun subsidiyalar to‘lash uchun 84,8 mlrd so‘m;*
 - boshqa xarajatlar uchun **3,1 mlrd so‘m**.

Ja mg‘armaning hisobot davri yakuniga jami qoldiq mablag‘lari **47,3 mlrd so‘mni** tashkil etdi.

20. Hunarmandchilik va kasanachilikni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasining 2024-yil boshiga qoldiq mablag‘lari **61,8 mlrd so‘mni** tashkil etgan.

Joriy yilda jamg‘arma **daromadlari** prognoz ko‘rsatkichi **30,0 mlrd so‘m** belgilangan bo‘lib, hisobot davrida ijrosi **12,0 mln so‘mni** tashkil etgan.

Joriy yilda jamg‘armaning **xarajatlari** rejasi **80,0 mlrd so‘mga** rejalashtirilgan bo‘lib, hisobot davrida ijrosi **16,9 mlrd so‘m (21,2 foiz)**ni tashkil etgan, **shu jumladan:**

- subsidiyalar to‘lash uchun **16,9 mlrd so‘m**.

Jamg‘armaning hisobot davri yakuniga jami qoldiq mablag‘lari **44,9 mlrd so‘mni** tashkil etdi.

21. Ijtimoiy himoya davlat jamg'armasining 2024-yil boshiga qoldiq mablag'lari **586,5 mlrd** so'mni tashkil etgan.

Joriy yilda jamg'arma **daromadlari** prognoz ko'rsatkichi **3 422,0 mlrd** so'm belgilangan bo'lib, hisobot davrida ijrosi **919,6 mlrd** so'm (*26,9 foiz*)ni tashkil etgan, **shu jumladan:**

- jarimalar, dividendlar va boshqa majburiy to'lovlardan ajratmalar **313,9 mlrd** so'm;

- boshqa tushumlar **568,9 mlrd** so'mni tashkil etgan;

- bo'sh mablag'larni tijorat banklari depozitlariga joylashtirishdan olingan daromadlar **36,7 mlrd** so'mni tashkil etgan.

Joriy yilda jamg'armaning **xarajatlari** rejasi **3 285,0 mlrd** so'mga rejalashtirilgan bo'lib, hisobot davrida ijrosi **32,2 mlrd** so'm (*1,0 foiz*)ni tashkil etgan, **shu jumladan:**

- ijtimoiy xarajatlar uchun **24,2 mlrd** so'm;

- boshqa xarajatlar uchun **8,0 mlrd** so'm miqdoridagi xarajatlar amalga oshirilgan.

Jamg'armaning hisobot davri yakuniga jami qoldiq mablag'lari **1 474,0 mlrd** so'mni tashkil etdi.

22. Tibbiyotni rivojlantirish jamg'armasining 2024-yil boshiga qoldiq mablag'lari **49,8 mlrd** so'mni tashkil etgan.

Joriy yilda jamg'arma **daromadlari** prognoz ko'rsatkichi **100,0 mlrd** so'm belgilangan bo'lib, hisobot davrida ijrosi **4,2 mlrd** so'm (*4,2 foiz*)ni tashkil etgan.

Shu bilan birga, hisobot davrida Davlat budjetidan ajratilgan **transfertlar** miqdori **195,4 mlrd** so'm tashkil etadi.

Joriy yilda jamg'armaning **xarajatlari** rejasi **530,0 mlrd** so'mga rejalashtirilgan bo'lib, hisobot davrida ijrosi **245,1 mlrd** so'm (*3,9 foiz*)ni tashkil etgan, **shu jumladan:**

- «Spinal mushak atrofiyasi» tashxisi qo'yilgan bemor bolalarga tibbiy-ijtimoiy yordam ko'rsatish va dori vositalarini bepul yetkazib berish uchun xarajatlar **151,2 mlrd** so'm;

- Iqtidorli va malakali tibbiyot mutaxassislarini qo'llab-quvvatlash hamda ularni tibbiyot muassasalariga jalb qilish uchun xarajatlar **1,2 mlrd** so'm;

- Sog'liqni saqlash tizimidagi davlat tibbiyot muassasalariga kompyuterlar, planshetlar, multimedia va tarmoq qurilmalari, dasturiy ta'minotlarni xarid qilish hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy qilish uchun xarajatlar **0,9 mlrd** so'm.

- Tibbiyotni rivojlantirish davlat maqsadli jamg'armasiga yuklatilgan vazifa va funksiyalarni amalga oshirish uchun ajratiladigan mablag'lar **91,8 mlrd** so'm.

Jamg'armaning hisobot davri yakuniga jami qoldiq mablag'lari **4,3 mlrd** so'mni tashkil etdi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, **Davlat budjeti va davlat maqsadli jamg'armalarining daromadlari 147,2 trln so'mni** va **xarajatlari 173,6 trln so'mni** tashkil etgan holda Davlat budjeti va davlat maqsadli jamg'armalari taqchilligi **26,3 trln so'mni** yoki YIMga (*yillik prognoz ko'rsatkichi*) nisbatan **1,9 foizni** tashkil etdi.

VI. Vazirliklar va idoralar ichki audit xizmatlari hamda Davlat moliyaviy nazorati natijalari

Iqtisodiyot va moliya vazirligi tomonidan 2024-yil I yarim yilligida vazirlik va idoralarning **ichki audit xizmatlari faoliyatini xalqaro ilg'or tajribalar asosida rivojlantirish, uslubiy ta'minlash** hamda **baholash yuzasidan** quyidagi ishlar amalga oshirildi:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Vazirlik va idoralarda ichki audit xizmatlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori loyihasi ishlab chiqildi.

Ushbu qaror loyihasida vazirlik va idoralarda ichki audit xizmatlarini tashkil etishga oid normalar jumladan, ichki audit xizmatlari shtatlari sonini belgilashning tartibi, me'yorlari va mezonlarining tasdiqlanishi nazarda tutilgan.

***Ma'lumot uchun.** Ushbu qaror loyihasi hozirda manfaatdor vazirlik va idoralar bilan kelishilib, jamoatchilik muhokamasiga kiritilgan.*

3. Shuningdek, hisobot davrida ichki audit tuzilmalarini malakali xodimlar bilan ta'minlash maqsadida quyidagi ishlar amalga oshirildi:

- ichki audit milliy malaka sertifikatini olishga talabgorlar uchun maxsus tayyorlov kursi dasturi hamda ichki audit milliy malaka sertifikatiga ega ichki audit xizmati xodimlari uchun malaka oshirish kurslari dasturi va rejasi ishlab chiqilib tasdiqlandi.

- ichki audit milliy malaka sertifikatiga ega ichki audit xizmati xodimlari uchun malaka oshirish kurslari dasturi va rejasi asosida hisobot davrida 11 ta vazirlik va idoralarning 20 nafar xodimi malakasi oshirildi;

- O'zbekiston Auditorlar palatasi bilan birgalikda ichki audit milliy malaka sertifikatini berish bo'yicha malaka imtihonlarida foydalaniladigan test savollari bazasi to'liq qayta ko'rib chiqildi va yangilandi;

4. O'zbekiston Auditorlar palatasi bilan birgalikda ichki audit milliy malaka sertifikati olishga talabgorlar uchun malaka imtihonlari tashkil etildi.

***Ma'lumot uchun.** Ichki audit milliy malaka sertifikatini olish uchun malaka imtihonlari 2023-yilning iyun oyidan boshlab har oyning oxirgi o'n kunligida o'tkazilib kelinadi. 2024-yil 1-iyul holatiga malaka imtihonlarini topshirgan talabgorlarning 622 nafari malaka sertifikatiga ega bo'lgan.*

Jumladan, 2024-yilning I yarim yilligida 331 talabgorlar imtihon topshirib ularning 150 tasi (45%) milliy malaka sertifikatiga ega bo'lgan.

5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 14-avgustdagi "Vazirlik va idoralarning ichki audit xizmatlari faoliyatini baholash tartibi

to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 377-son qarori ijrosini ta'minlash maqsadida:

- baholash o'tkaziladigan vazirlik va idoralarning ichki audit xizmatlari xavf tahlili asosida tanlab olindi, ichki audit xizmatlari faoliyatini baholashni tashkil etish bo'yicha yillik reja ishlab chiqildi hamda Iqtisodiyot va moliya vazirligining tegishli buyrug'i bilan tasdiqlandi.

- joriy yilning I yarim yilligida 6 ta, jumladan, Qishloq xo'jaligi vazirligi, Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi, Suv xo'jaligi vazirligi, Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligi, Sport vazirligi hamda Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirliklarida ichki audit tuzilmalarining faoliyati ichki auditga oid qonunchilik hujjatlariga muvofiqligi yuzasidan baholash o'tkazildi.

Ma'lumot uchun. Baholash natijalariga ko'ra, ichki audit xizmati faoliyatining sifat darajasi 90 foiz va undan yuqori bo'lganda «yuqori», 70-90 foiz oralig'ida bo'lganda «o'rta», 70 foizdan kam bo'lganda «past» deb baholanadi.

Baholash natijalariga ko'ra, Suv xo'jaligi vazirligi (42,4%) va Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi (66,7%) vazirliklari ichki audit tuzilmalari faoliyatining sifat darajasi «past» hamda Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligi (72,4%), Qishloq xo'jaligi vazirligi (73,7%), Sport vazirligi (75,8%), Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirliklari (80,9%) ichki audit tuzilmalari faoliyatining sifat darajasi «o'rta» darajada baholandi.

Baholash natijalari asosida vazirliklarning ichki audit tuzilmasi faoliyatini takomillashtirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi hamda ularning bajarilishi bo'yicha chora-tadbirlar rejasi tasdiqlandi.

II. 2024-yil I yarim yilligida vazirlik va idoralar **ichki audit tuzilmalari** tomonidan quyidagi ishlar amalga oshirildi:

Ma'lumot uchun. Hisobot davrida jami **33 ta**, jumladan, **16 ta vazirlik, 4 ta qo'mita, 8 ta agentlik** va **5 ta boshqa tashkilotlarda** ichki audit xizmatlari faoliyat olib bordi.

1. Hisobot davri davomida ichki audit xizmatlari tomonidan o'tkazilgan audit tadbirlarida jami **485,2 mlrd so'mlik** samarasiz xarajatlar oldi olindi.

2. Shu bilan birga, budget hisobi va hisobotlari yuritilishiga ko'maklashish natijasida **136,5 mlrd so'mlik** asosiy vositalar va tovar moddiy boyliklarni o'rnatilgan tartibda **buxgalteriya balansida to'g'ri aks ettirilishiga** erishildi.

3. Bundan tashqari, ichki audit xizmatlari tomonidan hisobot davrida ichki audit tadbirlari o'tkazilgan obyektlarga **budget qonunchiligi** buzilishi holatlarini, shuningdek, ularni sodir etishga imkoniyat yaratuvchi **sabablar va shart-**

sharoitlarni bartaraf etish va budget xarajatlarining samaradorligi oshirishga qaratilgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqilib amaliyotga tatbiq etilmoqda.

Hisobot davrida vazirlik va idoralar ichki audit tuzilmalari tomonidan ishlab chiqilgan **1029 ta taklif va tavsiyalar ijrosi ta'minlangan.**

4. Ayrim vazirlik va idoralar ichki audit xizmatlari faoliyati natijalari quyidagilardan iborat:

- **Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi** Ichki audit departamenti tomonidan ichki audit tadbirlari davomida xususan budget tashkilotlarning xarajatlar smetasi va shtatlar jadvali tuzilishini o'rganish natijasida **246,5 mlrd so'mlik** samarasiz xarajatlar aniqlangan va maqbullashtirilgan. Shuningdek, **34,7 mlrd so'mlik** buxgalteriya hisobi va hisobotlari yuritilishidagi kamchiliklar aniqlangan va bartaraf etishga ko'maklashilgan.

- **Sog'liqni saqlash vazirligi** Ichki audit xizmati tomonidan o'tkazilgan ichki audit tadbirlari davomida budget tashkilotlarning xarajatlar smetasi va shtatlar jadvali tuzilishini o'rganish natijasida **98,4 mlrd so'mlik** samarasiz xarajatlarning oldini olingan hamda maqbullashtirilgan.

- **Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi** Ichki audit xizmati tomonidan ichki audit tadbirlari davomida budget tashkilotlarning xarajatlar smetasi va shtatlar jadvali tuzilishini o'rganish natijasida **41,0 mlrd so'mlik samarasiz va noto'g'ri rejalashtirilgan** xarajatlarning oldini olingan hamda maqbullashtirilgan.

- **Suv xo'jaligi vazirligi** Ichki audit xizmati tomonidan o'tkazilgan ichki audit tadbirlari davomida shtatlar jadvali va xarajatlar smetasini rejalashtirishda **26,8 mlrd so'mlik samarasiz va noto'g'ri rejalashtirilgan** mablag'lar maqbullashtirilgan.

- **Sport vazirligi** Ichki audit xizmati tomonidan o'tkazilgan ichki audit tadbirlari davomida shtatlar jadvali va xarajatlar smetasini rejalashtirishda **10,1 mlrd so'mlik samarasiz va noto'g'ri rejalashtirilgan** mablag'lar aniqlangan va maqbullashtirilgan.

VII. Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi G‘aznachilik xizmati tomonidan hisobot davrida amalga oshirilgan ishlar

O‘zbekiston Respublikasining 2023-yil 25-dekabrda “2024-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi O‘RQ-886-sonli Qonunida belgilangan budget parametrlari doirasida Davlat budjetida ko‘zda tutilgan xarajatlar va daromadlarning kassa ijrosi G‘aznachilik xizmati qo‘mitasi va uning hududiy bo‘linmalari (keyingi o‘rinlarda - G‘aznachilik) tomonidan amaldagi normativ-huquqiy hujjatlari talablariga muvofiq o‘z vaqtida amalga oshirib kelinmoqda.

Yuridik va moliyaviy majburiyatlar ijrosi to‘g‘risida.

2024-yil I yarim yilligida G‘aznachilik tomonidan jami **7 964 ta** budget tashkilotlariga xizmat ko‘rsatilib, ular tomonidan taqdim etilgan yuridik va moliyaviy majburiyatlar amaldagi qonunchilik talablari doirasida ro‘yxatga olinishi ta‘minlandi (*markazlashgan buxgalteriya tashkilotlari 1 ta tashkilot sifatida olingan*).

Xususan, budget tashkilotlari va budget mablag‘lari oluvchilarning umumiy qiymati **42 798,7 mlrd so‘mlik 623,5 mingta** shartnomalari ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

Raqobatli usullar orqali jami 17 121,0 mlrd so‘mlik 349 648 ta bitimlar imzolangan. Shundan:

- *Elektron do‘kon orqali 2 578,1 mlrd so‘mlik 291 932 ta bitimlar imzolangan bo‘lib, jami xaridlarga nisbatan 6,0 % ni tashkil etadi.*
- *Elektron auksion orqali 154,2 mlrd so‘mlik 9 236 ta bitimlar imzolangan bo‘lib jami xaridlarga nisbatan 0,4 %ni tashkil etadi.*
- *Kooperatsiya portali orqali 527,5 mlrd so‘mlik 23 865 ta bitimlar imzolangan bo‘lib jami xaridlarga nisbatan 1,2 %ni tashkil etadi.*
- *Elektron tanlash orqali 10 652,8 mlrd so‘mlik 23 612 ta bitimlar imzolangan bo‘lib jami xaridlarga nisbatan 24,9 % ni tashkil etadi.*
- *Elektron tender orqali 3 208,3 mlrd so‘mlik 1 003 ta bitimlar imzolangan bo‘lib jami xaridlarga nisbatan 7,5 %ni tashkil etadi.*

Raqobatsiz usullar orqali jami 25 677,7 mlrd so‘mlik 273 844 ta bitimlar imzolangan. Shundan:

- *Yagona yetkazib beruvchilar bilan 11 603,5 mlrd so‘mlik 65 969 ta bitimlar imzolangan bo‘lib jami xaridlarga nisbatan 27,1 %ni tashkil etadi;*
- *To‘g‘ridan-to‘g‘ri shartnomalar orqali 14 074,1 trln so‘mlik 207 875 ta bitimlar imzolangan bo‘lib jami xaridlarga nisbatan 32,9 %ni tashkil etadi.*

Shu bilan birga, budget tizimi budgetlarining umumiy qiymati **311,8 trln so‘mlik 7,4 mln dona** to‘lov hujjatlari amalga oshirilgan bo‘lib, budget mablag‘lari hisobidan jami **149,8 trln so‘mlik 3,0 mln dan ziyod**, budgetdan tashqari mablag‘lar hisobidan jami **83,9 trln so‘mlik qariyb 3,7 mln ta** hamda Davlat maqsadli va boshqa maqsadli jamg‘armalar hisobidan jami **78,1 trln so‘mlik 683,6 mingdan** ortiq to‘lov hujjatlari to‘lanishi ta‘minlangan.

Ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlarini birinchi yarmini (avans) har oyning 20 sanasidan kechiktirmasdan hamda oylik ish haqining ikkinchi yarmini har oyning birinchi besh ish kunida to‘liq moliyalashtirib kelinmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 14-avgustdagi 489-sonli qaroriga asosan soliq idoralarining xulosalariga ko‘ra Davlat budjeti mablag‘lari hisobidan **2 792 ta** tadbirkorlik subyektlariga jami **10 746,3 mlrd so‘mlik qo‘shilgan qiymat solig‘i** to‘lab berildi.

Shuningdek, soliq idoralarining xulosalariga asosan **qo‘shilgan qiymat solig‘ining 500,0 mln so‘mgacha** bo‘lgan qismini tadbirkorlik subyektlariga avtomatik tarzda to‘lab berilishi yo‘lga qo‘yildi.

Shu bilan birga, Davlat budjeti mablag‘lari hisobidan joriy yilning 6 oyi davomida soliq idoralarining **4 410 ta** xulosalariga asosan **2 145 ta** ish beruvchilarga ular tomonidan 25 yoshdan oshmagan xodimlar uchun to‘langan **ijtimoiy soliq summasini qoplab berish uchun 52,8 mlrd so‘m** qaytarildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 4-oktyabrdagi PQ-5252-sonli qaroriga asosan G‘aznachilik tomonidan chakana savdo, umumiy ovqatlanish va aholiga maishiy xizmat ko‘rsatish obyektlarida xaridni amalga oshirgan va xarid chekinging fiskal belgisini matrisali shtrix kod (QR-kod) yordamida skanerlash orqali ro‘yxatdan o‘tkazgan **jismoniy shaxslarga xarid summasining 1 foiz (Cashback)** uchun Davlat budjeti mablag‘lari hisobidan **286,0 mlrd so‘m** mablag‘ belgilangan muddatlarda jismoniy shaxslarga qaytarib berish bo‘yicha ochilgan bank hisobraqamiga o‘tkazib berildi.

Budget tizimi budgetlari daromadlarining taqsimlanishi to‘g‘risida.

Budget tizimi budgetlari daromadlarining kassa ijrosini ta‘minlash uchun Hukumat qarorlarida belgilangan miqdorda soliqlar, boshqa majburiy to‘lovlar, ma‘muriy jarimalar va moliyaviy sanksiyalarni undirilishi natijasida Yagona g‘azna hisobvarag‘iga kelib tushgan mablag‘lar undiruvchi organlarning rivojlantirish jamg‘armasiga hamda Davlat budjeti daromadi o‘rtasida taqsimlanish choralari ko‘rilib, natijada majburiy to‘lovlar, ma‘muriy jarimalar va moliyaviy sanksiyalar to‘lovchilardan **17,4 trln so‘m** mablag‘ undirilgan bo‘lib, shundan **3,2 trln so‘mi** davlat budjetiga qolgan **14,2 trln so‘m jamg‘armalar hamda** mablag‘ undiruvchi **organlarining budgetdan tashqari jamg‘armalarga** yo‘naltirildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 15-apreldagi PQ-208-sonli va 2022-yil 30-dekabrda PQ-471-sonli qarorlariga asosan soliqlar, majburiy yig‘imlar, bojlar va jarimalar hisobidan davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, vazirliklar va idoralarning budjetdan tashqari jamg‘armalariga kelib tushgan mablag‘larning hamda mazkur jamg‘armalarning bo‘sh turgan mablag‘larini tijorat banklariga joylashtirishdan olingan daromadlaridan hisobot davrida **40 foiz jami 1 171,1 mlrd so‘m mablag‘ Respublika budjeti daromadiga** undirib olishga erishildi.

Yagona g‘azna hisobvarag‘idagi mablag‘larni samarali boshqarish to‘g‘risida.

Budjet tashkilotlari va davlat maqsadli jamg‘armalarning bo‘sh turgan mablag‘laridan samarali foydalanish maqsadida, tijorat banklariga vaqtincha bo‘sh turgan mablag‘larni depozitga joylashtirish uchun taqdim etilgan buyurtmanomalariga asosan **budjet tashkilotlarining budjetdan tashqari vaqtincha bo‘sh turgan mablag‘lari hisobidan** o‘tkazilgan elektron auksion natijalariga ko‘ra depozit stavkasi o‘rtacha **22,3 foizdan 5 307,8 mlrd so‘m tijorat banklari** muddati 1 oydan 1 yilgacha bo‘lgan muddat **depozitlarga** joylashtirildi.

Bo‘sh turgan mablag‘larni depozitga joylashtirish natijasida, budjet tashkilotlari tomonidan qo‘shimcha **762,0 mlrd so‘m** daromad olishiga erishildi.

Bundan tashqari, hisobot davrida **Yagona g‘azna hisobvarag‘ida vaqtincha bo‘sh turgan mablag‘lar hisobidan** depozit stavkasi o‘rtacha **21,7 foizdan jami 2 000,0 mlrd so‘m** tijorat banklari depozitlariga joylashtirilishi hisobidan, **481,5 mlrd so‘m** daromad olindi va belgilangan tartibda tegishli normativlarga muvofiq budjet tizimi budjetlari o‘rtasida taqsimlandi.

Budjetdan tashqari **pensiya jamg‘armasining vaqtincha bo‘sh turgan mablag‘lari hisobidan** o‘tkazilgan elektron auksion natijalariga ko‘ra depozit stavkasi o‘rtacha **15,7 foizdan 6 850,0 mlrd so‘m** tijorat banklari depozitlariga joylashtirilib, buning natijasida pensiya jamg‘armasi tomonidan qo‘shimcha **39,3 mlrd so‘m** daromad olindi (*depozitlar qisqa muddatli bo‘lib 6 kundan 25 kungacha joylashtirilgan 2024-yil 1-iyul holatiga 4 950,0 mlrd so‘m mablag‘ Budjetdan tashqari pensiya jamg‘armasiga o‘z vaqtida qaytarilgan*).

Budjet tizimi budjetlarining chet el valyutasidagi mablag‘lari to‘g‘risida.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining tegishli qarorlari asosida xalqaro moliya institutlaridan jalb qilingan mablag‘lar hisobidan **248,3 mln AQSh dollari** (3 117,6 mlrd so‘m), **150,0 mln Yevro** (2 024,5 mlrd so‘m) hamda Xalqaro suveren obligatsiyalardan **599,4 mln Yevro** (8 216,2 mlrd so‘m) mablag‘lar davlat budjeti xarajatlarini moliyalashtirish uchun yo‘naltirildi.

2024-yil I yarim yilligida O‘zbekiston Respublikasiga kirib kelgan gumanitar yordamlar to‘g‘risida.

O‘zbekiston Respublikasiga 2024-yil I yarim yillikda **21 ta** davlatdan umumiy qiymati **37 404,0 ming** AQSh dollar miqdorida gumanitar yordam yuklari kirib kelgan bo‘lib, uning asosiy salmog‘i **Amerika Qo‘shma Shtatlari – 14 390,9 ming** AQSh dollar (**38,5 %**), **Shveysariya – 10 045,2 ming** AQSh dollar (**26,9 %**) va **Belgiya – 7 960,6 ming** AQSh dollar (**21,3 %**) davlatlariga to‘g‘ri keladi (*umumiy gumanitar yordamning 86,7 foizi yuqoridagi uchta davlatga tegishli*).

Kirib kelgan gumanitar yordam sohalari kesimida tahlil qilinganda, **sog‘liqni saqlashga (36 995,1 ming** AQSh dollar), **ta‘limga (8,2 ming** AQSh dollar) va **ijtimoiy sohalarga (305,5 ming** AQSh dollar) yo‘naltirilgan.

Shundan ko‘rish mumkinki, kirib kelgan gumanitar yordamning eng ko‘p miqdori ya‘ni **98,9 foizi** sog‘liqni saqlash sohasiga to‘g‘ri keladi.

Ushbu davrda kirib kelgan gumanitar yordamlarni gumanitar yordam oluvchi tashkilotlar salmog‘iga nisbatan olib tahlil qilinganda, “Sog‘lom avlod uchun” xalqaro xayriya fondi **30,7 foizni**, O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi huzuridagi Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik agentligi **28,8 foizni** va Respublika ixtisoslashtirilgan gematologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi **26,9 foizni** tashkil etadi.

G‘aznachilik faoliyatiga oid Normativ-huquqiy hujjat loyihasi ishlab chiqish.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 30-dekabrda PQ-471-sonli qaroriga muvofiq Budjetning birlamchi xarajatlarini qoplash uchun Yagona g‘azna hisobvarag‘ida saqlanishi lozim bo‘lgan mablag‘larning eng kam miqdorini aniqlash va ulardan foydalanish tartibi bo‘yicha **Vazirlar Mahkamasi qarori ishlab chiqilib, tasdiqlandi.**

Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 25-yanvardagi “Budjetning birlamchi xarajatlarini qoplash uchun yagona g‘azna hisobvarag‘ida saqlanishi lozim bo‘lgan mablag‘larning eng kam miqdorini aniqlash chora-tadbirlari to‘g‘risida” 47-sonli qarori.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Davlat organlari va tashkilotlari xodimlarini, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi delegatsiyalarini chet davlatlarga xizmat safariga yuborish xarajatlari uchun mablag‘lar ajratish tartibini yanada takomillashtirish to‘g‘risida" qaror **loyihasi** tasdiqlash uchun **Vazirlar Mahkamasiga kiritildi.**

G‘aznachilik xizmati qo‘mitasi Risklar tahlili boshqarmasi tomonidan 2024-yil 6 oyligida o‘tkazilgan masofaviy monitoring natijalari to‘g‘risida.

G'aznachilik xizmati qo'mitasi tomonidan hududiy G'aznachilik xizmati boshqarmasi hamda uning hududiy bo'linmalarida yuridik va moliyaviy majburiyatlarning ro'yxatdan o'tkazilishi hamda boshqa g'aznachilik operatsiyalarning amalga oshirilganlik holati yuzasidan tanlanma tartibda masofaviy monitoring tadbirlari natijasida **jami 205 ta** holatda **14 833,2 mln so'mlik** yuridik va moliyaviy majburiyatlar xato va kamchiliklar aniqlangan.

I. Shartnomalarni ro'yxatdan o'tkazilishida jami 99 ta holatda 11 988,5 mln so'mlik xato va kamchiliklar aniqlandi, jumladan:

1. Asossiz to'g'ridan-to'g'ri tuzilgan jami **13 ta** holatda **448,8 mln so'mlik;**

Toshkent shahri Mirobod tumani O'zbekiston Respublikasi Transport vazirligi huzuridagi fuqaro aviatsiyasi agentligi bilan "AKFA DREAM WORLD" MChJ o'rtasida mehmonxona xizmati (1 kunlik 2 600 000 so'm) uchun tuzilgan 21,2 mln so'mlik shartnoma asossiz ravishda to'g'ridan-to'g'ri tuzilgan.

2. Davlat xaridlari qiymati bazaviy hisoblash miqdorining 6000 baravaridan ortiq bo'lgan ($6000 \cdot 340\,000 = 2\,040,0$ mln so'm), ekspertiza o'tkazmaslik maqsadida xarid qiymatini qismlarga bo'lgan holda tuzilgan jami **18 ta** holatda **9 617,3 mln so'mlik;**

Toshkent viloyati Bo'stonliq tumani tibbiyot birlashmasi qurilish mollari sotib olish uchun ajratilgan 2 241,3 mln so'mlik mablag'ni qismlarga bo'lgan holda ekspertiza o'tkazmaslik maqsadida tender o'tkazilishi to'g'risidagi e'lonni joylashtirmasdan eng yaxshi taklif tanlash yo'li bilan shartnomalar tuzgan.

3. "Shaffof qurilish" portali orqali tuzilmasdan jami **29 ta** holatda **122,5 mln so'mlik;**

Namangan viloyati Chust tumani maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi ("Tashabbusli budjet") tomonidan 13 va 38-sonli maktablarning qurilish loyiha ekspertizasi uchun 2,3 mln so'mlik shartnomalarni "Shaffof qurilish" portali orqali tuzilmagan.

4. Xo'jalik shartnomalarini dasturda budjet tasnifiga mos bo'lmagan holda jami **32 ta** holatda **1 296,0 mln so'mlik** shartnomalar ro'yxatdan o'tkazilgan.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Shumanay tumani kasb-hunar maktabi tomonidan 42 99 990 "Tovar va xizmatlar sotib olish bo'yicha boshqa xarajatlar" xarajat turidan 268,8 mln so'mga quyosh panellari sotib olingan, aslida 43 54 990 "Boshqa texnika" xarajat turidan olinishi lozim edi.

Shuningdek, shartnoma tuzish o'rniga asossiz ravishda **7 ta** holatda **503,9 mln so'mlik** yuridik majburiyatlarni rasmiylashtirgan holda ro'yxatdan o'tkazilgan.

Andijon viloyati Andijon shahar tibbiyot birlashmasi tomonidan 337,2 mln so'mlik boshqa texnika uchun tuzilgan shartnomaga etender.uzex.uz

maxsus axborot portaliga e'lon joylashtirilmasdan asossiz ravishda to'g'ridan-to'g'ri qarzdorlik sifatida o'tkazib berilgan.

II. To'lovlarni amalga oshirilishida hisobvaraq-fakturalar elektron shaklda qabul qilinmasdan **106 ta** holatda **2 844,7 mln so'mlik** to'lovlar amalga oshirilgan.

Farg'ona viloyati Farg'ona tumani maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi bilan "Boypulat fayz" MChJ o'rtasida oziq-ovqat uchun tuzilgan shartnoma bo'yicha hisobvaraq-faktura qabul qilinmasdan 7,0 mln so'mlik to'lov amalga oshirilgan.

VIII. Davlat-xususiy sheriklik, xalqaro reyting va indekslar, Davlat xaridlari hamda boshqa ko'rsatkichlari

Davlat-xususiy sheriklik (keyingi o'rinlarda – DXSh) sohasida respublika bo'yicha 2024-yilning I yarim yilligida quyidagi ishlar amalga oshirildi.

Joriy yilning I yarim yilligi yakuni bilan umumiy qiymati **8 719,7 mlrd so'm**dan ortiq bo'lgan **266 ta** loyihalarning ro'yxati shakllantirildi. Xususan, ta'lim sohasida umumiy qiymati **1 440,0 mlrd so'm** bo'lgan **58 ta**, sog'liqni saqlash sohasida umumiy qiymati **144,8 mlrd so'm** bo'lgan **11 ta**, madaniyat sohasida umumiy qiymati **85,4 mlrd so'm** bo'lgan **20 ta**, sport sohasida umumiy qiymati **19,9 mlrd so'm** bo'lgan **3 ta**, energetika sohasida qiymati **3 335,7 mlrd so'm**dan ortiq bo'lgan **1 ta**, transport sohasida qiymati **1 778,0 mlrd so'm** bo'lgan **1 ta**, kommunal xizmatlar sohasida **1 ta**, qishloq xo'jaligi sohasida umumiy qiymati **0,6 mlrd so'm** bo'lgan **4 ta**, suv xo'jaligi sohasida umumiy qiymati **1 562,8 mlrd so'm** bo'lgan **161 ta**, hamda boshqa sohalarda umumiy qiymati **352,6 mlrd so'm** bo'lgan **6 ta** loyihalarni tashkil etadi

Hududlar kesimi bo'yicha, Qoraqalpog'iston Respublikasida **3 498,4 mlrd so'm** bo'lgan **19 ta**, Toshkent shahrida **682,2 mlrd so'm** bo'lgan **20 ta**, Andijon viloyatida **170,0 mlrd so'm** bo'lgan **35 ta**, Buxoro viloyatida **52,2 mlrd so'm** bo'lgan **5 ta**, Jizzax viloyatida **38,4 mlrd so'm** bo'lgan **6 ta**, Qashqadaryo viloyatida **103,0 mlrd so'm** bo'lgan **9 ta**, Navoiy viloyatida **46,1 mlrd so'm** bo'lgan **9 ta**, Namangan viloyatida **3 436,9 mlrd so'm** bo'lgan **27 ta**, Samarqand viloyatida **220,1 mlrd so'm** bo'lgan **23 ta**, Sirdaryo viloyatida **30,5 mlrd so'm** bo'lgan **5 ta**, Surxondaryo viloyatida **114,8 mlrd so'm** bo'lgan **16 ta**, Toshkent viloyatida **45,4 mlrd so'm** bo'lgan **23 ta**, Farg'ona viloyatida **252,6 mlrd so'm** bo'lgan **46 ta** hamda Xorazm viloyatida **29,3 mlrd so'm** bo'lgan **23 ta**.

Joriy yilning I yarim yilligi davomida vazirlik va idoralar bilan hamkorlikda umumiy qiymati **993,6 mlrd so'm** bo'lgan **58 ta** loyihalar bo'yicha DXSh to'g'risidagi bitimlar imzolandi hamda DXSh loyihalari reyestriga kiritildi.

Jumladan, ta'lim sohasida umumiy qiymati **914,8 mlrd so'm** bo'lgan **34 ta**, madaniyat sohasida umumiy qiymati **42,5 mlrd so'm** bo'lgan **7 ta**, sport sohasida umumiy qiymati **17,5 mlrd so'm** bo'lgan **2 ta**, qishliq xo'jaligi sohasida umumiy qiymati **0,6 mlrd so'm** bo'lgan **4 ta**, suv xo'jaligi sohasida umumiy qiymati **6,9 mlrd so'm** bo'lgan **10 ta** hamda boshqa yo'nalishlar bo'yicha umumiy qiymati **11,4 mlrd so'm** bo'lgan **1 ta** loyihalar yuzasidan bitimlar rasmiylashtirildi.

Shu bilan birga, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki maslahat ko'magida qiymati **262,65 mln dollar** bo'lgan **Qoraqalpog'iston Respublikasida 100 MVt elektr energiyasini saqlash tizimiga ega 200 MVt shamol elektr stansiyasini qurish va boshqarish loyihasi** bo'yicha Saudiya Arabistonining "ACWA

Power” kompaniyasi tomonidan imzolangan DXSh bitimi DXSh loyihalari reyestriga kiritilmoqda.

Xalqaro reyting va indekslar bilan ishlash bo‘yicha 2024-yil I yarim yillikda amalga oshirilgan ishlar yuzasidan.

O‘zbekistonda **2022-2023-yillarda** amalga oshirilgan tizimli islohotlar natijasida mamlakatimizning **nufuzli xalqaro reytinglardagi o‘rni** sezilarli darajada yaxshilanib kelmoqda, bu o‘z o‘rnida respublikaning **investitsiya muhitiga ijobiy ta’sir ko‘rsatmoqda.**

Masalan, O‘zbekiston so‘nggi besh yilda **“Huquq ustuvorligi”** indeksida **16 pog‘onaga (78-o‘rin)**, **“Elektron hukumat”** reytingida **18 pog‘onaga (69-o‘rin)**, **“Iqtisodiy erkinlik”** indeksida **37 pog‘onaga (103-o‘rin)**, **“Logistika samaradorligi”** hamda **“Global innovatsiyalar”** indekslarida **11 pog‘onaga (tegishliicha 88-o‘rin va 82-o‘rin)** ko‘tarildi. 2023-yilda mamlakatimiz Jahon bankining **“Ayollar, biznes va qonun”** indeksida katta islohotlarni amalga oshirgan **5 talikka kirdi.**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining **2024-yil 21-fevraldagi PF–37-son farmoni** ijrosini ta’minlash maqsadida Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Adliya vazirligi hamda mutasaddi vazirlik va idoralar bilan birgalikda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 19-iyundagi **“Xalqaro reyting va indekslar bilan ishlash tizimini takomillashtirish hamda ushbu sohada parlament nazoratini kuchaytirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”**gi PF-91-sonli farmoni ishlab chiqildi.

Farmonga bilan quyidagilar:

1) **Oliy Majlis Senatiga** ustuvor xalqaro reytinglar va indekslar ro‘yxatini tasdiqlash vakolatlarini berildi;

2) **Oliy Majlis Senatida** har yili xalqaro reytinglarda respublikaning o‘rni yaxshilanishi to‘g‘risida **milliy ma’ruzani** muhokama qilish tartibi joriy etildi;

3) Xalqaro reyting va indekslar bilan ishlash bo‘yicha Respublika kengashining **yangilangan tarkibi tasdiqlandi;**

4) Xalqaro reyting va indekslar **soha va tarmoqlarga ajratildi** hamda ularni muvofiqlashtirish Respublika kengashining ishchi organlari bo‘yicha taqsimlandi,

Xususan:

Iqtisodiyot va moliya vazirligi – *iqtisodiy samaradorlik, inson kamoloti, barqaror rivojlanish va turizm, sog‘liqni saqlash, elektron hukumat, global raqobatbardoshlik, ta’lim hamda gender tenglik va ijtimoiy inklyuzivlik.*

Adliya vazirligi – *huquqiy ustuvorlik, korrupsiyaga qarshi kurashish va shaffoflik, boshqaruv sifati yo‘nalishlari bo‘yicha reytinglar.*

5) 2024-yil yakuniga qadar **“O‘zbekiston Respublikasi xalqaro reytinglarda” yagona portali ishga tushiriladi.** Portal Parlament va mutasaddi vazirlik hamda idoralarning reyting va indekslar bilan ishlashdagi faoliyatini uyg‘unlashtiradi. Portalda **xalqaro hamkorlarimiz, investorlar va fuqarolar** uchun mamlakatimizning reyting va indekslardagi ko‘rsatkichlari, vazirlik va idoralar tomonidan amalga oshirilayotgan islohotlar bo‘yicha ma’lumotlar, tahlillar, samaradorlik ko‘rsatkichlari (KPI) aks ettiriladi.

2. Joriy yilning 16-may kuni Jahon bankining **“Ayollar, biznes va qonun”** indeksi jamoasi hamda Oila va xotin-qizlar qo‘mitasi bilan birgalikda **“Ayollar, biznes va qonun”** indeksi metodologiyasi va ushbu indeksda O‘zbekiston o‘rnini yaxshilash yuzasidan trening seminarlar o‘tkazildi.

Davlat xaridlari sohasida amalga oshirilgan ishlar.

2024-yil I yarim yillikda davlat xaridlari sohasini yanada takomillashtirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan islohotlar davom ettirildi.

Amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida davlat buyurtmachilari tomonidan respublika bo‘yicha jami **113,8 trln** so‘mlik xaridlar (*budjet buyurtmachilari – 42,8 trln so‘m va korporativ buyurtmachilar – 71 trln so‘m*) amalga oshirildi.

Shundan **57,3 trln** so‘mi (*50,4 %*) **raqobatli xaridlar** bo‘lib, buning natijasida **6,1 trln** so‘m (*10,6 %*) mablag‘lar **iqtisod qilingan.**

Qolgan **56,5 trln** so‘mi (*49,6 %*) **raqobatsiz xaridlarga** to‘g‘ri keladi.

Jami xaridlarning **17,3 trln** so‘mi (*15 %*) **“yashil” xaridlar** ulushiga to‘g‘ri keladi.

2. Qonunchilikni takomillashtirish.

2024-yil 2-iyul kuni O‘RQ-935-sonli Qonun bilan O‘zbekiston Respublikasining **“Litsenziyalash, ruxsat berish va xabardor qilish tartib-taomillari to‘g‘risida”**gi Qonuniga kiritilgan o‘zgartirish va qo‘shimchalarga ko‘ra davlat xaridlarining subyektlariga **davlat xaridlari elektron tizimlarida xarid qilish tartib-taomillarini amalga oshirish bilan bog‘liq xizmatlar ko‘rsatish ruxsat etish xususiyatiga ega hujjatlarni olish talab etiladigan faoliyat turi** sifatida belgilandi.

Davlat xaridlari sohasini yanada takomillashtirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasining **“Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi “O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga davlat xaridlari tizimini yanada takomillashtirishga qaratilgan qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritish haqida”**gi Qonuni loyihasi ishlab chiqilib, Oliy Majlis Senatiga kiritildi.

3. Xorijiy tashkilotlar bilan hamkorlik.

a) **Jahon banki bilan hamkorlikda** “Iqtisodiy rivojlanishni ta’minlash uchun samarali boshqaruv” dasturi doirasida joriy yilning 6-fevral kuni **“O‘zbekistonda barqaror davlat xaridlarini joriy etish va ilg‘or xalqaro tajriba”** mavzusida forum o‘tkazildi.

b) **Jahon banki hamda “Impacti” xalqaro konsalting tashkiloti bilan hamkorlikda** joriy yilning 7-8 fevral kunlari ayrim davlat xaridlari subyektlari uchun **“Yashil” davlat xaridlari – O‘zbekistonning “yashil” rivojlanish strategiyasi poydevori”** mavzusida **seminar-trening** tashkil etildi.

v) **Fransiya taraqqiyot agentligi bilan “Yashil” xaridlarni O‘zbekistonda davlat xaridlari sohasiga joriy etish” loyihasi** doirasida davlat buyurtmachilari uchun **“yashil” xaridlarni amalga oshirish bo‘yicha yo‘riqnoma** ishlab chiqildi.

g) O‘zbekiston Respublikasining **“Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi Qonuniga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritishni nazarda tutuvchi Qonun loyihasi** ishlab chiqilishi jarayonida **Jahon banki ekspertlari** bilan ilg‘or **xorijiy tajribalar asosida takliflar ishlab chiqishda uzviy hamkorlik** qilindi.

4. Davlat xaridlarini raqamlashtirish.

a) Taraflar xohishiga ko‘ra, barcha turdagi **to‘g‘ridan-to‘g‘ri shartnomalarni elektron shaklda shartnomalar imzolash** amaliyoti yo‘lga qo‘yildi.

b) **Xarid qilish hujjatlari** hamda qonunchilikka ko‘ra **to‘g‘ridan-to‘g‘ri tuziladigan shartnomalar** loyihalari yuzasidan Loyihalar va import kontraktlarini **kompleks ekspertiza qilish markazining** tegishli **xulosalarini** elektron tarzda olish bo‘yicha tegishli dasturlar o‘rtasida o‘zaro **integratsiya yo‘lga qo‘yildi.**

v) **Xarid qilish hujjatlarini elektron tarzda** ishlab chiqish, **kelishish va tasdiqlash imkoniyati** yaratildi.

Davlat tashqi va ichki qarzi tahlili.

2024-yilning I yarim yilligi davomida O‘zbekiston Respublikasi (O‘zbekiston Respublikasi Hukumati) nomidan va davlat kafolati ostida imzolangan jami tashqi qarz shartnomalarining hajmi **2,8 mlrd AQSh** dollarini tashkil qildi. Shundan, **515,0 mln AQSh** dollari budjetni qo‘llab-quvvatlash uchun imzolandi.

Shuningdek, davlat budjetini qo‘llab-quvvatlash va qayta moliyalashtirish maqsadida **1,5 mlrd AQSh** dollari miqdoridagi suveren xalqaro obligatsiyalar chiqarildi.

Ichki moliya bozorida, davlat budjeti taqchilligini hamda vaqtinchalik kassa uzilishining o‘rnini qoplash maqsadida I yarim yillikda o‘tkazilgan 87 ta auksion savdolarida jami **18,5 trln** so‘mlik (*sof - 10,8 trln. so‘m*) davlat g‘aznachilik obligatsiyalari (DG‘O) joylashtirildi.

Shundan, 3-6 oylik DG‘O **1 400,0** mlrd so‘mni (7,6%), 1 yillik DG‘O **9 018,8** mlrd so‘mni (48,6%), 2 yillik DG‘O **5 931,6** mlrd so‘mni (32.0%), 3 yillik DG‘O **1 178,2** mlrd so‘mni (6,4%) va 5 yillik DG‘O **1 013,3** mlrd so‘mni (5,5%) tashkil etdi.